

O.A.TURAKULOVA

**ADABIYOT DARSLARIDA ALISHER  
NAVOIY IJODINI O'RGANISH  
MUAMMOLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI**  
**UNIVERSITETI**

**O. A.TURAKULOVA**

**ADABIYOT DARSLARIDA ALISHER**  
**NAVOIY IJODINI O‘QITISH MUAMMOLARI**

Oliy o‘quv yurti talabalari va adabiyot ixlosmandlari uchun uslubiy qo‘llanma



**Toshkent – 2019**

Mazkur uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurti talabalari, adabiyot ixlosmandlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda adabiyot fani bo‘yicha o‘quv dasturida Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga ajratilgan mavzular qamrab olingan. Unda xalqimiz ma’naviy merosining ajralmas qismi bo‘lgan ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o‘rganish sohasida Prezidentimiz hamda O‘zbekiston Respublikasi hukumati, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan olib borilayotgan xayrli ishlar, shoir ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, lirikasining badiiyati, epik asarlarining tarbiyaviy masalalarini yoritishga harakat qilingan.

Qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar” kafedrasida pedagogika kengashining 2019 yil 4- iyundagi yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (bayonnoma № 20).

Bu uslubiy qo‘llanmadan o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlari talabalari, barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

**Mas’ul muxarrir: S.Muhamedova**

filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar: M.Abdullayeva**

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, f.f.n

**Y.Eshmatova**

Axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar kafedrasida o‘qituvchisi

## SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish tubdan o‘zgardi. 1991 yilni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti avval-boshdan ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri tavalludining 550 yilligi munosabati bilan “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilgan edi.

O‘zbekiston Prezidenti 2000- yilning 22- yanvarida ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasida Alisher Navoiy ijodining milliy ma’naviyatimizdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida fikr bildiradi: “Joylarga borganda yangi maktablardagi sinflarni ko‘rsatishadi. Shunda adabiyot sinfini ham ko‘rsatishdi. Shu adabiyot sinfida Alisher Navoiy hayoti va va ijodini o‘rganish metodikasi aks etgan.

Shunda men bir savol berganimda, ko‘ngildagidek javob ololmadim.

Nima uchun Navoiyni yaxshi bilmaymiz? O‘zbekistonda o‘zini o‘zbek degan, nafaqat o‘zbek, o‘zbek tilini biladigan mahalliy millat vakili bo‘lgan odam Navoiyni sevishi, sevishgina emas, uni yurak to‘rida saqlab, ardoqlashi lozim”.

Bu qimmatli mulohazalar amalda olimlarimizning, o‘qituvchilarimizning Navoiyga munosabatini teranlashtiradi.

Sizga tavsiya etilayotgan o‘quv qo‘llanma ana shu mulohazalardan kelib chiqib yaratildi. U adabiyot fani o‘qituvchilari, akademik litsey va kollej o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari hamda adabiyot fani ixlosmandlari uchun mo‘ljallangan. Unda Navoiy ijodining o‘ziga xos qirralari, lirikasining poetik xususiyatlari, “Xamsa” dostonlarining sujet tarkibi, badiiy mahorati masalalari aks ettirilgan. Qo‘llanmaning “Ilova” qismida, ochiq dars ishlanmasi, Navoiy asarlari qisqacha lug‘ati, testlar, tadbir ssenariylari, davlat arboblarning shoir haqidagi fikrlari berilgan.



## **ALISHER NAVOIY HAYOTI.**

### **SHOIR SHE'RIYATI**

**Darsda quyidagi muammolar qo'yiladi va hal etiladi:**

1. O'zbek mumtoz adabiyoti fani maqsad va vazifalaridan biri ba'zi tarixiy , xalq og'zaki ijodi mahsullari tarkibidagi yozma shakldagi asarlarni o'rganishdir. Buning sababini aniqlash.

2. Adabiyot tarixidan ma'lumki, ba'zi shaxslar yoki siyosiy tuzum adabiy jarayonni, ijodkorlarni jilovlashga, o'z manfaatlari yo'lida bo'ysundirishga harakat qiladilar. Bu hodisaning sabablarini aniqlash.

3. Alisher Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati haqida o'quvchilarning tushunchalarini boyitish ustida fikr yuritiladi.

### **Mavzuda qo'llaniladigan tayanch so'z va iboralar**

Jahon madaniyati xazinasini. O'zbek xalqi ma'naviy madaniyati. Lirik asarlar va epik asarlar. Memuar va tarixiy asarlar. Adabiy hodisa. Xalq kitoblari va tarjima adabiyoti. Dunyoqarash. Qimmatli xislat. Borliq. Tasavvuf. Tamoyil. Muammo. Adabiy boylik. Insoniy fazilat.



## **DARSNING REJASI:**

1. Alisher Navoiy nomi mangu barhayot.
2. Shoir hayot yoʻlining boshlanishi.
3. Yigitilik chogʻlari.
4. Shoirning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati.
5. Ijod ogʻushida. Adabiy merosi.
6. Hayot bilan vidolashuv.

Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati yetti qavat osmon kabi yuksakdir. Bu yuksak qavatlariga yoʻl topib borish va ulardagi maʼnolar xazinasini ochish oson emas. Ayniqsa, akademik litsey oʻquvchilari Navoiy asarlarining teran maʼnolarini tushunishida olim va adiblarining tahlil va talqinlariga, uqtirishlariga katta ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyojni qondirish uchun Navoiy asarlariga xos ilmiylik bilan badiiylikni bir-biriga uygʻunlashtirib tahlil qilish, shu yoʻl bilan ularning talqinini oʻquvchilarga tushunarli shaklda yetkazib berish maqsadga muvofiq keladi. Yosh avlod qalbiga istiqloq gʻoyasini singdirishda Navoiy asarlarida uchragan har bir soʻzning maʼnosini sharhlash ham ahamiyatlidir. Oʻquvchilar dunyoqarashini shakllantirishda milliy gʻoya bosh yoʻnalish boʻlib, bu gʻoyani yosh avlod qalbi va ongiga singdirishda Navoiy ijodining imkoniyati kattadir. Mashhur nemis shoiri Gyotening: “Sen bir soʻzni izohlab berish bilan bir millatning mushkulini oson qilding” degan soʻzlari nihoyatda oʻrinli ekanini yoddan chiqarmasligimiz kerak. Adabiyot darslarida milliy gʻoya unsurlari oʻquvchilar tomonidan aql yordamida oʻzlashtiribgina qolmasdan, balki ularning tabiatiga singdirilishi, xarakter xususiyatlariga aylanib ketishi zarur. Boshqacha aytganda, milliy gʻoya millat ahlining koʻngil mulkiga aylanib qolishi kerak.

XXI asr minglab qirralari bilan Alisher Navoiy dahosini maydonga chiqargan XV asrdan ilgari ketdi. Oʻz haq-huquqini tanigan insonni dunyoning bugungi misli koʻrilmagan darajasi ham qoniqtirmayapti. Lekin biz negadir Alisher Navoiy asarlariga ehtiyoj sezaveramiz, lugʻatlar yordamida boʻlsa ham necha asrlar oldin yaratilgan sheʼriyatining mohiyatini tushunishga harakat

qilaveramiz. Bu zaruriyat Navoiy shaxsi va ijodida abadiy insoniy orzularning tajassum topganligi bilan izohlansa kerak. Navoiy tafakkur rivojini shunday bir cho‘qqiga ko‘tarib qo‘ydiki, bu cho‘qqi vaqt bilan basma-bas tobora yuksalmoqda – bashariyat bu cho‘qqining poyiga yetish uchun hali necha-necha asrlar yo‘l bosishi lozim bo‘ladi. Shoir asarlari ulkan falsafiy, ijtimoiy, tasavvufiy mazmunidan tashqari, insoniy tuyg‘ularni ilohiy so‘z san’atkorligida ifoda etganligi bilan har qanday o‘quvchi qalbiga yaqindir.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi – xalqparvarligi, adolatparvarligi, do‘stlik, tinchlik, mehr-sadoqat, sof sevgi, vafo, ma’rifatlilik kabi go‘zal tuyg‘ularni yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi va o‘zi ham Nizomiy, Firdavsiy, Xomer, Shekspir, Dante, Gyote, Pushkinlar qatoridan o‘rin oldi. Shoir o‘zbek adabiyotida g‘azalchilikni yuksak bosqichga ko‘tardi, betakror go‘zal “Xamsa”si bilan xamsachiligimizga asos soldi, nasriy asarlari bilan o‘zbek nasrchiligini katta yo‘lga olib chiqdi. Adabiyot, ayniqsa, shoir va yozuvchilar, aruz ilmi, til va din, tarix haqidagi ilmiy asarlari orqali teran olim ekanligini namoyish qildi. Shoh Husayn Boyqaroning eng yaqin do‘sti va saroyning eng obro‘li kishisi – ulug‘ amiri sifatida xalq taqdiri, adabiyot, san’at, ma’rifat, obodonchilik va umuman mamlakatning taqdiri, taraqqiyoti to‘g‘risida jon kuydirishning ajoyib namunasini ko‘rsatdi. U o‘z davridayoq mehribon va talabchan ustoz sifatida buyuk hurmat-ehtiroimga sazovor bo‘lgan edi, keyin o‘zbek adabiyoti tarixida ham ijodkorlarning rahnamosi bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug‘ildi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan bo‘lib, onasi Amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan. Ko‘rinadiki, Alisher o‘ziga to‘q, o‘qimishli va ma’rifatli hamda obro‘li oilada dunyoga keldi (tog‘lari Mir Said Qobuliy, Muhammad Ali G‘aribiylar ham e’tiborli shoir, san’atkor bo‘lganlar).

Alisherning savodi juda erta chiqqan, u bolaligidayoq Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod olgan, yigitlik chogʻida esa ellik ming misradan koʻproq sheʼrni yod bilar edi. Alisher Navoiy oʻzigacha yashab ijod etgan fors, turkiy va arab shoirlari, olimlari asarlarini chuqur oʻrgangan. Jumladan, Firdavsiy, Nizomiy, Yassaviy, Lutfiy kabilarni sevib oʻqigan. Yigitlik davridayoq “Zullisonayn” (ikki tilli, yaʼni ham turkiy, ham forsiy tilda ijod etuvchi) nomini olgan Alisher Navoiyning oʻz ona tiliga muhabbati cheksiz edi va keyin butun ijodi davomida turkiy tilning qudrati va cheksiz imkoniyatga ega ekanligini yorqin namoyish qildi.

Alisher oʻn ikki yoshidayoq otasi vafot etadi, u ancha vaqt iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Mashhadda (1456), keyin Samarqandda musofirlikda oʻqiydi (1466-1469), u yerlarda koʻp ulugʻ allomalar bilan hamsuhbat boʻladi. Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach (1469), Alisher Navoiyni shoh chaqirtirib oladi, avval uni muhrdor etib tayinlaydi, keyinroq vazirlardangina emas, hatto amirdan ham yuqori turuvchi ulugʻ amir (amiri kabir) darajasiga koʻtaradi. Navoiy ulugʻ amir lavozimida xalq va davlat taqdiri uchun qaygʻuradi, ilm- fan, madaniyat rivojiga, shahar-qishloqlarni obodonlashtirishga, yurtda-osoysishtalikni saqlashda oʻz hissasini qoʻshdi. Navoiy “Vaqfiya” asarida “Ilgimdin kelgancha zulm tigʻin ushotib, mazlum jarohatiga intiqom malhamini qoʻydim. Va ilgimdin kelmaganini ul hazrat (Husayn Boyqaro demoqchi) arziga yetkardim”, deganida juda haq edi.

Alisher Navoiy oʻzining shaxsiy mablagʻi hisobiga shu darajada koʻp va samarali ish qildiki, bunaqasini ziyolilar orasidan topish qiyin. Masalan, “Ixlosiya”, “Shifoiya”, “Nizomiya” va “Husraviya” madrasalari shular jumlasidandir. Amir Burhoniddin Atoulloh Nishopuriy, Turbatiy, Amir Murtoz, Atoulloh Asiliy, Ibrohim Mashhadiy, Gʻiyosiddin Muhammad, Abulaziz Abhariy singari oʻz davrining atoqli olim-u fozillariga dars berganlar.

“Donishmand arboblarning xotirida, - deb yozadi tarixchi Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida,- “yashirin qolmasinki, yuqorida zikr qilingan binolarning



(madrasalarning) sharofati va barakoti butun dunyoga shu qadar mashhurki, bundan ziyodani xotirga keltirib bo‘lmaydi...”

Har yili muhtojlarga ikki ming yaqin po‘stin, bosma chakmon, ko‘ylak, ishton, taqiya va kafsh ulashilgan”. Shuningdek, “Jamoatxona”, “Ziyoratgoh”, “Havzi mohiyon”, “Langari sarmazori shayx Muh‘yi”, “Xumchai”, “Xoja Yusuf Hamadoniy sarmozori” va boshqa xonaqohlar Navoiy tomonidan qurdilgan edi.

Umumlashtirganda Navoiy tomonidan 4 ta madrasa, 25 dan ortiq masjid, 11 ta xonaqoh, 50 tacha rabot, 18 ta hovuz, 16 ta ko‘prik, 1 ta to‘g‘on, 9 ta hammom qurilgan. Bu faktlar tarixchi olim Hamid Ziyoyevning “Tarix – o‘tmish va kelajak ko‘zgusi” kitobida batafsil keltirilgan.

Alisher Navoiy ijodni hamma narsadan baland tutdi. Uning ilk she‘riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lasalar, 1472-1476 yillarda “Badoye’ ul-bidoya” devonini o‘zi tuzdi. 1476-1483 yillarda navbatdagi devoni “Navodir un-nihoya”ni ham kitobat qildi. Lekin shoirning eng katta yirik dosotonlar yozish bo‘lgan. Xamsanavislik an‘anasiga ko‘ra Nizomiy Ganjaviydan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan “Xamsa” yaratishni o‘ylar edi. Shoir bu maqsadini ham tezda amalga oshirdi. 1483-1485 yillar orasida 5 mustaqil dostonidan iborat “Xamsa” asarini yaratdi. Olim-u fuzalo – barcha bu hodisani zo‘r olqish bilan kutib oldilar. Jomiy yozadi: “Bu qalamga falakdan ofarinlar yog‘ilsin. Bu qalam forsiy til egalariga, forscha nazm durlarini terguvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganida, boshqalarga so‘z aytishga majoli qolmasdi”.

Navoiy ijodining yana bir qanoti uning “Xazoyin ul maoniy” she‘riy asari bo‘lib (1492-1498), u xalq orasida “Chor devon” deb ham shuhrat topgan. Navoiyning barcha turkiy she‘rlarini o‘z ichiga olgan bu to‘rt devonga 3132 she‘r kiritilgan. Bu kulliyot yaratilgandan keyin shoir yana uch yil yashadi va tabiiyki, yana bir qancha she‘rlar bitgan bo‘lishi kerak.

Navoiy fors tilini juda mukammal bilgan va hatto “Muhokamat ul-lug‘atayin”(1499) asarida forsiy va turkiy tillarni bir-biriga ilmiy qiyoslab ularning

o‘zlariga xos fazilatlari, imkoniyatlari va qudratini yorqin ko‘rsatib beradi. Vatanparvar Navoiy turkiy tilning kuchi, nazokati va katta imkoniyatini namoyish qilish, uning rivojiga katta yo‘l ochish maqsadiga asarlarini, asosan, turkiy tilda yozdi. Ayni choqda fors tilida ham kuchli asarlar yoza olishi, Sa‘diy, Husrav Dehlaviy, Hofiz va Jomiy kabi forsiygo‘y ulug‘ allomalar bilan ham bellasha olishini amalda isbotlash maqsadida Foni taxallusi bilan ham she‘rlar yozadi va “Devoni Foni” devonini tuzadi (1496).

Shoir Jomiyning “Nafohat ul-uns” asarini o‘zbek tiliga erkin tarjima qiladi, unga asoslanib falsafiy yo‘nalishdagi “Nasoyim-ul muhabbat” tazkirasini yaratadi. Ustoz Jomiyning shuhratini ulug‘lovchi “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarini ham yozgan (1492). Navoiy o‘z ustoz va do‘stlarini ulug‘lovchi “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi nasriy asarlarni ijod etdi. Uning o‘zbek nasrchiligi rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan “Mahbub-ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Munshaot” asarlarini ham alohida ta’kidlash zarur.

Navoiy she‘riyati mazmunining chuqurligi, qamrovining kengligi, olg‘a surgan fikr-g‘oya, tilak-armonlarining yuksakligi va o‘tkirligi janrlarining xilma-xilligi, shaklining mukammalligi va go‘zalligi, obrazlarining boyligi va hayotiyliigi bilan qimmatlidir. “Xazoyin ul- maoniy”da o‘n oltita lirik janrga doir she‘rlar bo‘lib, ko‘pchiligini g‘azal tashkil etadi: 2600 g‘azal, 135 ruboiy (“Nazmul-javohir”da 266 ta ruboiy, shuningdek nasriy asarlarida 100 dan ortiq ruboiylar bor), 210 qit‘a bor. Ba‘zi janrlarda, ya‘ni tarkibband, soqiynoma kabi janrlarda bittadan she‘r yozgan. O‘zbek she‘riyatida hech kim g‘azal janrini Navoiydek yuksak darajaga ko‘tarmagan. Shoir g‘azallarida ko‘proq ishqiy tuyg‘ularni ifodalasa, ruboiylarida falasafiy qarashlarini, qit‘ada ijtimoiy-siyosiy fikrlarini aks ettiradi.

*Ey ko‘ngil, dushmanlar oncha makr ila fan qildilar,*

*Kim, vafolig‘ do‘stni jonimga dushman qildilar*

deb yozadi shoir bir gʻazalida. Unda gʻoyatda samimiylik bilan, ayni paytda, nihoyasiz dard-u hasrat bilan ifoda etilgan holat barchamizga begona emas. Qaysi birimiz umrimizning muayyan lahzalarida – koinot gultoji sanalmish Odam Ato farzandlarining ezgulikdan koʻra yovuzlikka ustomonligidan, igʻvo, hasad, manfaatparastlik, gʻiybat, yolgʻonni boʻrttirib, “vafoligʻ doʻstlarni dushmanimizga aylantirganliklaridan aziyat chekmaganmiz?! Shunday fursatlarda qay birimiz bolalarcha sharhi holga, bolalarcha tasalli va himoyaga muhtojlik sezmadik ekan?!

*Aylamang bekasligimni taʼn bir kun, bor edi*

*Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey doʻstlar*

degan satrlarni oʻqimiz yana bir gʻazalida.

Navoiy ijodiga yaqinlashishga hayiqibroq turgan har qanday oʻquvchi favqulodda samimiy izhori dil, hasrat, iltijodan larzaga tushmasligi mumkin emas. Ulugʻ shoir sheʼriyatiga ana shunday oddiy insoniy tuygʻular halqasi bilan bogʻlangach, uning bepoyon fikrlar olamiga ramzlar dunyosiga qadam tashlash oson kechadi. Shoir uchun insoniylik, odamiylik, poklik uning kimligini belgilovchi bosh mezondir:

*Odami ersang, demagil odami,*

*Onikim yoʻq xalq gʻamidin gʻami.*

Chunki Navoiy uchun inson butun tirik mavjudotning gultojidir, Allohning sevgan bandasidir. Hamma noz-u neʼmat insonning saodatli umr kechirishi uchun yaratilgan.

*Ochilgʻon bu gulshanda inson guli,*

*Ne inson guli, bogʻi rizvon guli.*

Shoir shu “rizvon guli”ning xor boʻlishi, ezilishi, xoʻrlanishini sira istamaydi, jafokash odamlar va zolim zamonaning insonga, xalqqa qilgan adolatsizligiga chidamay faryod koʻtaradi.

*Yuz jaf o qilsa menga, bir qatla faryod aylabon,*

*Elga qilsa bir jaf o, yuz qatla faryod aylaram.*

Navoiyning ishq zimmasiga yuklagan ma'nosi juda chuqur, katta. U insonning insonga bo'lgan ishqinigina kuylab qolmasdan (buni Navoiy majoziy ishq deydi), ayni choqda haqqa – Allohga bo'lgan ishqni ham mehr-e'tiqod bilan ifodalaydi (buni haqiqiy ishq deydi). Majoziy ishq haqiqiy ishq sari tashlangan ilk qadamdir. Ruhii pok, komil insongina Allohga yetishishi mumkin. Bir g'azalida "Majozdin menga maqsud erur haqiqiy ishq" deydi.

Navoiy doim ijod zavqi bilan yonar, ulkan niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun tinmay ishlar, ammo vaqti yetmas edi. U badiii ijod deb amirlikdan voz kechadi. Biroq baribir shohning eng ishongan kishisi, uning nomidan mamlakatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan oily mansabdor shaxs bo'lib qoldi. U oxirgi nafasigacha shohga hurmat bilan qaradi. Husayn Bayqaro safardan qaytayotganda Navoiy unga peshvoz chiqish uchun o'n bir tosh yo'l bosadi. Shoh yaqinlashganda Navoiyning boshi aylanib behalovat bo'ladi, shohning qo'lini o'pish uchun otdan tushadi, lekin yurishga madori yetmaydi, behush yiqiladi, miyasiga qon quyiladi, harakat va so'zlashdan qolgan ulug' shoir uch kun yotib 1501- yil 3- yanvarda hayotdan ko'z yumadi.

Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida yosh avlodni mutafakkir ijodidan bahramand etishga xizmat qiluvchi maxsus dars soatlari, mashg'ulotlar o'tilsihi yo'lga qo'yildi. Ko'plab mahalla, madaniy-ma'rifiy maskanlar, ko'cha va xiyobonlarga Alisher Navoiy nomi berildi. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun munosabati bilan keng miqyosda navoiyxonlik kechalari, mutafakkir hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi.

Mumtoz adabiyotimiz bobokaloni Alisher Navoiyning sermazmun hayoti, yuksak insoniy fazilatlari, iqtidor va kamoloti zamondoshlariga namuna bo'lganidek, bugun ham barchamiz uchun ibrat maktabidir. Alisher Navoiy juda ko'p shogirdlarga rahnamolik qilgani ma'lum. O'nlab iste'dodli shoir va tarixchi,

rassom va hattot u zotning himmati va tarbiyati soyasida voyaga yetishgan. Ulug‘ shoir iste’dodlarga g‘amxo‘rlikning o‘ziga xos maktabini yaratgan. Iste’dodni tanish va e’tirof etish yo‘llari, tabiiy qobiliyat, bilim va mehnat, tahsil va adabiy ta’sir, rag‘batlantirish va talabchanlik, axloqiy sifatlar va uning iste’dodga ta’siri, g‘oyaviy yetuklik va mahoratni oshirish masalalari doim Alisher Navoiyning diqqat markazida bo‘lardi.

Alloma bobomizning bu borada qarashlari “Majolis un- nafaos”, “Xamsat ul mutahayyirin”, “Mahbub ul -qulub”, “Nasoyim ul- muhabbat” kabi qator asarlarida ifodasini topgan.

Jumladan, “Majolis un -nafaos”ning uchinchi va to‘rtinchi majlislarida yosh olim va fozillar haqida, ijod ahlining tarbiyasi xususida so‘z boradi.

Yoshlarning shaxsiy xislatlari, sa‘jijasi, axloq-odobi, tahsil ko‘rgan-ko‘rmaganligi ustozni ko‘p qiziqtirgan. Kamtarlik, muloyimlik, xushtavoze bo‘lish, mehnatsevarlik, burrolik, hozirjavoblikni ijodkorning fazilatlari deb bilgan, yalqovlik, parishonlik, jununsifat yurish, kekkayish, havoyilik, sharobxo‘rlikka berilish singari yomon odatlarni qattiq qoralagan. Bu kabi salbiy odatlar bir qancha yosh iste’dodlarni nobud etganini qator misollar bilan ko‘rsatib beradi: “Mavlono Sayfiy... hushyorlig‘ va base odamiyvasn va hayo odoblig‘ yigitdur. Ammo sarxushlikda o‘zga mohiyat bo‘lur, balki rasvonamo bo‘lur edi. Bu uchurda tavgag‘a tavfiq bo‘ldi. Umid ulkim, istiqomatg‘a ham muvofiq bo‘lg‘ay”.

Xullas, hazrat Alisher Navoiyning madaniyatimiz taraqqiyoti uchun qilgan ishlari, yosh iste’dodlar tarbiyasiga g‘amxo‘rligi hozir ham yuksak ahamiyatli va ibratlidir.

### **MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1.Yo‘ldoshev I. Navoiyga armug‘on. – Toshkent.2003

2. Komilov N. Navoiyga armug‘on. 4-kitob. – Toshkent. 2004

3. Jamolxonov H. Navoiyning fonostilistikaga oid fikrlari// O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari 3. – Toshkent.2008

4. Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. – Termiz.2001

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
2. Alisher Navoiyning yoshlik yillariga oid qanday ma’lumotlar yodingizda qoldi?
3. Shoir kimlarni o‘ziga ustoz deb bildi?
4. Mir Alisher Navoiy kim bilan maktabdosh do‘st bo‘lgan?
5. Navoiyning davlat arbobi sifatida olib borgan ishlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Alisher Navoiyning ilk devoni qanday nomlangan? 7.1480-1487 yillar oralig‘ida tuzilgan ikkinchi devoni qanday nomlangan?
8. Lirik asarlari jamlangan eng katta devoni haqida nimalarni bilasiz?
9. Shoir fors-tojik tilidagi asarlariga qanday taxallus qo‘llagan?
10. Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari haqida nimalarni bilasiz?
11. "Xamsa"ning yaratilish tarixi haqida qanday ma’lumotga egasiz?
12. Alisher Navoiyning mutasavvuf shoirlar haqidagi asari qanday nomlangan?
13. Shoirning hayoti so‘ngida yaratgan asarining mazmuni nimaga bag‘ishlangan?
14. Farididdin Attorning asaridan **ta’sirlanib** Navoiy qanday asar yaratgan?

15. Navoiyning epik asarlari haqida nimalar bilasiz?
16. "Alisher Navoiy – o‘zbek tilining asoschisi" mavzusida insho yozing.
17. "Navoiy nomi barhayot" mavzusida buklet tayyorlang.

**Quyidagi tayanch so‘z va tushunchalarni izohlang:**

teran olim, amirzoda, bolalik yillari, yigitlik chog‘i, xalq va davlat taqdiri, osoyishtalik saqlash, ijod, ijod lazzati, she‘riyat mulki, iqtisodiy qiyinchilik, ijod mashaqqati, ilmiy meros, badiiy meros.

**QUYIDAGI TESTLARDAN TO‘G‘RI JAVOBNI ANIQLANG**

- 1. Alisher Navoiyning eng katta lirik devoni nomi berilgan qatorni toping?**
  - a) "Devon"
  - b) "Lisonut-tayr"
  - c) "Hazoyin ul-maoniy"
  - d) "Badoye‘ ul-bidoya"
- 2. Alisherning ikki misra she‘riga o‘zining o‘n ikki ming misra she‘rini alishmoqchi bo‘lgan shoir kim edi?**
  - a) Abdurahmon Jomiy
  - b) Mavlono Lutfiy
  - c) Husayn Boyqaro
  - d) Bobur
- 3. Erursen shoh- agar ogohsen,  
Agar ogohsen- shohsen sen. (Navoiy)**

**Ushbu baytda qo‘llangan badiiy san‘at qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) tazod

- b) tardi aks
- c) tajohuli orifona
- d) tashxis

**4."O'tar dunyo maslahati uchun donishmand, qari va podsho otasini o'lturdi. "Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridan olingan ushbu parchada kim ta'riflangan?**

- a) Husayn Boyqaro
- b) Badiuzzamon
- c) Xalil Sulton
- d) Abdulatif

**5. Navoiyning "Hazoyin ul-maoniy" asari qaysi tildagi necha devondan tarkib topgan?**

- a) to'rt turkiy va bir forsiy devondan
- b) uch turkiy va bir forsiy devondan
- c) bir turkiy va bir forsiy devondan
- d) to'rt turkiy devondan

**6. Alisher Navoiyning "vas'e (keng) maydon" deb ta'riflagan she'riy (lirik) janr aslida qanday nomlanadi?**

- a) g'azal
- b) masnaviy
- c) muxammas
- d) ruboiy



**7. Abulqosim Bobur zamonida G'iyosiddin Kichkina qaysi shahar hokimi edi?**

- a) Balx
- b) Hirot
- c) Qandahor
- d) Sabzavor

**8. "Donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni Majid yodida erdi. Zij bitdi va rasad bog'ladi..."**

("Majolis un-nafois")

**Mazkur parchada kim tilga olingan?**

- a) Amir Temur
- b) Abulqosim Bobur
- c) Ahmad Hojibek
- d) Mirzo Ulug'bek

**9. Alisher Navoiy haqida bitilgan "Makorim ul-ahloq" ("Go'zal xulqlar") adabiy-tarixiy asarining muallifi kim?**

- a) Ogahiy
- b) Mirxond
- c) Xondamir
- d) Abdurazzoq Samarqandiy

**10. Umidim bukim, aylabon fathi bob,**

**Qo'lum berg'ay ul panjag'a tog'i tob.**

**O‘tuz yilki oni Nizomiy demish,**

**Qoshimda erur ikki-uch yillik ish.**

**Sayyid Hasan Ardasheriga maktubdan olingan ushbu misralarda Navoiy qaysi asarining rejasi haqida yozgan?**


a) "Farhod va Shirin"

b) "Badoye' ul-bidoya"



c) "Xamsa"

d) "Hayrat ul-abror"



## **NAVOIYNING EPIK ASARLARI.**

### **XAMSACHILIK TARIXI**

**Darsda quyidagi muammolar  
qo‘yiladi va hal etiladi:**

1. Epik asar yaratish  
yo‘lidagi tamoyillar va ularni  
Alisher Navoiy ijodidagi o‘ziga  
xosliklarni ko‘rsatish. Bu hodisani  
shoir ijodida muvaffaqiyatli  
amalga oshirilganligi sabablarini

izohlash.

2. Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish an’analari. Xamsanavislar to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur tug‘dirish va shoirning ulardan olgan adabiy mahoratini izohlash.
3. “Xamsa” yozishda Navoiy qanday ijodiy tamoyillarga tayanganligini misollar vositasida tushuntirish.

### **Mavzuda qo‘llaniladigan tayanch so‘z va iboralar**

Madaniy-ma’rifiy maskanlar. Ko‘cha va xiyobonlar. Navoiyxonlik kechalari. Mutafakkir hayoti. Alloma. Sajiya. Hozirjavoblik. Yomon odat. Ilm olishga ishtiyoq. Hofiza. Zahmat va chidam.

### **DARSNING REJASI:**

1. Xamsachilik an’analari.
2. Xamsanavislar.
3. XV asrda turkiy tilda “Xamsa” yozish jasorati.
4. “Xamsa” yozishda Navoiy tayangan tamoyillar.



Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘rinli-o‘rinsiz ravishda turli-tuman usullarni qalashtirib tashlash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bundan tashqari majmuadagi asar jozibasi, badiiyatini xiralashtiradi, adabiyot o‘qitishdan kutilgan pedagogik samarani yo‘qqa chiqarishi mumkin. Darslarda, asosan, so‘z sehri, uning qudratiga tayanish, ko‘proq badiiy matn bilan ishlash, talabanning o‘z kamoloti uchun o‘zini mehnat qildirish, izlantirish, ularning har biriga o‘z darajasiga mustaqil xulosaga kelish imkoniyatini berish kerak.

Talabalar “Xamsa” olamiga kiritib olingach, uning yaratilish an’analari haqida ma’lumot beriladi.

Adabiyotlarning mashhur siymolari buyuk o‘tmishdoshlarining ijod bobidagi muvaffaqiyatlarini chuqur o‘rgangan, ijodiy o‘zlashtirgan holda, ularga tanqidiy yondoshib, yangilik yo‘lidan borganlar. Bunday faktlar adabiyotimiz tarixida oz

emas. Bunda Navoiyning o‘tmish adabiy an‘analariga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib, uning izdoshlarini esa doimo olg‘a qarab harakat qilganliklarini eslash kifoyadir.

Navoiy ustozlari – Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy singari nuroniy siymolarning asarlarini ipidan ignasigacha o‘rganadi va ularning ijodini maktab deb biladi.

Ustoz shoirlarning hurmatini tavoze bilan o‘rinlatgan Alisher Navoiy ijodida, uning ko‘p asarlarida, “Xamsa”sida salaflar maqtoviga keng o‘rin bergan. Tafakkur borasida u Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy bilan ijodiy raqobatga kirishuvini yaxshi biladi:

*Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur,*

*Ki gar kelsa Rustam, javobin berur.*

*Raqam qildi farxunda “Shohnoma”ye,*

*Ki sindi javobida har nomaye.*

Navoiy tafakkur jangohiga jasorat bilan kirar ekan, bunda eng qiyin maydon – xamsachilik maydonida ot suradi. Sharq she‘riyatida xamsachilik an‘anasiga Ganjaviy asos soldi. Uning vujudga kelishi adabiyotlar tarixida yangi davrni boshlab berdi. Xamsachilik davrning dolzarb muammolarini kichik lirik janrda emas, balki katta epik dostonlarda tasvirlash imkonini berdi. Bu esa mukammal obrazlar, umumlashma qahramonlar xarakteri va ma‘naviy dunyosini tasvirlash uchun katta yo‘l ochdi. Natijada inson haqidagi badiiy mushohadalar g‘azal, ruboiy kabi janrlar qobig‘idan chiqib keng qanot yoydi.

Nizomiydan so‘ng xamsachilikda birinchi ajoyib javobni aytgan shoir Dehlaviy bo‘ldi. Dehlaviy “Xamsa”sidan so‘ng bu adabiy hodisa butun Sharq adabiyotida ko‘p asrlik an‘anaga aylanib qoldi. Mavlono Ali Ohiy, Fosih Rumi, Xoja Lohuriy, Shayxun Suhayliy, Abdulla Xotifiy, Kotibi Turshiziy, Mavlono Orifiy, Muhammad Ahli Sheroziy, Badriddin Hiloliy singari ko‘plab shoirlar

Nizomiy va Dehlaviy yoʻlida “Xamsa” yaratish uchun urindilar. Biroq ular bu yoʻlda muvaffaqiyat qozona olmadilar.

Alisher Navoiy “Xamsa” yaratishdek qiyin ishga qoʻl urar ekan, turkigoʻy ommaning ehtiyojini koʻzda tutadi. Sharqshunos olim G.E.Bertels aytganidek Navoiy xamsachilikning “Nizomiy uygʻunlashtirgan qonuniyatini sinchkovlik bilan, gʻoyat teran oʻrgandi”. Yuqoridagi xamsanavislarning muvaffaqiyatsizligiga sabab ham xamsachilikning oʻziga xos qonuniyatlarini, Nizomiy va Dehlaviy asarlarini yaxshi oʻzlashtirmasliklarida boʻlsa kerak.

“Xamsa”ni yaratishda Navoiy oʻz salafлари Nizomiy va Dehlaviylarning shakl bobidagi anʻanasiga sodiq qoldi, ammo mazmunda batamom oʻziga xos yoʻl tutdi:

*Bir deganni ikki demak xush emas,*

*Soʻz chu takror topdi dilkash emas.*

“Xamsa”ga kiritilgan barcha dostonlarda izchillik bilan ana shu ijodiy tamoyilga rioya qilingan. Deyarli har bir dostonning yo avvalida, yo oxirida “Xamsa”navislarga munosabat bildiriladi, ularning yutuqlari, baʼzan nuqsonlari ham tilga olinadi.

Navoiy “Hayrat ul -abror”da Jomiy bilan “Xamsa” xususida qurgan suhbatini tasvirlab, Dehlaviy haqida gʻoyat iliq fikrlarni bayon etadi:

*Bazmda bir kun yuzida nur edi,*

*Har soridin Nodira mazkur edi.*

*Tushti chu raxrav bila payravga soʻz,*

*Yetti Nizomiy bila Xusravga soʻz...*

Navoiyda ham “Gavhar sochuvchi”, “Nur taratuvchi” bu ikki shoirga katta havas uygʻonadi, u ham “Xamsa” yozish ishtiyoqi bilan yonadi:

*Menki talab yoʻlgʻa qoʻydum qadam,*

*Bordur unidimki, chu tutsam qalam.*

*Yo 'llasa bu yo 'lda Nizomiy qo 'lim,*

*Qo 'llasa Xusrav bila Jomiy qo 'lim.*

Navoiyning fikricha Nizomiydan so'ng she'riyat maydonidagi yana bir fil bu – Xusrav Dehlaviy:

*Bu kun ul pil, bu hindu erur bil,*

*Kichikroq bo 'lsa ham lekin erur pil.*

U Dehlaviy ijodidan g'oyaviy va badiiy jihatdan oziqlanar ekan, undan "quvvat" kutar ekan, ayni chog'da ijodiy o'ziga xoslikka og'ishmay amal qiladi.

Shu boisdan ham, Navoiy "Xamsa"sida Dehlaviy ijodiga xolisona baho berib boriladi:

*Dema Xusravki, hindui jodu,*

*Aylabon elni nazmig'a hindu.*

*Dema hindi, qaro balo de oni,*

*Ne balo, ofati xudo de oni.*

*Har qachon xoma ilkiga oliybon*

*Nazmidin olam ichra o't solibon...*

Navoiy va Dehlaviy "Xamsa"larini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, shakl masalasida Navoiy Dehlaviydan o'rganadi. Masalan, Shirinning arman malikasi ekanligi (Nizomiyda Berda malikasi, ya'ni Ozarbayjonlik), "Sab'ai Sayyor"da asosiy qahramonlardan birini nomi Dilorom sifatida tanlannishi singari o'rinlarda bunga ishonch hosil qilishi mumkin.

Nizomiy ham, Dehlaviy ham Xusrav obrazini boshdan-oyoq ijobiy qahramon sifatida tasvirleydi. Alisher Navoiy uni aksincha ifodalab, "Farhod va

Shirin” dostonida, o‘z salafларining talqinida yetishmayotgan haqiqiy dard – ishq dardini Farhod obrazida mujassam etadi.

Navoiy ustozlari ruhini aslo kamsitmagan holda o‘zini ularning oldida shogird deb his qiladi:

*Menki shogird bebzoatman,*

*Ul ikovvga mute toatman*

Navoiy “Xamsa”sining so‘nggi dostoni “Saddi Iskandariy”da tasvir etilgan uchrashuvi, ayniqsa, maroqlidir. Navoiy xayolan bog‘da kezadi. Shunda uni shoir Dehlaviy bir guruh ijodkorlar huzuriga boshlab boradi. Bular Sa‘diy, Firdavsiy, Unsuriy, Sanoiy, Xoqoniy, Anvariylar edilar. Navoiyni Jomiy va Xusrav Dehlaviy boshlashib Nizomiy oldiga olib boradilar:

*Tutib Jomiyu Xusrav ikki qo‘lum,*

*Nizomiy sari boshladilar yo‘lim...*

Navoiy shoirlarning bu xayoliy musobaqasi vositasida o‘z “Xamsa”siga ajoyib faxriya yo‘li bilan baho beradi, xamsachilik ustodlari Navoiy dostonlarining go‘zal va san‘atkorona yozilganligini taqdirlashi o‘rinli ekanligini xayolan faraz etadi. Shu tariqa shoirlarning 54 ming misradan iborat “Xamsa” asari dunyoga kelgan.



**MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. — T. Universitet. 2001
2. Fitrat. Navoyining forsiy shoirliği va fors tilidagi asarlari to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T. 2000
3. Hojiahmedov A. Xamsa. To'plam. – T. Yangi asr avlodi.2010

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Xamsachilik an'analari Navoiy ijodida qay darajada namoyon bo'ldi?
2. Navoiyning xamsachilikka munosabati qanday edi?
3. Alisher Navoiyning ustozlariga bo'lgan munosabati haqida nimalar deya olasiz?
4. Navoiyning Dehlaviyga bo'lgan munosabatini ifodalovchi satrlarni izohlang.
5. "Sharq adabiyotida xamsachilik an'analari" mavzusida ijodiy insho yozing.
6. "Xamsa" asarining hajmi qancha?
7. Navoiygacha bo'lgan xamsanavislar to'g'risida ma'lumot bering.
8. "Xamsa" – mumtoz adabiyot gultoji" mavzusida insho yozing.
9. Mashhur bo'lmagan xamsanavislardan kimlarni bilasiz? Ularning muvaffaqiyatsizligiga sabab nimada deb o'ylaysiz?
10. Navoiy "Xamsa" sining barhayotligi boisi nimada?

#### **Quyidagi tayanch so'z va tushunchalarni izohlang:**

adabiy meros, biografik asar, xamsanavislar faoliyati, xamsa yozish an'anasi, Navoiy ijodiy tamoyili, ustozlarga ta'zim.

#### **QUYIDAGI TESTLARDAN TO'G'RI JAVOBNI ANIQLANG**

**1. Alisher Navoiy haqida bitilgan "Makorim ul-ahloq"("Go'zal xulqlar") adabiy-tarixiy asarining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) Ogahiy
- b) Mirxond
- c) Xondamir
- d) Abdurazzoq Samarqandiy



**2. Alisher Navoiyning mutasavvuf shoirlar haqidagi tazkirasini ko'rsating.**

- a) "Vaqfiya"
- b) "Nasoyim ul-muhabbat"
- c) "Mahbub ul-qulub"
- d) "Majolis un-nafois"

**3. Quyida zikr etilgan sanalardan "Lison-ut tayr" dostoni yozilgan yilni toping.**

- a) 901/ 1495
- b) 904/1499
- c) 888/1483
- d) 903/1498

**4. Quyidagi janrlarning qaysi birida Navoiy va Boburlarning mazmun jihatdan o'xshash va hamohang his-tuyg'ulari, g'oyalari ifodalangan?**

- a) doston
- b) qasida
- c) g'azal
- d) ruboiy

**5. Alisher Navoiyning dastlabki she'riy devonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) "Garoyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob"
- b) "Badoye' ul-vasat", "Favoyid ul-kibar"
- c) "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya"

d) "Nazm ul-javohir", "Devoni-Foniy"

**6. Layli va Majnun o'rtalarida vositachi bo'lgan obrazning nomini toping.**

a) Navfal

b) Zayd

c) Somi'

d) Ibn Salom

**7. Quyidagi atamalardan qaysi biri "Hayrat ul-abror" dostonining tuzilishi uchun eng xarakterli?**

a) bob

b) qism

c) ravza

d) maqolat

**8. Alisher Navoiy "Xamsa" sining qaysi dostonida ruhiy kechinma kuchli ifoda etilgan?**

a) "Hayrat ul -abror"

b) "Farhod va Shirin"

c) "Saddi Iskandariy"

d) "Layli va Majnun"

**9. "Xamsa" dostonlaridagi qaysi qahramonni to'rt yuz tabib ikki yil turli usul bilan ham davolab, sog'aytirib yubora olmaydi?**

a) Farhod

b) Majnun

c) Bahrom

d) Layli

**10. Alisher Navoiy qaysi asarida "Foniy" taxallusini qoʻllagan?**

a) "Farhod va Shirin"

b) "Siroj ul-muslimin"

c) "Lison ut-tayr"

d) "Mahbub ul-qulub



**“HAYRAT UL -ABROR”  
DOSTONI**

**Darsda quyidagi muammolar qoʻyiladi va hal etiladi:**

1.Xamsachilik anʼanasiga koʻra, uning birinchi

dostoniga qoʻyiladigan talablar va uni Alisher Navoiy ijodidagi talqini.

1. “Hayrat ul- abror” – falsafiy, axloqiy-taʼlimiy asar ekanligini ochib berish va bu mavzuda Alisher Navoiyning mahorati masalalari.
2. Dostondagi maqolatlarning oʻziga xos tomonlari va unda berilgan hikoyatlarning falsafiy talqini masalalari.

**Mavzuda qoʻllaniladigan tayanch soʻz va iboralar**

Maqolat. Iymon haqida. Olam va odam. Hikoya va masal. Mashhur din va davlat arboblari. Karam va saxovat. Mukammal taʼrif. Tahlil. Badiiyat. Havola qilmoq.

## DARSNING REJASI:

1. Dostonning yaratilishi.
2. Dostonning mavzusi.
3. “Hayrat ul -abror”ni varaqlaganda.
4. Dostonda yoritilgan masalalar.
5. Dostonning tarbiyaviy ahamiyati.

Akademik litsey rejasida “Hayrat ul- abror” dostonini o‘rganish uchun ikki soat vaqt ajratilgan. Darslik majmuada “Hayrat ul abror” dostonidan olingan “o‘ninchi maqolat” berilgan bo‘lib, unda to‘g‘riqlik, rostgo‘ylik vasf etiladi va yolg‘onchilikning kasofati ko‘rsatib beriladi. O‘qituvchi mazkur maqolatni o‘rganish uchun darsni uch qismga bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun ajratilgan birinchi va ikkinchi qismda matn o‘qiladi, tushunilishi qiyin va lug‘ati berilgan so‘zlar ustida ishlanadi. Talabalar anglamay qolgan boshqa so‘zlarning ma‘nosi ularga tushuntiriladi. Agar darsning o‘zida bu so‘zning ma‘nosini anglatish mumkin bo‘lmasa, uyda lug‘atlardan ko‘rib kelish lozimligi tayinlanadi. O‘qituvchi bundan aslo xijolat bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun ham darsga “Navoiy asarlari lug‘ati” olib kirilsa va o‘quvchilar oldida shu xildagi tushunarsiz so‘zlarga izoh topilsa, yana ham yaxshi bo‘ladi.

O‘quvchilar lug‘at bilan ishlashni o‘rganishadi. Ayrim o‘qituvchilar, dostonda tushunarsiz so‘zlar ko‘p, shuning uchun asarning mazmunini aytib bergan ma‘qul deb hisoblaydilar. O‘quvchining badiiy matn jozibasi o‘rniga uning soyasi bilan yuzlashtirishga qaratilgan bu yondashuv adabiy ta’limdan kutilgan ma’naviy-estetik samarani yo‘qqa chiqaradi. Darhaqiqat, hazrat Navoiy asarlarining tili o‘quvchilarga og‘irdek tuyuladi, lekin, bu asarlar shunday sehrli, shunday jozibaliki, ular o‘quvchi tuyg‘ularini egallab, ma’nolarini chaqish sari boshlaydi. Buning uchun esa asarlarni ifodali, ta’sirli va qayta-qayta o‘qish zarur.

Parcha ifodali o‘qilgandan so‘ng tushunilishi qiyin bo‘lgan har bir so‘zga izoh beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni doston ohangini, uning o‘gitlari zamiridagi

chuqur ma'nolarni anglaydigan holatga solishi lozim. Agar o'qituvchi darsning boshidayoq shunga kirishsa, pedagogik niyatga osonroq erishadi.

Navoiy davr an'anasiga rioya qilgan holda boshqa asarlari singari dostonlariga ham arabcha nom berdi. Bu o'zbek tilida "Yaxshi kishilarning hayratlanishi" degan ma'noni anglatadi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, 64 bob, 29 maqolatdan tashkil topgan. U aruzning sari' bahrida yozilgan. Asar an'anaviy muqaddima - "hamd va na't" bilan boshlanadi. Nomidan kelib chiqqan holda "hamd"da Allohning maqtovi, sifatlari, "na't"da payg'ambarimiz madhi beriladi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o'z aksini topgan. Uningcha, dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham Allohdir:

*Avval o'zing, oxir-u mobayn o'zing,*

*Barchag'a xoliq, borig'a ayn o'zing.*

Yigirma ikkinchi bobdan maqolalar boshlanadi. Birinchi maqolat iymon haqida. Ikkinchi maqolat islom haqida. Uchinchi maqolat shohlar haqida. Shu tariqa har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan. Muallif dastlab mavzu bilan tanishtiradi. Unga munosabat bildiradi, ya'ni tasdiq yo inkor etadi va unga munosib biror ibratli hikoya keltiradi. Shoir uchinchi maqolatda bevosita shohga murojaat qiladi: "Ey, dabdabasi olamni tutgan sulton, senga haq (Xudo) hukmfarmonlik berdi, qo'lingni baland qilib, ne-ne buyuklarni qoshingda past etdi. Xizmatingga elni majburlab, oldingda qomatlarini egdi. Lekin shuni bilki, sen ham ularning ko'pidan ojizroq bir bandasan. Ular tufrog'-u sen nur emassan, shakl-u shamoyiling ham, a'zo-yu tanalaring ham teng. Tangri seni saltanat osmoniga chiqarib qo'ygan ekan, o'z qudratini namoyish qilyapti. U senga vazifa topshirgan. Birinchi vazifa - bergan ne'matiga shukur qilmoq, ikkinchisi - xalqni xurram tutmoq, haqini haqlab bermoq, asramoq. U senga omonat berilgan. Agar sen elning bir siniq ignasini tortib olsang, oxiratda olmos xanjar bo'lib bag'ringga qadaladi.

Ingichka bir ip kabi zarar yetkazgan bo'lsang, uni seni halok qiluvchi ilon deb bilaver... Sen-chi, ishratga, maishatga botgansan, zulmga zo'r bermoqdasan... Beayb parvardigor, lekin ayb qildingmi, tavba ham qil. Adolatsizlik qildingmi, adolat ham qil".

Navoiyning bu fikrlari zamonasining aysh-ishratga berilgan, o'zaro taxt talashib, qanchadan qancha qirg'in-barotlarga sabab bo'lgan temuriy shahzodalarga achchiq tanbehi edi. Dostondagi bir qator maqolalar odob-axloq haqida. Chunonchi, beshinchi maqolat karam haqida. Karamning ma'nosi keng. U mehr-marhamat ko'rsatish, saxiylik, ehson qilish kabilarni anglatadi. Saxiylik insondagi xislatlarning eng ulug'i. Baxillik eng tubanidir. Biroq, har narsaning ham me'yori bor. Ortiqcha saxiylik isrofdir. Isrof esa baxillik bilan teng. Qolaversa, har qanday saxiylikda ham ma'lum tartib bor. Chunonchi, birinchidan, faqat dovruq qozonmoq uchungina mol-dunyo sovrarmoq saxiylik emas, hatto aqldan emas. Bunday ishni yo mast, yo telba qiladi. Mast va telbani odam deb bo'ladimi? Ikkinchidan, shunday odamlar borki: "Yoyar anga supraki, ul och emas, Berur anga to'nki, yalang'och emas". Bunday kishini ham saxiy deb bo'lmaydi. U quyoshga yordam beray deb kunduzi sham yoqadigan odamga o'xshaydi. Uchinchidan, birovlardan olgan narsani tarqatgan kishini ham saxiy deb bo'lmaydi. Shunday kishilar borki, xalqning moliga ko'z olaytirib, ta'ma qilaveradilar. So'ng ularning bir qismini ulashib, o'zlarini saxovatli ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Ularning sochgani ham tashlandiq narsalar, olgani ham. Chunki olmog'idan ziyondan boshqa narsa kelmaydi, bermog'idan esa hech bir foyda yo'q:

*Olmog'idin g'ayri ziyon bud yo'q,*

*Turfa bukim bermog'idin sud yo'q.*

To'rtinchidan, so'ramasa bermaydigan kishini ham saxiy deb bo'lmaydi:

*Oni dog'i dema saxiykim, kishi*

*To tilamay bermak emasdur ishi.*

Xo'sh, unda saxiy kim? Shoir so'fiyona axloq o'lchovlaridan kelib chiqib saxiy kishining sifatini bayon etadi:

*Oni saxiy onglagil, ey xushmand,*


*Kim ani davlat qilibon sarbaland.*

Bunday odam Yaratgan nima bersa, qanoat etadi, nimani buyursa, bo'ysunadi. Qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi. Dengizning oldida tursa ham undan bir tomchi suv so'ramaydi, birovning yarasini ko'rsa, malhamini ayamaydi. Muhtoj odam bir narsa so'rasa, qo'lidan kelganicha unga xayr qiladi...

Maqolatlardan biri Vatan haqida. Shoir vatani Xuroson va Hirotni ulkan mehr bilan suyadi, ularni baland pardalarda vasf etadi:

*Ziynat aro ravzayi rizvondur ul,*

*Ravzani qo'y, mulki Xurosondur ul,*



- deb yozadi shoir. Xuroson shaharlarini latofatda jannatga qiyos etadi. Xuroson jahonning ko'ksidir, Hirot esa shu siynadagi yurakdir, deya davom etadi shoir va o'quvchini shahar tomon boshlaydi. Arki to'qqiz osmonday buyuk, devorlarining kunguralari quyoshday tovlanadi, atrofidagi xandaqlar yer qa'riga kirib ketganday. Shaharga kirish bilan to'rt tomonga ketgan ulkan yo'llar bozorlarga olib boradi. Bazzozlar oldida osmon atlaslari kabi rang-barang kiyim-kechaklar, qutichalarda

osmondagi yulduzlar qadar sonsiz-sanoqsiz javohirlar. Har qanday odamning aqli shoshadi. Navoiy o‘zining mehnati singgan binolar, jumladan, Masjidi Jome’ ta’rifiga o‘tadi. Uning o‘zini bir olam deb ataydi. Masjid toqining o‘zi bir katta osmon. Minbari osmonga zina bo‘la oladi. Oy – unga qandil, osmon kamalagi (qavsi kuzah) mehrob. Madrasalarchi? Ularning har biri ulug‘vorlikda ko‘k madrasasi (osmon gumbazi)dan ham baland, gumbazlari osmon gumbazini eslatadi. Har koshinida quyosh aksi tovlanib, ko‘k gumbazi ichida quyosh yurgandek bo‘ladi. Bu maqolat XV asrdagi Hirotning tasvirini, manzaralarini beradi. Biz shaharning geografik joylashishidan qurilishigacha, tabiatidan madaniyatigacha bo‘lgan qimmatli ma‘lumotlar bilan tanishamiz. To‘g‘ri, ular oshiribroq tasvirlangan. Bu Sharq adabiyotidagi ustuvor ijodiy serbo‘yoq uslub bilan izohlanadi. Uzoq davr mobaynida mubolag'a she'rning ziynati sifatida qaralgan. Ajdodlarimiz "Ahsanahu akzabahu" (eng yaxshi she'r – eng yolg'on she'r) degan naqlga amal qilganlar.

Xullas, Navoiy badiiy ijodning barcha sohalarida hayratomuz meros qoldirgan. Uning falsafiy-didaktik doston janri taraqqiyoti sohasida qoldirgan “Hayrat ul- abror” dostoni umumbashariy adabiy meros qatorida saqlanadi.

#### **MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul- abror. <http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/69-hayrat-ul-abror.html>
2. Adabiyot o‘qituvchisiga metodik tavsiyalar. T.2010
3. A.Rafiyev. L.Rafiyeva. “O‘zbek tili va adabiyoti”. T.2008
4. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablar darslik majmuasi. T.2006

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. “Hayrat ul- abror” dostoni va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering.



2. Dostonda qaysi masalalar yoritilgan?
3. Navoiy iymonnig inson hayotida tutgan o‘rnini qanday belgilaydi?
4. “So‘z ta’rifida” bobida keltirilgan parchaning birinchi bayti mazmunini izohlang.
5. O‘qituvchi bilan birgalikda “Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi” misrasi zamiridagi chuqur hayotiy ma’noni topishga harakat qiling.
6. “Hayrat ul -abror”dagi beshinchi maqolat nima haqida? “Hotami Toy” hikoyatini sharhlang.
7. O‘ninch maqolatdagi “**Sher va Durroj**” masalani izohlang.
8. O‘n uchinchi maqolat nima haqida?
9. Dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyatidagi g‘oyani sharhlang.
10. Dostondagi “Noshiravon hayo bog‘ida” hikoyati nima haqida?

**Quyidagi tayanch so‘z va tushunchalarni izohlang:**

eng yaxshi she’r – eng yolg‘on she’r, karam, so‘fiyona ahloq, qanoat, devorlarning kungulalari, dovruq qozonmoq, martaba, maqolat, mehr-muhabbat, saxovat, bazzoz.

**QUYIDAGI TESTLARDAN TO‘G‘RI JAVOBNI ANIQLANG**

**1. Quyidagi atamalardan qaysi biri "Hayrat ul-abror" dostonining tuzilishi uchun eng xarakterli?**

- a) bob
- b) qism
- c) ravza
- d) maqolat

**2. Alisher Navoiy "Xamsa" sining qaysi dostonida ruhiy kechinma kuchli ifoda erilgan?**

- a) "Hayrat ul -abror"
- b) "Farhod va Shirin"
- c) "Saddiy Iskandariy"
- d) "Layli va Majnun"

**3. "Xamsa" dostonlaridagi qaysi qahramonni to‘rt yuz tabib ikki yil turli usul bilan ham davolab, sog‘aytirib yuborisha olmaydi?**

- a) Farhod
- b) Majnun
- c) Bahrom
- d) Layli

**4. Qaysi javobda "Xamsa" dostonlari muqaddimasiga taalluqli bo‘lgan so‘z berilgan?**

- a) Muhammas
- b) Na‘t
- c) Marsiya
- d) Murabba’

**5. "Xamsa" qahramonlaridan qaysi biri o‘z ixtiyori bilan toj-taxtdan, hukmdorlikdan voz kechadi?**

- a) Farhod
- b) Majnun
- c) Axiy d) Bahrom

**6. Manga ne yoru ne oshiq havasdur,**

**Agar men odam o‘lsam ushbu basdur!**

**Agar Bonu ilojin bilsa qilsun,**

**O‘zimni o‘ltururmen, yo‘sa bilsun!**

**Ushbu misralar qaysi dostonga taalluqli?**

a) "Hayrat ul-abror"

b) "Farhod va Shirin"

c) "Layli va Majnun"

d) "Sabba‘i sayyor"

**7. Iskandar Zulqarnayn vasiyatnoma maktubini kimga yozgan?  
("Saddi Iskandariy")**

a) Ravshanakka

b) Mehrnozga

c) onasiga

d) Arastuga

**8.A.Navoiyning "Hayrat ul-abror"dostonidagi"Shah va Durroj"masalida  
qanday g‘oya ifodalangan?**

a)Dushmanga ishonib bo‘lmasligi

b)Yolg‘on so‘zlashning yomon oqibat keltirishi

c)Insonning doimo xushyor bo‘lish kerakligi

d)Har kim o‘z tengi bilan o‘rtoq tutinishi.

**9. "Ahmad Yassaviy Turkuston mulkuning shayxul mashoyixidir.  
Maqqomati oliy va mashhur. Murid va ashobi g‘oyatsiz va shoh-u gado aning.  
Irodati ixlosi ostonida nihoyatsiz ermush"**

## Ushbu ta'rif muallifi kim?

- a) Bobur
- b) Navoiy
- c) Atoiy
- d) Lutfiy

## 10. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlar bosib o'tadigan 7 manzil qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Riyozat, Manzil, Makon, Lomakon, Fano, Maqom, Yo'qlik.
- b) Muhiblik, Muridlik, Oshiqlik, Oriflik, Darveshlik, Obidlik, Sukut.
- s) Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Fano.
- d) Shariat, Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat, Fano, Baqo, Rizo



## “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI

**Darsda quyidagi  
muammolar qo'yiladi va  
hal etiladi:**

1. “Layli va Majnun” dostoni “Xamsa”dagi eng qayg'uli asar ekanligini qiyosiy yo'l bilan tushuntirish.
2. Oshiq va mashuqalar ruhiyatidagi holatning Navoiy tomonidan mahorat bilan ifodalanganligi Navoiyning o'z salafalaridan farq qiluvchi belgi ekanligini tushuntirish.

3. Ishqiy holat tasvirida Navoiy mahorati barcha ijodkorlardan ustun ekanligini misollar yordamida aniq ko'rsatib berish.

### **Mavzuda qo'llaniladigan tayanch so'z va iboralar**

Sevgi va qahramonlik. Hay qabilasi. Ishq dostoni. Tun tasviri. Tur tog'i. alamli so'roq. Dard-iztirob. Muhabbat. Ruhiyat.



### **DARSNING REJASI:**

1. "Layli va Majnun" – ishqiy doston.
2. Qaysning ishq bobida sodiqligi.
3. Laylining muhabbatga munosabati.
4. Navoiyning ishqiy doston yaratishdagi mahorati

Adabiyot fani o'qitishda o'qituvchining metodik mahorati o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki u ta'limning eng samarali usullaridan oqilona foydalangandagina ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Maqsadga erishish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga ham bog'liqdir.

O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir guruhga mos keladigan usul tanlamog'i lozim. Hatto, bir o'qituvchi bir xil usulda ikki xil guruhda dars o'tib ham bir xil natijaga erisha olmaydi. Chunki har xil xarakterli o'quvchilarni bir xil usul bilan o'qitib bir xil natijaga erishish mumkin emas. Buning uchun guruh o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini bilib, ularning nimalarga qodirligini aniqlab dars boshlash yaxshi natija beradi. O'qituvchi o'zida bir qator sifatlarni mujassam etmog'i zarur:

1. Pedagogik amaliyotchilik.
2. Ilmiy tadqiqotchilik.
3. Tashkilotchilik.
4. Adabiy vositachilik.
5. Badiiy ijrochilik.
6. Pedagogik ijodkorlik.

“Layli va Majnun” dostonidek ishqiy asarni o‘tish uchun yuqoridagi zaruriy sifatlarni mujassam bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sharq adabiyatida sevgi haqida bitilgan dostonlar orasida "Layli va Majnun"day dardli va g‘amgin asarni topib bo‘lmaydi. U naqadar g‘amgin bo‘lsa, shu qadar shuhrat topgan, keng yoyilgandir. Bu sevgi qissasi qanchalik g‘amgin va mashhur bo‘lsa, shunchalik qadimiy hamdir. Uni mutaxassislar Botishdagi "Romeo va Juletta"dan ham mashhurroq hisoblaydilar. Ushbu mavzuda adabiyot olamida salkam o‘n uch asrdiki, she‘r va dostonlar bitilib keladi. Qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog‘liq voqealarga borib taqaladi. Mutaxassislar orasida bu borada ikki fikr bor: ayrimlar Majnunning tarixiy shaxs, oti Qays Ibn Mulavvah, yoshligida tuya boqib yurganda amakisining qizini sevib qolgan, she‘rlar yozgan, devon ham tuzgan, u haqda ko‘plab rivoyatlar, hikoyatlar yaratilgan, deydilar. Ikkinchi bir fikrga ko‘ra, u – to‘qima obraz.

Nizomiy Ganjaviy birinchi bo‘lib ushbu qissani yaxlit bir dostonga aylantirdi. Qays e‘tiborli bir odamning har jihatdan mukammal farzandi bo‘lib, aqli ham, jismi ham, husni ham joyida edi. U har jihatdan munosib bo‘lgan Laylidek qizni sevdi, sevildi. Biroq Laylining otasi uni o‘z qiziga munosib ko‘rmadi. Odamlar esa uni majnun (telba) deb atadilar. U odamlar orasidan bosh olib ketdi. Vahshiy hayvonlar uni o‘z panohiga oldilar. Jamiyat rad etdi. Tabiat bag‘riga oldi. Birinchi marta Nizomiy dostoniga aylantirgan "Layli va Majnun" asariga bir yuzdan o‘n sakkizta nazira bitilgan. Ulardan oltmish yettitasi fors, o‘ttiz yettitasi turkiy tilda. Kurd (7), urdu (7), panjob (2), afg‘on, arman, gruzin tillarida yozilgan

naziralar ham bor. Rus shoiri Y. Xlebnikov ham 1911- yilda "Majnun va Layli" nomi bilan doston yozgan. O'zbek adabiyotida bu mavzuni Navoiy boshlab berdi:

*Men turkcha boshlabon rivoyat,*

*Qildim bu fasonani hikoyat, -*

deb yozadi shoir. Muallif asarning mazmuni chuqurligini ta'kidlab, afsona faqat libos ekanligi, uning mazmunidagi chuqur insoniy dard, qahramonlarning ko'nglidagi majoziy muhabbat ilohiy ishq darajasiga yetganini aks ettirish asosiy maqsad ekanini ta'kidlaydi:

*Men xastaki, bu raqamni chekdim,*

*Tahriri uchun qalamni chekdim.*

Navoiyning "Layli va Majnun"ida ruhiyat tasviriga alohida e'tibor berilgan. Asar voqeasi haybatli tun tasviri bilan boshlanadi. Zim ziyo tun. Bo'ron guvullaydi. Chaqin chaqnaydi. Yomg'ir birdan sharros quyadi. Har chaqin chaqqanda Tur tog'i yorishib ketadi. Goh esa Laylining hay qabilasi ko'rinib ketadi. Goh nihoyasiz dasht va undagi vahshiy hayvonlar namoyon bo'ladi. Bu - balo va ofatlarga to'la ishq dashti. Bu tasvirlarning hammasida ramz bor. Hatto tunning o'zi ham ma'no tashiydi. "Layli" degani arab tilida "tungi" degani. Shoir o'quvchini asosiy voqealarga shunday tayyorlab boradi. Qaysning tug'ilishi, o'sishi tasvirida ham ilohiy qismat yaqqol sezilib turadi. Uning beshikdagi yig'isidayoq ishqdan nola bor edi. Uni 4 - 5 yoshlarida o'qishga beradilar. Layli bilan birga o'qiydi. Bahor kunlarining birida Layli saboqdoshlarini bog'ga taklif etadi. Ikkalasi o'rtasida paydo bo'lgan ishq ularning sirini oshkor qiladi.

Qays ishq zo'ridan behush yiqiladi. Xabar Qaysning ota-onasiga yetib boradi. Odamlar to'planadi. Shoir atrofdagilar munosabatini san'atkorona beradi. Birov: "Qiziq bo'ldi-ku",- degandek qiladi. Ikkinchisi: "Qarang-a, dev uribdi", - desa, keyingisi: "Yo'q, pari tekkan!" - deydi. Xullas, shoir Qays atrofidagi g'ala-g'ovurlarni g'oyat noziklik bilan kuzatadi. Qays o'ziga kelgach, Layli qabilasi

tomon jo'naydi. Uni topib keladilar, yigit yana g'oyib bo'ladi. Iz olsalar, hay qabilasi tomon ketgan. U yerdan yana bir iz qo'shilib sahroga yo'l olgan. Endi malomat boshlandi. Birov: "Qulog'iga pand kerak!" - deydi. Birov: "Oyog'iga band kerak!" - deydi. Oyog'iga bandni afzal ko'rdilar. Qaysning kishanga solingandan keyingi holatini Navoiy shunday tasvirlaydi:

*"Layli, Layli!" - debon chekib un,*

*El deb, "Majnundur, ushbu majnun!"*

Shoir dostonidagi obrazlarning xatti - harakatlarini hayotiy dalillash, psixologik asoslashga ahamiyat beradi. Qiziga Majnunning oshiqligidan xabar topgan Laylining otasi ruhiyati asarda juda puxta aks ettirilgan. U Qays boshiga tushgan savdolarni aytgan kishiga yigitni bilishini, uning holi, ayniqsa, ota-onasining ahvolidan qayg'urib, hamdardligini:

*Ta'rifida ko'p o'tar edi so'z,*

*Go'yoki anga tegurdilar ko'z. –*

tarzida bildirgan odam yigitning Layli ko'yida shu holga tushganini, har bir she'rida uning ismini bitishini eshitgach, tamomila o'zgarib ketadi. Shoir buni nihoyatda hayotiy va ta'sirli aks ettirgan. Noqulay ahvolga tushgan suhbatdosh, uyatga qolgan erkak, nomus qilishga majbur ota holati dostonida g'oyat ishonarli berilgan:

*Eshitguchi bildikim, nedur hol,*

*To'lg'ondi o'ziga o'ylakim nol.*

Shoir ayni vaziyat uchun eng muvofiq ruhiy holat tasvirini bera olgan. Bu o'rinda suhbatdoshlarning har ikkisi ham jonli odam, zimmalaridagi og'ir ma'naviy yukni ko'tarib borishga mahkum kimsalar sifatida ishonarli ko'rsatilgan. Dostonida endi Majnunga aylangan zanjirband Qaysning iztirobga to'la holatini shoir ulkan dard bilan tasvirlaydi:



*Bir necha kun uyda edi poband,*

*Faryod anga goh baland-u goh past.*

Tasvir Majnunning holatiga benihoya mos. Badiiy manzara soʻz va undagi maʼno tovlanishlari natijasida paydo boʻlgan oʻyinlar yordamida chizilgan. Uyida oʻtirishga majbur etilgan va asosiy kasalligi oshiqqligi boʻlgan yigit, uning goh baland, goh past ovozdagi faryodi, tuzoqdagi qush singari oʻzini har tomonga urishi, Layliga boʻlgan ishq sabab oshiqqa na yemak-ichmak va na uyqu borligi, negaki, tinimsiz yigʻidan bir nafas suv, yaʼni yosh turmaydigan koʻzda uyqu turishi mumkin emasligi, suygani koʻyida koʻnglida hushyorlik yoʻqligi, ishq oʻti nafaqat hushyorlik, balki yigit tanidan koʻngilning oʻzini ham, unga qoʻshib hushini ham kuydirib yuborganligi tasviri Majnun ruhiyatini ifodalash jihatidan tengsiz badiiy qudrat kasb etgan. Asarda maʼshuqasidan ayrilgan oshiq nolalari juda ham taʼsirli berilgan:

*Men xastani aylamakta mavjud,*

*Ne erdi ekin qazogʻa maqsud?!*

Bu alamli soʻroqlarda soʻngsiz dard-iztirob bor. Qays ne sababdan muhabbat otashiga duchor boʻlganini bilgisi, ishq oʻti uning koʻngliga qachon tutashganini idrok etgisi kelgani asarda gʻoyat nozik tasvirlangan. U ruh kishisi sifatida koʻnglidagi dard shunchaki jismoniy intilish emasligini anglaydi. Uni bezovta qilayotgan, bu dunyo tashvishlaridan yiroqlarga olib ketayotgan alangali tuygʻu jismdan koʻra chuqurroqda ekanini idrok etadi. Shuning uchun ham:

*Koʻnglum uyin etti qaygʻu zindon,*

*Jism uyi yana qorongʻu zindon.*

deya nola chekadi. Qays ishqda ixtiyorsizligini, bu tuygʻu uning uchun ham jazo, ham mukofot ekanini biladi. Navoiy oshiqning shu holatini oʻta nozik ifodalay bilgan. Majoziy ishq bilan bogʻlanuvchi bu lavhalar haqiqiy ishq yoʻlidagi Allohni anglash, uning visoliga erishish mashaqqatlariga ishora edi. Asarning eng

ta'sirchan joylaridan biri Majnunning Makkaga olib borilishi lavhasidir. O'g'lining ahvolidan chorasiz qolgan ota uni Ka'bage olib boradi. Orzu qiladiki, Qays bu muqaddas joyda dardiga shifo tilasa, ya'ni Layliga bo'lgan muhabbatidan qutultirishni Yaratgandan so'rasa. Biroq, buning aksi bo'lib chiqadi. Majnun Ka'ba atrofini aylanib, muqaddas toshga halqa-halqa ko'z yoshlarini oqizar ekan:

*Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo rab!*

*Ishq ichra meni yo'q ayla, yo rab! –*

deya qilgan nidolarda Qaysga xos sifatlar yorqin namoyon bo'ladi. U g'am chekayotganidan, ishq yo'lida abgor bo'lganidan qayg'urmaydi. Aksincha, "Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo rab", deya iltijo qiladi. Xushta'm ishq mayining "jomi talabig'a" ko'proq quyilishini istaydi. Demak, u qismatidan norozi emas. Ishqsizlikni, g'amsizlikni baxtsizlik hisoblaydi. Shoir Layli va Majnun yozishmalariga katta ma'no yuklaydi. Ayniqsa, Laylining maktubi mazmunning teranligi, qizning ko'ngil rozlarini aks ettirishi jihatidan tengsizdir. Bu xatda mehr-muhabbat iqrori ham, sadoqat izhori ham, ayni paytda, Sharq ayolining jamiyatdagi o'rni haqida bezovta o'ylar ham bor. Dostondan olingan quyidagi nozik tasvirlar qizning ijtimoiy mavqeyi hamda ruhiy holatini to'kis ifoda etadi:

*Sensizki g'amim dame kam ermas,*

*Sendin gar emas ko'p, oz ham ermas.*

Dardi ichida bo'lishga mahkum qizning holatini bundan aniqroq ifodalab bo'lmaydi. Uning ham qalbida sevgi o'ti lovillab yonmoqda, lekin u qiz bola bo'lgani uchun "tutun chiqarmaslik"ka majbur. Ayriliq uning qalbini ham omonsiz o'rtaydi. Lekin qizlik sha'ni bois bu haqda hech kimga ayto olmaydi. Imkonsizlik iztirob darajasini necha karra oshiradi. Doston oxirida "Ishq ta'rifida" degan maxsus bob keladi. Shoir unda Layli va Majnun taqdirida afsonaga o'rab berilgan mazmunni sharhlaydi. Ushbu bob ishqning ta'rifi bilan boshlanadi:

*Ey, ishq, g'arib kimyosen,*

### *Bal oyinayi jahonnamosen.*

Shoir ishqni misni oltinga aylantiruvchi kimyoga va jahonni aks ettiruvchi oynaga o'xshatadi, buni atroflicha isbotlashga harakat qiladi. Shoir inson umrining mazmun-mohiyatini ishqda ko'rgan edi.

Uningcha, odamni odam qiladigan ishq edi. Bir-birlarining vasliga yetolmagan yigit-qizning muhabbati mojarolarini ko'rsatish vositasida Allohga bo'lgan buyuk va ta'masiz sevgi madh etilgan doston jahon adabiyotida ishq mavzusida bitilgan eng ta'sirchan hamda badiiy yuksak asardir. Navoiyning "Layli va Majnun"i mazkur sujetning ishlanish tarixida alohida bir bosqich bo'lib qoldi. Undan yarim asr keyin yashagan va shu mavzuda alohida doston yozgan mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyning badiiy mahoratiga yuksak baho berdi. Qissa xalqimiz orasida keng yoyilgan. U haqda xalq dostoni maydonga keldi.

Xullas, dostonda poklik g'alaba qildi biroq bu g'alaba pok tuyg'u egalarning – ya'ni Qays va Layli o'zlarini qurbon qilishlari evaziga amalga oshdi.

### **MUSTAQIL O'QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun.  
[http://www.kutubxona.com/w/index.php?title=Turkum:Badiiy\\_adabiyot&pageuntil=Pushtirang+falokat+\(hikoya\)%0AHojiakbar+Shayxov.+Pushtirang+falokat+\(hikoya\)](http://www.kutubxona.com/w/index.php?title=Turkum:Badiiy_adabiyot&pageuntil=Pushtirang+falokat+(hikoya)%0AHojiakbar+Shayxov.+Pushtirang+falokat+(hikoya))
2. Adabiyot o'qituvchisiga metodik tavsiyalar. T.2010
3. A.Rafiyev. L.Rafiyeva. "O'zbek tili va adabiyoti". T.2008
4. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. Umumiy o'rta ta'lim maktablari darslik majmuasi. T.2006
5. Abduqodirov A. Jomiy va Navoiy "Layli vaMajnun"larining qiyosiy tahlili. Navoiyga armug'on. T.2004

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Laylining Majnun holatiga munosabati tasvirlangan misralarni belgilang.
2. Laylining o'zida ham o'zgarish yuz berayotganmide?
3. Sevishganlar yolg'iz uchrashib, so'zlashgan joyni ta'riflab bering.
4. Layli va Majnunning sevgi munosabatlari qachon boshlanib qanday tugallangan?
5. Majnunning Ka'bada to'palon ko'targan payt tasviri haqida so'zlab bering.
6. "Layli va Majnun" dostoni qaysi bahrda yozilgan?
7. Asarning sujetini gapirib bering.
8. Layli so'zining ma'nosi nima?
9. Asar so'ngidagi "Ishq ta'rifida" degan maxsus bobda nima aks ettirilgan?
10. "Layli va Majnun" dostonida ilohiy ishq talqini" mavzusida insho yozing.

**Quyidagi tayanch so'z va tushunchalarni izohlang:**

Kanora, azhob, "Ul ikki", jon so'z, she'riy misra tahlili, nafs lashkari, voqealar rivoji, sabot va iroda, nafsni yengish quroli, Allohga muhabbat.



**QUYIDAGI TESTLARDAN TO'G'RI JAVOBNI ANIQLANG**

1. **Boshni fido ayla ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a..  
Tun-kununga aylagali nur fosh,**

**Birisin oy anyla, birisin quyosh.**

**Mazkur misralar Navoiyning qaysi asaridan olingan?**

- a) "Hayrat ul - abror"
- b) "Sab' ai sayyor"
- c) "Mezon-ul-avzon"
- d) "Farhod va Shirin"

**2. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarining qaysi birida yakka qahramonning sarguzashtlari hikoya qilinadi?**

- a) "Hayrat ul-abror"
- b) "Farhod va Shirin"
- c) "Layli va Majnun"
- d) "Saddi Iskandariy"

**3. Besh asr kim, nazmiy saroyini,**

**Titratadi janjirband bir sher.**

**(A.Oripov)**

**Shoir bu misralarda kimni nazarda tutgan?**

- a) Amir Temurni
- b) Ulug'bekni
- c) Boburni
- d) Navoiyni

**4. 1483-1485 yillarda Navoiy qaysi asarini yaratgan?**

- a) "Farhod va Shirin"

b) "Xazoyin ul-maoniy"

c) "Badoye' ul-bidoya"

d) "Xamsa"

**5. "Xamsa" qahramonlaridan qaysi biri o'z ixtiyori bilan toj-taxtdan, hukmdorlikdan voz kechadi?**

a) Farhod

b) Majnun

c) Axiy

d) Bahrom

**6. Qaysi javobda "Xamsa" dostonlari muqaddimasiga taalluqli bo'lgan so'z berilgan?**

a) Muxammas

b) Na't

c) Marsiya

d) Murabba'

**7. Erursen shoh- agar ogohsen,**

**Agar ogohsen- shohsen sen. (Navoiy)**

**Ushbu baytda qo'llangan badiiy san'at qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) tazod

b) tardi aks

c) tajohuli orifona

d) tashxis

**8. Alisher Navoiyning dastlabki she'riy devonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) "Garoyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob"
- b) "Badoye' ul-vasat", "Favoyid ul-kibar"
- c) "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya"
- d) "Nazm ul-javohir", "Devoni-Foniy"

**9. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Sher va Durroj" masalida qanday g'oya ifodalangan?**

- a) dushmanga ishonib bo'lmasligi
- b) yolg'on so'zlashning yomon oqibat keltirishi
- c) insonning doimo hushyor bo'lishi kerakligi
- d) har kim o'z tengi bilan o'rtoq tutinishi afzalligi

**10. Alisher Navoiyning mutasavvuf shoirlar haqidagi tazkirasini ko'rsating.**

a) "Vaqfiya"



b) "Nasoyim ul-muhabbat"

c) "Mahbub ul-qulub"

d) "Majolis un-nafois"

**"SAB'AI SAYYOR" DOSTONI**

**Darsda quyidagi muammolar**

**Qo'yiladi va hal etiladi:**

1. Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan Shoh Bahrom va uning kanizagi o'rtasidagi muhabbat

mavzusining yoritilishiga doir fikrlarni umumlashtirish.

2. “Sab’ ai sayyor” – ishqiy sarguzasht qissa ekanligini o‘quvchilarga yetkazish va uning Navoiy talqinidagi o‘ziga xosliklar bilan tushuntirish.
3. “Shohlik va oshiqlik” bir qolipga sig‘masligi Navoiy talqinida qanday ifodalanganligini tushintirish va she’riy parchalarni tahlil qilishga o‘rgatish.

### **Mavzuda qo‘llaniladigan tayanch so‘z va iboralar**

Ishqiy sarguzasht qissa. Iztirob. Tushkunlik. Uzlatga berilish. Ma’no-mazmun. Xuroson va Movarounnahr. Kichik parcha. Qush va jonivorlar. Botqoq ko‘zi.



### **DARSNING REJASI:**

1. “Sab’ ai sayyor” – ishqiy sarguzasht qissa.
2. Bahrom obrazining Navoiydagi talqini.
3. Dostondagi hikoyatlar.
4. Hikoya ichida hikoya usuli.

Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asar bilan o‘quvchi orasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuning uchun u mashg‘ulot uyustirishda talabalarning ruhiy taraqqiyotini ta’minlashni ko‘zda tutishi kerak. Ruhiy taraqqiyot asar matni zamirida ma’noni ilg‘ash, turli badiiy ifodalar ostida “yashirinib yotgan” jozibani payqash imkonini beradi. U talabalarning asarni to‘la o‘zlashtirishi, to‘g‘ri anglashi, baholashi hamda tahlil qila olishiga zamin yaratadi. Shu jihatdan, Navoiyning “Sab’ ai sayyor” dostonini o‘rganish o‘ziga xoslik kasb etadi.

"Sab'ayi sayyor" 38 bob, 5000 baytdan iborat bo‘lib, asar voqealari o‘n ikkinchi bobdan boshlangan. Bahrom - yetti iqlim shohi. Ovda uni izlab kelayotgan Moniyi uchratadi. Moniy xitoylik bir savdogarning go‘zal qizi Dilorom haqida xabar beradi. U o‘zi chizgan qizning suratini ko‘rsatadi. Shoh suratni ko‘rishi bilan Diloromga telbalarcha oshiq bo‘lib qoladi. Xitoyning bir



yillik xirojini to‘lab, qizni saroyga keltiradi. Shoh qizga butunlay mahliyo bo‘lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi. Nihoyat, "Shohnoma"dagiday, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning mahoratini: "Mashqning natijasi",- deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo‘lini o‘z sochlari bilan chirmab bog‘lab biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi g‘azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin, uni o‘zi borib izlaydi, topa olmaydi. Shoh ayriliqdan butkul o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Sahrodan uni bir amallab olib keladilar. Shoh uzlatga beriladi. Hakimlar tashvishga tushadilar. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yettita qasr qurdiradi. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo‘l ustida o‘rnashadi.

Moniy uning har birini o‘zga bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilgan ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitadi.

Yetti iqlim shohi bittadan o‘z qizlarini beradilar. Bahrom shanba kunini mushkfom qora liboslar kiyib, qora rang gumbazga kirib, hind malikasi huzurida o‘tkazadi. Kunning, ayniqsa tunning o‘tishi qiyin bo‘ladi. Shu bois, shoh farmoniga ko‘ra, xizmatchilar qasr yo‘liga chiqib, shu tomonga kelayotgan musofirni boshlab kiradilar. Shoh undan ko‘rgan-kechirganlarini hikoya qilib berishini so‘raydi. Musofir saxiylikning betimsol namunasini ko‘rsatgan Axiy haqidagi hikoyani aytib beradi va o‘zining unga avlod ekanini, shahanshoh huzuriga xizmatga kelayotganini aytadi. Yakshanba kuni shoh zarnigor qasrda zarbof kiyimlar kiyib, Rum malikasi huzurida rumlik musofir zargar Zayd Zahhob haqidagi hikoyani tinglaydi.

Dushanba kuni yashil qasrda shahrisabzlik musofir shohga Sa‘d haqidagi maroqli hikoyani aytib beradi. Shu tariqa gumbaz ranglari hafta kunlariga mutanosib holda almashib boradi. Bahrom Jo‘na va Mas‘ud, Mehr va Suhayl, Muqbil va Mudbir haqida biri - biridan qiziq hikoyalar tinglaydi. Ranglar ham qoradan oqqa tomon boradi. Shohdagi noxushlik, umidsizlik o‘rnini yorug‘kayfiyatlar egallay boshlaydi. Nihoyat, haftaning yettinchi juma kuni

Bahrom oq qasrda Chin go‘zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi.

-Ko‘rganimni ayta qolay,- deb boshlaydi musofir o‘z hikoyasini. - Xorazmdanman, soz chalaman. Iqlimdagi barcha ustozlar mening shogirdlarimdir. Nogahon, bir xitoylik savdogarning go‘zal kanizagi haqida ovoza tarqaldi. Oq niqobda, yuzini hech kim ko‘rmagan, soz chaladi, ashula aytadi. Unday ashula va ohang hech kimga nasib etgan emas. Ovoza mamlakat shohigacha borib yetdi. Shoh darvesh qiyofasida kelib, tan berdi. Nikohiga so‘ratdi. Kanizak ko‘nmadi. Shoh uni zo‘rlab olib ketdi. Chang chaldi, hamma uyquga ketdi, u esa uyiga qaytdi. Bu hol ko‘p takrorlandi. Shoh kanizak bilan aka-singil, xojasi bilan ota-o‘g‘il tutindi. Qasr qurib berdi. Men bazmlar dostonnavozi edim, shu tufayli ishim kasodga uchradi. Kanizak huzuriga borib arz qildim, sozini tinglab, lol qoldim, ta‘lim so‘radim. O‘zimni mahram etdim. Ko‘nglimdagi boshqa har qanday tuyg‘uni qochirdim. Sezdimki, uning kuy ohangida juda katta dard, pinhoniylashq bor edi. Kimningdir hajrida o‘rtanardi. Bilmoqchi bo‘ldim. "Taftishni bas qil",- dedi u. Yana so‘radim. "Mayli aytaman, shartim shuki bu yerda turmaysan, ketasan", - dedi. Darhaqiqat, uning hikoyasi dardli edi: Chin mulkidanman. Ikki xon qirg‘inida asir tushdim. Xoja meni kanizak qilib sotib oldi. U farzandsiz edi. Meni farzanddek tarbiya qildi. Shuhratim yoyildi. Bir naqqosh suratimni pinhona chizib, bir shahanshohga ko‘rsatibdi. Sevildim, sevdim. Bir kuni ovda bir hol bo‘ldi. U men aytganday otdi. U sharobdan mast edi. Men o‘zimdanda mast edim. Qadriga yetmadim. U odamzod qilolmagan ishni qildi. Men unga jonimni fido etmog‘im lozim edi. Meni yuz pora qildirsa ham haqli edi. Sahroga tashlatdi. Meni ko‘rgani kelayotgan xojam yo‘lda topib oldi. Men shohimiz huzuriga bormoqchi, uzr so‘ramoqchi edim, xojam ruxsat bermadi. Shu tariqa men tirik hijronda qoldim... Endi ket! - deb hikoyasini tugatdi kanizak, deganida shoh Bahrom o‘zini tuta olmadi, shoh ekanligini ham unutib, musofirni qayta-qayta bag‘riga bosdi.

Bahrom Diloromni topgach, yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni katta ovda, ulkan o‘tloqda sonsiz qo‘shin va hayvonlar jam bo‘ladi. O‘tloqning tagi esa

botqoq edi. Ovda qo‘shin zich bo‘lganida tepada sharros yomg‘ir boshlaydi. Eski botqoqning og‘zi ochilib, Bahrom Dilorom va butun arkoni davlati bilan birgalikda balchiq tubiga kirib ketadi. Sodda qilib aytsak, Bahromni yer yutadi. Ko‘rinyaptiki, Navoiy Bahrom obraziga juda katta ma‘no-mazmun yuklagan. Uning timsolida oshiqlik va shohlikning bir tanga sig‘masligini ko‘rsatgan. Bahrom oshiq bo‘lgach, mamlakatni unutdi. Shohlik bilan shug‘ullana boshlaganda esa, yordan voz kechdi. Eng muhimi, u o‘zidagi kibrni yengolmadi, manmanlikdan voz kecholmadi. Binobarin:

*Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,*

*Ishq lofida shoh sodiq emas.*

Navoiy juda katta gapni favqulodda jasorat bilan aytgan. Birinchidan, u o‘z ijodiy niyatini Bahrom tilidan ma‘qullatib oldi. Bulardan eng muhimi, shoirning o‘z vijdoniga xilof narsa yozmaganidir. Ikkinchidan, Husayn Boyqaroni Bahromga o‘xshatdi, uning taqdiridan ogoh qildi. Agar Sulton Husayn maishatni tark etmasa, uni ham Bahrom singari taqdir kutadi, degan fikrni aytadi. "Sab‘ayi sayyor"da Navoiy dahosining qudrati shoirning o‘z tilidan aytilgan o‘rinlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, doston yakuniga yaqinlashganda shoir asarning yozilish muddatiga to‘xtalib deydi:

*Manga ayyomi garchi yod ermas,*

*Lek to‘rt oydin ziyod ermas.*

*Bo‘lsam o‘zga umurdin emin,*

*Bor edi to‘rt hafta ham mumkin.*

Chindan ham, Bahrom haqidagi qissa Navoiydan keyin o‘zbek adabiyotida keng yoyildi. XVIII asrdan yozma va og‘zaki adabiyotimizda Bahrom va Gulandom turkumi paydo bo‘ldi. Koshg‘arlik G‘aribiy XIX asrda "Shoh Bahrom va Dilorom" asarini yozdi. Umar Boqiyning "Qissayi haft manzarayi Bahrom" asari maydonga keldi.

## **MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**


1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor.  
<http://muloqot.biz/library/index.php?id=578&start=17>
2. Adabiyot o‘qituvchisiga metodik tavsiyalar. T.2010
3. A.Rafiyev. L.Rafiyeva. “O‘zbek tili va adabiyoti”. T.2008
4. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining darslik majmuasi. T.2006

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Bahromning tinglagan hikoyalarini sanab bering.
2. “Ishq ila shohlik muvofiq emas...” hukmi nima munosabat bilan aytilgan?
3. Ovda Dilorom Bahromdan ohuni qay tarzda otib berishni so‘radi?
4. Diloromning Bahrom merganligiga munosabatini qanday baholaysiz?
5. Bahromning g‘azabiga javoban Diloromning mulohazalariga munosabat bildiring. Sizningcha kim haq?
6. G‘azab va mastlikda qilib qo‘ygan xatosidan qayg‘urgan Bahromning ruhiy holati tasvirlangan baytlarni tahlil qiling.
7. “Bahrom – shoh va oshiq” mavzusida insho yozing.

### **Quyidagi tayanch tushunchalarni izohlang:**

“qahr sarvari”, “xon qurg‘inida asir tushdim”, aysh-ishratga berilmoq, maqtov va olqish, zid munosabat, mastlik va g‘azab, musofir hikoyasi, sariq qasr, oshiqlik va shohlik.





## “SADDI ISKANDARIY” DOSTONI

**Darsda quyidagi  
muammolar qo‘yiladi**

**va hal etiladi:**

1. “Saddi Iskandariy”da mashhur siymolardan biri jahongir Iskandar obrazining yaratilishi. Uning tarixiy asoslari, genezisi haqida tushuncharlarga ega bo‘lish.


2. Tarixiy Iskandar dunyoni zabt etish maqsadida ko‘p joylarda shafqatsiz urushlar olib borganligi haqidagi fikrlarni to‘ldirish.

3. Badiiy adabiyotda Iskandar obrazining turlicha

talqinlari haqida ma’lumot berish.

### **Mavzuda qo‘llaniladigan tayanch so‘z va iboralar**

Jahongir. Mashhur siymo. Tarixiy Iskandar. “Zulqarnayn”. Qirvon o‘lkasi. Ya’juj-ma’juj. Xalqlar do‘stligi. Oqil siyosatchi. Odil shoh. Tanti inson.



## **DARSNING REJASI:**

1. “Saddi Iskandariy” “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni.
2. Iskandar devori.
3. Iskandar – adolatli shoh.
4. Alisher Navoiy ijodida adolatli shoh talqini.
5. Iskandar obrazi tarixiy shaxs emas ekanligi.

Adabiy ta’limda badiiy matnni, uning zamiriga yashirin, sirli, jozibali ifodalarni va bu ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy ma’nolarni ilg’ash o’qituvchi uchun oson, lekin hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sirlarini anglash malakasi shakllanmagan litsey o’quvchisi uchun ancha murakkab. Shuning uchun ham o’qituvchida badiiy asar timsollarining ruhiy-hissiy holatlarini o’quvchilarga anglatish, ularning yoshiga, ruhiga, o’zlashtira olishiga mos tarzda ularning ko’ngil mulkiga aylantiruvchi adabiy vositachi bo’lishi lozim. Doston matnini o’quvchi ma’naviy mulkiga aylanishi o’qituvchining mahoratiga bog’liq. O’quvchilar ustozga ergashib, badiiy asarni kashf etishga, asar matni zamiridagi jozibani anglashga odatlanadi. Bu hol ularning kitobxonlik darajasini, kitob o’qish madaniyatini oshiradi, badiiy so’z ustida ishlashga o’rgatadi. Shu nuqtai nazardan “Saddi Iskandariy” dostonini o’qituvchi sujet mazmunini tanishtirishdan boshlashi lozim.

Bu asar dunyodagi eng mashhur siymolardan biri jahongir Iskandarga bag’ishlangan. bo’lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Chiqishda uni Iskandar Zulqarnayn deb ataydilar. "Zulqarnayn" so’zining ikki ma’nosi bor: birinchi ma’nosi - shoxli degani. Ikkinchi ma’nosi – kun chiqish va kun botish hukmdori degani.

"Saddi Iskandariy" "Xamsa"dagi eng yirik dostonidir. U 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Asar voqealari Iskandarning tug’ilishidan boshlanadi.

Bo'lajak Iskandarning otasi Faylaqus tangridan farzand so'raydi. Bir kuni ovdan qaytarkan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi ko'zi yorigan ayolga duch keladi. Chaqaloq o'g'il bola bo'lib, tirik, ona esa o'lib qolgan edi. Shoh o'likni dafn ettiradi, bolani o'g'il qilib oladi. Unga Iskandar deb nom qo'yib, tarbiyasi bilan shug'ullanadi. O'limi oldidan esa uni valiahd qilib tayinlaydi.

Dostonning keyingi bobida himmat haqida gap ketadi. Shoir Iskandar tarixini yozmoqchi emas. Iskandar bilan bog'liq voqealarning ma'nosini ochmoqchi. Shuning uchun voqealar izoh va talqinlar, hikoyatlar, savol-javob va lirik chekinishlar bilan almashinib keladi. Iskandar taxtga chiqar ekan, o'z atrofiga olimlarni to'playdi, ularning maslahati bilan ish ko'radi. U taxtni egallashga qiziqmaydi. Otasi unga taxtni topshirganida qattiq tashvishda qoladi. Oxiri xalqni yig'ib, maslahat soladi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi.

Dostonda oldin adolatning ta'rifi beriladi. Bu ta'rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So'ng Hindistonni olganda elga qilgan birgina adolati bilan jannatga tushgan Mahmud G'aznaviy haqidagi hikoyat iloya qilinadi. "Hikmat" bobidan esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-javobi o'rin olgan. Arastu fikricha, shoh odil bo'lsa, olam unga tobe bo'ladi.

Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni prototipi aslida bizning ajdodlarimizdan biri emasmikan, degan fikr ko'pchilikni qiziqтира kerak. Negaki, har bir asarida milliylik ufurib turgan, turkiylar sha'nini yuksaltirishdek oliyjanob maqsad yo'lida butun umrini sarflagan buyuk shoir "Xamsa"dek yirik asarida o'z maslagini yanada kengroq amalga oshirishga intilgan bo'lishi tabiiy.

Asar bosh qahramoni kimligini aniqlash uchun, bizningcha, asarga oddiy kitobxon, badiiy adabiyot shaydosi sifatida yondashishning o'zi kamlik qiladi. Dostonni uyg'oq qalbli inson nigohi bilan Navoiy yashagan davr tarixini teran tahlil qilgan holda mutolaa qilmoq kerak. Ma'lumki, Alisher Navoiy yashagan

davrda ilmiy adabiyotlar asosan arab tilida, badiiy adabiyot esa fors tilida bitilar edi. Bu bir necha yildan beri davom etib kelayotgan an'analigi bois, mazkur tillarning nufuzi baland edi. Boz ustiga forsiylar "Shohnomaxonlik", "Xamsaxonlik" qilishar va forsiyda shunday mumtoz asarlar bitilgani bilan faxrlanishar edi. Ayrim saroy shoirlari esa ochiqdan-ochiq turkiy tilni kamsitardi ham. Shunday vaqtda Navoiydek shoir jim turishi mumkin emas.

"Saddi Iskandariy" va uning bosh qahramoni kim edi?

Dostondagi Iskandar bizga tarixdan ma'lum Aleksandr Makedonskiyga aslo o'xshamaydi. Mutaxassislarning aytishicha, Qur'oni karimda zikr etilgan Zulqarnayn Akbar bilan Aleksandr Makedonskiy boshqa-boshqa odamlar. Makedoniyalik Iskandar Ollohning yagonaligiga imon keltirgan mo'min emas. Ya'juj va Ma'jujdan himoya devorini qurgan Zulqarnayn esa mo'min odamdir. "Himoya devori"ni makedoniyalik Aleksandr qurgan bo'lganida uni qadimshunos olimlar allaqachon topgan bo'lar edi.

Ammo, olimlarni qiynab kelayotgan muammo shundaki, Aleksandr Makedonskiy bilan Qur'oni karimda zikr etilgan Zulqarnayn obrazi qaysi davrda birlashib ketgan? Aniqrog'i, Zulqarnaynga Iskandar yoki Iskandarga Zulqarnayn oti qachon, qaysi xalqqa mansub olim yoki shoir tomonidan qo'shib yuborilgan?..

Ba'zi olimlarning fikricha, dostondagi obrazlar haqiqiy tarixiy shaxslardir. Jumladan, Arastu - Aristotel, Iskandar - Aleksandr. Shoir asarida ularni ulug'lamagan, o'zidan oldingi xamsanavislar kabi ular vositasida ideal shoh obrazini yaratgan.

Navoiy o'z salafaridan farqli o'laroq, dostondagi ideal shoh obrazini orzu-umidlari, samoviy xayollaridan yaratmagan. Uni haqiqiy hayotdan topgan. Bu esa o'z navbatida doston voqealarini reallashtirishga xizmat qilgan.

Asarning XIX bobi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi "Iskandarning saltanat tojidan sarkashliq qilib, xilofat taxtidin ayoq tortqoni va Rum ahli boshlarin oyog'iga qo'yub, aning maqdamidin taxt poyasin baland qilib, toj qadrin arjumand



qilgʻonlari va aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin koʻr etib jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni".

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Filipp Ikkinchi (Faylaqus) dostonda tasvirlanganidek, Eron shohiga boj toʻlab turuvchi vassal davlat rahbari emas, aksincha, buyuk imperiyachilik vasvasasiga uchragan tajovuzkor hukmdor boʻlgan. U miloddan oldingi 359 yildan 338 yilgacha Bolqon yarim oroli atrofidagi Fokida, Fessaliya, Xalkidika, Frakiya va boshqa davlatlarni bosqinchilik yoʻli bilan Makedoniyaga qoʻshib olgan. 338 yili Xeroniya yaqinida yunon polislarining birlashgan qoʻshinlarini tor-mor keltirib, butun Yunonistonni Makedoniyaga boʻysundirgan. U Eronga hujum boshlash arafasida turganda qizining toʻyi kuni oʻldirilgan.

Shu birgina misoldan ayon boʻladiki, "Saddi Iskandariy"dagi Faylaqus bilan tarixiy shaxs Filipp Ikkinchi oʻrtasida mutlaqo oʻxshashlik yoʻq. Aksincha, bu ikkisi tamoman boshqa toifa odamlar. Shuningdek, ayni masalaga tarixiylik yuzasidan baho berilsa, otasi dushmanlari tomonidan oʻldirilib, vaziyat toju- taxtni kuch bilan oʻz qoʻlida ushlab turishni taqozo qilib qolgan tigʻiz bir paytda Aleksandrning taxtga chiqishdan bosh tortib tamanno qilishi mantiqqa toʻgʻri kelmaydi. Zero, bir lahzalik xotirjamlik uning ham boshini olib ketishi hech gap emasligiga har qanday siyosatdan yiroq odamning ham aqli yetadi. Demak, kamtarlik, xokisorlik, adolatparvarlik xususidagi bu bob Aleksandr Makedonskiy haqida emas.

Asarda tasvirlangan voqea Navoiydan u qadar uzoq boʻlmagan davrda yuz bergan.

Dostonning XXVII bobida yosh, tajribasiz, ammo jasoratli hukmdor Iskandar va hisobsiz **qoʻshini** boʻlgan Doro bilan toʻqnashgani tasvirlanadi. Doroning qoʻshini Iskandarnikidan bir necha barobar koʻpligi aytiladi. Urushda Eron shohining ikki nafar sarkardasi xiyonatga yuz tutadi. Ular jangning borishini kuzatayotgan Doroning ikki yonidan kelib unga tigʻ sanchishadi. Shu bilan jang

nihoyasiga yetadi. Doroning vasiyatlarini tinglagan Iskandar vafotidan soʻng uni izzat-ikrom bilan dafn etib, oʻz hukmdorini sotgan xoinlarni quyidagicha jazolaydi:

*Topib chunki Doro ishidan farogʻ,*

*Tutub iki qotilni aylab soʻrogʻ.*

Yana bir voqea. Dostonning XXXV bobida jahondorlik iddaosi bilan chiqqan Iskandar qishni Qorabogʻda oʻtkazadi. Bu yerda u ilm-u hikmat ahllari, harbiy sarkardalar bilan majlislar tuzadi, yaqinlariga mehribonliklar koʻrsatib, ularga Tangridan madad soʻraydi. Bu ishlardan forigʻ boʻlgan chogʻlarda ot minib, Aras daryosi boʻyiga shikorga chiqib, daryo boʻyidagi oʻrmonlarni sayr qilib hordiq chiqaradi.

*Ki chun qildi qishloq azmiga shoh,*

*Qarabogʻi Arronni oromgoh...*

"Saddi Iskandariy"da dostonning bosh qahramoni Koʻhak (Zarafshon) daryosi boʻyida bir goʻzal shahar bino ettirgani va uni Samarqand atagani haqida gap boradi.

*Iskandar otodi Samarqand ani,*

*Samarqandi firdavsmonand ani.*

Dostonning XXXI bobida Iskandarning vafotidan soʻng dilbandining qabrini makon etib tun-u kun farzand dogʻida oʻrtanayotgan onaga tasalli berish maqsadida yetti donishmand tashrif buyuradi. Ular - Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmuz, Farfinyus, Arastulardir. Dostonda Arastu - piri komil, Iskandar esa komillikka intilgan murid timsolidir. Iskandar asar rivojida bot-bot Arastuga oʻzi yechimini topolmayotgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat etadi va ustozidan olgan javoblari bilan bilimini boyitib boradi.

Demak, Iskandar ramziy obraz, xolos. Shoir asarida tarixiylik emas, badiiylik asosiy oʻrin tutadi. Shu jihatdan Iskandar timsolida adolatli shoh haqidagi

fikrlar ilgari surilgan. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, asardagi ijobiy obraz prototipini topish ijodkorning ixlosiga bo‘liq hodisa. Navoiy dahosi ana shu hodisaga katta mafkuraviy vazifa yuklab yuborgan. Bundan tashqari, shoir asarni yozishda juda ko‘plab tarixiy adabiyotlardan foydalanganini ham ta’kidlab o‘tgan.



#### **MUSTAQIL O‘QISH UCHUN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.  
[http://www.kutubxona.com/Turkum:Alisher\\_Navoiy](http://www.kutubxona.com/Turkum:Alisher_Navoiy)
2. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining darslik majmuasi. T.2006
3. A.Rafiyev. L.Rafiyeva. “O‘zbek tili va adabiyoti”. T.2008
4. A.A‘zamov. Munojotnoma. T.2001
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T."Sharq". 2002

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. O‘tmishdagi va badiiy adabiyotdagi Iskandarni solishtirib, tarixiy va badiiy haqiqat to‘g‘risida fikr yuriting.
2. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan ko‘zlagan maqsadi va Iskandar obrazi vositasidagi orzusi nimalardan iborat edi?
3. Mag‘rib zaminda xalq taxtga loyiq deb bilgan kishining ajib tabiati, fe’li bayon etilgan satrlarni toping va sharhlang.
4. “Boshi toj tarkin qilib ixtiyor

Bo‘lib toj tarki bila baxtiyor” baytini izohlang

5. Tarki dunyo qilgan darvesh shohning oldiga o‘zi bilan olib kelgan so‘ngaklarni qanday izohladi?
6. Iskandarning darveshga qilgan taklifi va darveshning javobi berilgan baytlarni toping.
7. Dostondagi Iskandarga tavsif bering.
8. “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli shoh talqini” mavzusida insho yozing.

### **Quyidagi tayanch tushunchalarni izohlang:**

adolatli shoh, tarixiy Iskandar, adabiy asardagi Iskandar, Doro yurishlari, onaga vasiyat, adolatli shoh orzusi, hayot va adabiyot.



### **QUYIDAGI TESTLARDAN TO‘G‘RI JAVOBNI ANIQLANG**

#### **1. Alisher Navoiyning oxirgi asari nomi?**

- a) “Lison ut-tayr”.
- b) “Mahbub ul-qulub”.
- c) “Arba’in” hadis.
- d) “Muhokamat ul-lug‘atayn”.

#### **2. Manga ne yoru ne oshiq havasdur,**

**Agar men odam o‘lsam ushbu basdur**

**Agar Bonu ilojin bilsa qilsun**

**O‘zumni o‘ltururmen, yo‘qsa bilsun.**

**Ushbu misralar qaysi dostonga taalluqli?**

- a) “Hayrat ul-abror”
- b) “Farhod va Shirin”
- c) “Layli va Majnun”
- d) “Sab’ai Sayyor”

**3. Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,**

**Yo barcha murodlarni tark etsa kishi**

**Bu ikki ish muyassar bo‘lmasa olamda,**

**Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi**

**Ushbu ruboiy muallifi qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- a) Alisher Navoiy
- b) Z.M.Bobur
- c) Lutfiy
- d) Ahmad Yassaviy

**4. Alisher Navoiy yoshligida kimning qaysi asarini yoddan biladi?**

- a) Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”
- b) Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”
- c) Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”
- d) Mavlono Lutfiyning g‘azallari

**5. Navoiy qaysi asarlarida “Foniy” taxallusini qo‘llagan?**

- a) o‘zbekcha she’rlarida
- b) forscha she’rlarida
- c) “Vaqfiya” asarida
- d) “Xamsa” da

**6. Alisher Navoiy: “Bu faqir turk va sart orasida ondin taomroq (mukammalroq) kishini ko‘rmaydurmen”, - deb ta’riflagan zot kim va shoir unga bag‘ishlab qanday asar bitgan?**

- a) Sayyid Hasan Ardasher “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”
- b) Paylavon Muhammad “Holoti Pahlavon Muhammad”
- c) Abdurahmon Jomiy “Xamsat ul-mutahayyirin”
- d) Husayn Boyqaro “Hiloliya”

**7. “To‘qson to‘qqiz yoshida olamdin o‘tdi, qabri Dehikanordadur. O‘z maskani erdi”.**

**Ushbu fikr qaysi shoir haqida kim tomonidan aytilgan?**

- a) Alisher Navoiy Lutfiy haqida
- b) Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasher haqida
- c) Alisher Navoiy Atoiy haqida
- d) Yusuf Xos Hojib Ahmad Yugnakiy haqida

**8. Farhod va Shirin o‘rtasida vositachilik qilgan, ularning xat-xabarlarini bir-biriga yetkazib turgan qahramon nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Zayd
- b) Cho‘pon
- c) Shopur

d) Bahrom

**9. Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?**

**Dedi: Majnun Vatandin qayda ogah?**

**Xusrav va Farhodning ushbu muloqoti qayerda bo'lib o'tgan?**

a) Arman diyori, Mehinbonu qoshida

b) Jangda

c) Farhodning o'limi oldidan

d) Salosil qo'rg'onida

**10. Vasldin so'z derga yo'q yoro manga,**

**Hajr aro rahm aylagil yoro manga**

**O'qing etti ko'p yomon yoro manga**

**Marhami lutfung bila yoro manga**

**Ushbu she'r janri qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

a) qit'a

b) tuyuq

c) g'azal

d) ruboiy



**ILOVALAR**

**TUSHUNILISHI QIYIN SO'ZLARNING QISQACHA IZOHLI**

## LUG‘ATI

**Abro‘** *forscha* qosh

Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldum nishon,

Bir kamon **abro‘da** tuzlukdin nishone topmadim. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)

**Avj** *arabcha* yuqori, yuksak, baland; saodat avji – quyosh, oftob.

Mehriga saodat avji matla’,

Ismat hullali yuziga burqa’. (“Layli va Majnun”)

**Avroq** *arabcha* *birligi* varaq sahifalar, varaqlar.

Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,

Dilovarliq silohi mayli qildi. (“Farhod va Shirin”)

**Aduv** *arabcha* yov, dushman, raqib.

Ko‘rguzub ixlos ishiga ixtisos,

Seni aduv domidin aylay xalos. (“Hayrat ul-abror”)



**Azm** *arabcha* niyat, istak; azm aylamoq – niyat qilmoq, istamoq.

Chunki farah bazmig‘a azm aylading,

Ayshu tarab azmig‘a jazm aylading. (“Hayrat ul-abror”)

**Aloxonu alomon** *arabcha* uy-joysiz, boshpanasiz; xonumonsiz, xonavayron; *majoziy* bechora, ilojsiz, faqir, miskin.

G‘am quyida xonumoni vayron mendek,

Ya‘niki alloxonu alomon mendek. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)

**Amvoj** *arabcha* birligi mavj; to‘lqinlar, mavjlar.

Tushti daryoda ul sifat oshub,

Ki suv amvoji bo‘ldi gardonko‘b. (“Sab‘ai sayyor”)

**Amin** *arabcha* ishonchli, vafoli, do‘st.

Dediki: - Mendin sanga yo‘q qasdu kin,

Emin o‘lu bil meni dog‘i amin. (“Hayrat ul-abror”)

**Anbarolud** *arabcha-forscha* qop-qora, xushbo‘y, xush hidli.

Gisusimu erdi anbarolud,

Yo chiqmish edi boshig'a ul dud. ("Layli va Majnun")

**Anvor** *arabcha birligi* nur; nurlar, yorug'lik.

Subh chu zohir qilib anvorini,

Har yon ochib lama'i ruxsorini. ("Hayrat ul-abror")

**Ashk** *forscha* yig'i, ko'z yoshi.

Kettilar boshlarin olib bu guruh,

Ko'z aro ashku jon aro anduh. ("Sab' ai sayyor")

**Baloshor** *arabcha-forscha* balo qozg'atuvchi, balodan g'ulg'ula soluvchi.

Dedi: oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?

Dedi: furqat kuni ishqi balo sho'r. ("Farhod va Shirin")

**Barq** *arabcha* yashin, chaqmoq.

Samandi olib barqdin tezlik,

O‘zi charxdin tavri xunrezlik. (“Saddi Iskandariy”)

**Basta** *forscha* bog‘liq, band, bog‘langan.

Necha sen bastan balosen,

Balolar bandi ichra muhtalosen. (“Farhod va Shirin”)

**Bahr** *arabcha* dengiz.

Andoq etsangki, bahrdin qutulub.

Yaman ahli sori ravona bo‘lub. (“Sab‘ai sayyor”)

**Bahrul-najot** *arabcha* najot dengizi.

Ariqqa qo‘ydilar “Nahr ul-hayot” ism!

Falakvash havzg‘a “Bahr ul-najot” ism. (“Farhod va Shirin”)

**Beandoza** *forscha* son-sanoqsiz, tartibsiz, cheki yo‘q, hisobsiz.

Hamul ilmi baland ovoza birla,

Bu yanglig‘ zo‘ri beandoza birla. (“Farhod va Shirin”)

**Bodafurush** *forscha* may sotuvchi, ichimlik sotib kun ko‘ruvchi, mayfurush.

Joning‘a navo soldiyu ko‘ngluma hurush,

Bir jur‘at bila mug‘bachchai bodafurush. (“Farhod va Shirin”)

**Varzish** *forscha* odat, mashq, mashg‘ulot, shug‘ullanish.

Toki saxo bo‘ldi kafing varzishi,

Ko‘rding ekinmu bir o‘zungdek kishi? (“Hayrat ul-abror”)

**Vasila** *arabcha* vosita, yo‘l, sabab, bahona, bois.

Teshib el kemasini hiyla bila,

G‘arq etib suvg‘a bu vasila bila. (“Sab‘ai sayyor”)

**Vafokesh** *arabcha-forscha* vafoli, vafodor, sodiq.

Kim yondi chu Navfali vafokesh,

Layli eli bo‘ldi fikratandesh. (“Layli va Majnun”)

**Vollohu a'lam** *arabcha* xudo biladi.

Chu bo'lsang holima ogohu a'lam,

Jaovbin ham yibar, vallohu a'lam. ("Farhod va Shirin")

**Vuquf** *arabcha* voqiflik, xabardorlik, bilishlik.

Yo'lda bir vodi erdi asru maxuf.

Qilmay andin murur ahli vuquf. ("Sab'ai sayyor")

**Gadoliq'** tilanchilik, gadoylik.

Ul poyada ajzu benavoliq,

Kim ro'zi uchun qilib gadoliq. ("Layli va Majnun")

**Gazand** *forscha* 1. zarar, ziyon, zahmat.

Nogah yo'luqti dardmande.

Yetgan anga dahrdin gazande. ("Layli va Majnun")

2. jarohat.

Topib erdi bir shoh qaydida band,

Yetib erdi bolu parig‘a gazand. (“Saddi Iskandariy”)

**Ganj** *forscha* oltin, kumush va boshqa shu kabi qimmatbaho narsalar.

Dedi: ol ganju qo‘y mehrini nihoniy,

Dedi: tuproqqa bermon kimyoni. (“Farhod va Shirin”)

**Gardana** *forscha* aylanuvchi, charx uruvchi.

Ne girdobkim, charxi gardandadek,

Ne igrim, sipehri navardandadek. (“Saddi Iskandariy”)

**Gardunko‘b** *forscha* ko‘kka ko‘tarilgan, ko‘kka ulashgan.

Tushti daryoda ul sifat oshub,

Ki suv amvoji bo‘ldi gardunko‘b. (“Sab‘ai sayyor”)

**Girih** *forscha* majoziy tashvish, azob-uqubat; bastalik, to‘sqinlik (aynan tugun).

Kim charx ne ish boshingg'a soldi,

Kim bo'yla girih qoshingg'a soldi. ("Layli va Majnun")

**Guzar qilmoq** - o'tmoq, bormoq.

Dasht aro go'yoki xabar bilmading,

Hotam uyi sori guzar qilmading. ("Hayrat ul-abror")

**Gumroh** *forscha* yo'ldan adashgan, yo'lini yo'qotgan; *majoziy* yo'ldan ozgan, gunohkor.

Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah?

Dedi: majnun vatandin qayda ogah. ("Farhod va Shirin")

**Gurza** *forscha* to'qmoq shaklidagi ish va harbiy qurol; to'qmoq.

Necha gurza, necha sunboda aylab,

Kamar qozmoq ishin omoda aylab. ("Farhod va Shirin")

**Davot** *arabcha* siyohdon.

Layli tilabon davoti xoma,

Filhol muharrir etti noma. (“Layli va Majnun”)

**Yoro** kuch, quvvat, mador, iloj.

Ichimda bo‘lsa yuz o‘t oshkoro,

Nafas dudin urarg‘a qayda yoro? (“Farhod va Shirin”)

**Jayon** *forscha* yovuz, vahshiy, g‘azabli, qahrli; sheri jayon – yovuz, vahshiy arslon.

Bor edi durroj o‘shul beshada,

Sheri jayon vahshidin andeshada. (“Hayrat ul-abror”)

**Jazoyir** *arabcha* suv o‘rtasidagi quruqlik, orol.

Aylabon razmu kiyna izhori,

Kelsa Jobir jazoyiri sori. (“Sab‘ai sayyor”)

**Jayb** *arabcha* bo‘yin, tomoq.

Gul etti chiqib jilva oyin yana,



Tikib jaybig‘a nofai Chin yana. (“Saddi Iskandariy”)

**Jahdu sur‘at** – tez sur‘at, chaqqon harakat.

Jahdu sur‘at aro tay aylab arz,

Holatim aylasang Suhaylg‘a arz. (“Sab‘ai sayyor”)

**Jirm arabcha** jism; **quyosh jirmi** – quyosh planetasi.

Toki quyosh jirmi bo‘lib nurposh,

Mahfili ayshingda bu yanglig‘ maosh. (“Hayrat ul-abror”)

**Jihot arabcha** narsalar, buyumlar.

Ham naqding uchun evazdur otim,

Ham o‘zga jihotingg‘a jhotim. (“Layli va Majnun”)

**Jom forscha** qadah, piyola, maykosa.

Jom bu ahvolingg‘a qon yig‘labon,

Sham‘ kuyub, ashkfishon yig‘labon. (“Hayrat ul-abror”)

**Joh** *forscha* amal, mansab, martaba, daraja.

Shoh mendin ishq aro ojizroq ersa tong emas,

Kim, balokashlik mening xo‘yimdur, oning – izzu joh. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)

**Zabun** *forscha* zaif, notavon, bechorahol, nochor, ojiz.

Shayndag‘i qoplondin agarchi fuzun,

Nafs itining ilgida lekin zabun. (“Hayrat ul-abror”)

**Zavraq** *arabcha* kema, qayiq.

Men bu zavraqni suvg‘a to surdum,

Ming seningdekni suvda o‘lturdum. (“Sab‘ai sayyor”)

**Za‘f** *arabcha* darmonsizlik, bemajollik.

Ne erkanini chu bildi Majnun,

Za‘f etganidin yiqildi Majnun. (“Layli va Majnun”)

**Zulmpesha** *arabcha-forscha* zulm qiluvchi.

Ne bo‘lg‘ay erdi charxi zulmpesha.

Meni sendin judo qilmay hamesha. (“Farhod va Shirin”)

**Igrim** uyurim, girdob, suvning aylanib oqishi.

Ne girdobkim, charxi gardondadek,

Ne igrim, sipehri navardandek. (“Saddi Iskandariy”)

**Idg‘om** *arabcha* qo‘shish, biriktirish.

Dedikim: Ayo guzini ayyom,

Ishq oyati ichra harfi idg‘om. (“Layli va Majnun”)

**Ilhon** *arabcha* sayrash, kuylash, xonish qilish.

Sher eshitib aning ilhonini,

Fahm qilib savtida yolg‘onini. (“Hayrat ul-abror”)

**Intiqom** *arabcha* o‘ch, qasd, qasos.

‘Imoq o‘lmas xalos domigdin,

Bo‘lmog‘im emin intiqomingdin. (“Sab‘ai sayyor”)

**Ismat** *arabcha* poklik, pokizalik, iffat.

Mehriga saodat avji matla‘,

Ismat hullali yuziga burqa‘. (“Layli va Majnun”)

**Istig‘for** *arabcha* tavba qilish; afv so‘rash, kechirim so‘rash.

Dedi: bu ishqdin inkor qilg‘il!

Dedi: bu so‘zdin istig‘for qilg‘il! (“Farhod va Shirin”)

**Kabk** *forscha* kaklik.

Qahqahadin kabk navo kelturub,

Boshig‘a ul kulgu balo kelturub. (“Hayrat ul-abror”)

**Kajrav** *forscha* egri yuruvchi, egri yo‘lga kirib ketgan, ko‘ngli nopok.

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,

Kajrav esa charx ne andeshasi. (“Hayrat ul-abror”)

**Kamand** *forscha* sirtmoq, sirtmoqli arqon.

Nayza bo‘lub tuzlugidin sarbaland,

Chirmosh uchun bandg‘a qolib kamand. (“Hayrat ul-abror”)

**Kamol** *arabcha* to‘liq, mukammal, yetuk.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,

Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)

**Kanora** *forscha* cheku chegara, haddu hisob.

Ne o‘rdusig‘a bor edi kanora,

Ne ul o‘rduning ahlig‘a shumora. (“Farhod va Shirin”)

**Kizb** *arabcha* yolg‘on, o‘tirik, aldash.

Kimki o‘zi ayladi yolg‘on so‘zin,

Kizb der el, chin desa qolg'on so'zin. ("Hayrat ul-abror")

**Kiromand** *arabcha- forscha* ulug'vor, izzatli.

Ko'p uzr qilib so'ziga payvand.

Naqdina base topib kiromand. ("Layli va Majnun")

**Kom** *forscha* maqsad, murod, orzu, istak.

Ham kom topar ikki dilorom,

O'rtada dag'i menga yetar kom. ("Layli va Majnun")

**Komron** *forscha* maqsadiga erishgan, baxtli, baxtiyor, omadli.

Kim agar banddin xalos o'lg'ung,

Bir shahi komrong'a xos o'lg'ung. ("Sab'ai sayyor")

**Ko'lok** *forscha* to'lqin, bo'ron; qattiq shamol.

Andakim Mehr kemasin ko'lok,

Surdi bahr ichra o'ylakim xoshok. ("Sab'ai sayyor")

**Ko‘hun** *forscha* kekxa, qari.

Nahange durur solxo‘rdu ko‘xun,

Bu daryog‘a sayr aylagan avju bun. (“Saddi Iskandariy”)

**Layl** *arabcha* kechqurun; **layl-u nahor** – erta-yu kech (*aynan* kechu erta).

G‘amu dard erur ,emda laylu nahor,

Va lekin chu esti nasimi bahor. (“Saddi Iskandariy”)

**Lam‘a** *arabcha* ravshanlik, yorug‘lik.

Subh chu zohir qilib anvorini,

Har yon ochib lam‘ai ruxsorini. (“Hayrat ul-abror”)

**Mavquf bo‘lmoq** – qarab turmoq, intizor bo‘lmoq, kutmoq.

Dedi: Mavquf bo‘lmayin nimaga,

Ko‘zini bog‘labon soling kemaga. (“Sab‘ai sayyor”)

**Majnun** *arabcha* jinni, devona.

Dedi: qaydin sen, ey majnuni gumrah?

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah. (“Farhod va Shirin”)

**Maks** *arabcha* kutish, mahtal turish; to‘xtash.

Bot bo‘lki, harif muntazirdur,

Bu amrda maks bas muzirdur. (“Layli va Majnun”)

**Mansuba** *arabcha* hiylayu tadbir, chora.

Bal haqiqat aro aningdur Mehr,

Ki, bu mansuba zohir etti sipehr. (“Sab’ai sayyor”)

**Marqad** *arabcha* majoziy qabr, go‘r, mozor.

Xishtini masjid buzubon kelturub,

Toshini el marqadidin yetkurub. (“Hayrat ul-abror”)

**Maxuf** *arabcha* qo‘rqinchli, xavfli, vahimali.



Yo‘lda bir vodi erdi asru maxuf,  
Qilmay andin murur ahli vuquf. (“Sab’ai sayyor”)

**Mahal** *arabcha* o‘rin, joy, makon.

Berdi malloh alarg‘a bir sandal,  
Ki bor erdi hamul ikovga mahal. (“Sab’ai sayyor”)


**Mahlul** *arabcha* eritilgan.

Siymi mahluldek suyi tobi,  
Jo‘shida iztirobi siymobiy. (“Sab’ai sayyor”)

**Mahfil** *arabcha* 1. yig‘in, majlis, anjuman.

Roy ko‘p urdilar tuzub mahfil,  
Shahsiz o‘lsa sipoh, yo‘q hosil. (“Sab’ai sayyor”)

2. bazm, ko‘ngilxushlik yig‘ini.



«Сокровищница  
мыслей» — страница  
поэтического свода Алишера  
Навои. Манускрипт из  
библиотеки Сулеймана  
Великолепного

Toki quyosh jirmi bo‘lib nurposh,

Mahfili ayshingda bu yanglig‘ maosh. (“Hayrat ul-abror”)

**Mushtahi** *arabcha* orzu va istak bildirish, xohlash, ishtahaga mayl qilish.

Anda tuzub masnadi shohanshahi,

Ayshu tarab jomi uchun mushtahi. (“Hayrat ul-abror”)

**Muhriq** *arabcha* kuydiruvchi, yondiruvchi, o‘rtovchi.

Nadomat chiqarsa falak uzra dud,

Chu me‘da o‘ti muhriq erdi, ne sud? (“Saddi Iskandariy”)

**Navras** *forscha* yangi o‘sgan, yangi ko‘kargan.

Men bore dim ul niholi navras,

Yo‘q shoxima xoru tegrana xas. (“Layli va Majnun”)

**Nazm** *arabcha* 1. tartib, qoida, intizom; 2. She‘riyat; kitob nazm qilmoq – she‘riy kitob yozmoq, she‘riy asarni tartibga keltirmoq.

Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur. (“Xusrav va Shirin”)

**Naxli tarin** – *majoziy* ko‘karib turgan daraxt.

Boqmasa dehqon chamanin tunu kun,

Naxli tarin angla qurug‘on o‘tun. (“Hayrat ul-abror”)

**Nahr ul-hayot** *arabcha* hayot daryosi.

Ariqqa qo‘ydilar, “Nahr ul-hayot” ism. (“Farhod va Shirin”)

**Nisheman** *forscha* yashash, makon qurish; maskan.

Kelib sarzanish qildi bir zog‘ anga,

Kim erdi nisheman hamul bog‘ anga. (“Saddi Iskandariy”)

**Noguzir** *forscha* ilojsiz, noiloj.

Ul zoru zaifi noguzirim,

Kim bordur ul mening asirim. (“Layli va Majnun”)

**Nurposh** *arabcha-forscha* nur sochish, yog‘du berish, nur taratish.

Toki quyosh jirmi bo‘lub nurposh,

Mahfili ayshingda bu yanglig‘ maosh. (“Hayrat ul-abror”)

**Ovuch** hovuch; *majoziy* shapaloq.

Fard kishi davrda topmas navo,

Yolg‘uz ovuchdin kim eshitmish sado? (“Hayrat ul-abror”)

**Oyini vafo** – vafo odati.

Oyini vafo shioring o‘lsun,

Bor emdiki, tangri yoring o‘lsun. (“Layli va Majnun”)

**Oshyon** *forscha* in, uya; maskan, turar joy.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)

**Oyat** *arabcha* belgi, nishon, alomat.

Dedikim: “Ayo guzini ayyom,

Ishq oyati ichra harfi idg‘om. (“Layli va Majnun”)

**Padidor** *forscha* ko‘ringan, paydo bo‘lgan; **padidor bo‘lmoq** – ko‘rinmoq.

Bu holatda chayqaldi daryoli jarf,

Padidor bo‘ldi nahangi shigarf. (“Saddi Iskandariy”)

**Payom** *forscha* xabar, darak, ma’lumot.

Ne til bila de, yetur salomim,

Yo bo‘ylavu bo‘yla de payomim. (“Layli va Majnun”)

**Pech** *forscha* egilgan, xam, kaj; **pechu tob** – *majoziy* azob, ranj, alam, iztirob.

Gisu kibi pechu tob topti,

Tob ichra o‘zin xarob topti. (“Layli va Majnun”)

**Pomol** *forscha* xarob, nobud; oyoq osti.

Jonim eshigida ayla pomol,

Ko‘nglumni itining olig‘a sol. (“Layli va Majnun”)

**Po‘ya** *forscha* yugurish, yelish, chopish; tez sur‘at; tez sur‘at, tezkorlik, shoshilishlik.

Ey po‘yada markabingg‘a ta’jil,

Olingda haqir payki Jabrail. (“Layli va Majnun”)

**Ravon** *forscha* 1. yuruvchi, o‘tuvchi, ketuvchi.

Ul dashtdin etdilar ravon ko‘ch,

Qilg‘on kibi hajga karvon ko‘ch. (“Layli va Majnun”)

2. tez, jadal, shoshilinch.

Ravon, e Qutb, tarkin kech bo‘lur bil,

Ne bilgaylar seni, so‘zlatmasang til. (“Xusrav va Shirin”)

**Ramidadilliq** qo‘rqoqlik, qo‘rqoq ko‘ngillik, hurkaklik, yuraksizlik.

Ko‘p bo‘yla qilib ramidadilliq,

O'pti oyog'in tilab bihilliq. ("Layli va Majnun")

**Riyoh** *arabcha* birligi riyh – shamol, yel; hid.

Soldi aning riyohi idbori,

Har kishi kelmasini bor sori. ("Sab'ai sayyor")

**Roy** *arabcha* fikr; tadbir, reja.

Roy ko'p urdilar tuzub mahfil,

Shahsiz o'lsa sipoh yo'q hosil. ("Sab'ai sayyor")

**Roh** *forscha* yo'l; **roh chekmak** – yo'l olmoq.

Oramg'a saddu roh chekti,

Layli eliga sipoh chekti. ("Layli va Majnun")

**Ro'zi o'lmoq** – erishmoq, amalga oshmoq.

Ki chekilgay bu intiqom oxir,

Ro'zi o'lg'ay bu nav' kom oxir. ("Sab'ai sayyor")

**Saddi roh chekmak** – yoʻlni toʻsmoq.

Orazmgʻa saddi roh chekti,

Layli eliga sipoh chekti. (“Layli va Majnun”)

**Samum arabcha** halokatli issiq shamol, qattiq garmsel.

Chun Buxoru ufun hujum aylab,

Iysi anfosiyini samum aylab. (“Sabʻai sayyor”)

**Sarbaland forscha** yuqori martabali, fahrli.

Nayza boʻlub tuzlugidin sarbaland,

Chirmosh uchun bandgʻa qolib kamand. (“Hayrat ul-abror”)

**Sarzanish forscha** taʻna, malomat, sazo.

Kelib sarzanish qildi bir zogʻ anga,

Kim erdi nisheman hamul bogʻ anga. (“Saddi Iskandariy”)



**Sidq** *arabcha* to‘g‘rilik, rostlik.

Har nechakim rost fig‘on ayladi,

Sidqini ham kizb gumon ayladi. (“Hayrat ul-abror”)

**Siymi mahlul** – eritilgan kumush.

Siymi mahluldek suyi tobi,

Jo‘shida iztirobi siymobiy. (“Sab‘ai sayyor”)

**Sipehr** *arabcha* osmon, falak.

Andoq aro yerda ayon bo‘ldi mehr,

Ki hasad eltur edi andin sipehr. (“Hayrat ul-abror”)

**Sukun** *arabcha* tinchlik, osoyishtalik.

Xiroming chog‘i yo‘ldosh o‘lsam erdi,

Sukuning vaqti qo‘ldosh o‘lsam erdi. (“Farhod va Shirin”)

**Sursuh** *forscha* xushxabar keltiruvchi farishta, Jabroil.

Jon dardig‘a chora kush sensen,

Odam demayin, surush sensen. (“Layli va Majnun”)

**Taallum** *arabcha* o‘qish, ta’lim, tahsil.

Itga taallumda chu bo‘ldi kamol,

Sayd aning og‘zidin o‘ldi halol. (“Hayrat ul-abror”)

**Taarruz** *arabcha* qarshilik, monelik.

Taarruz ayladi bir necha izhor,

Debonkim: “Bu nechuk so‘zdur, nechuk kor?” (“Sab’ai sayyor”)

**Tanura** *forscha* temirchilar tutadigan lungi, fartuk.

Temurchidin tilab dam birla ko‘ra,

Beliga bog‘labon charmni tanura. (“Farhod va Shirin”)

**Tafrit** *arabcha* sustkashlik, biror narsaga sustlik bilan qarash.

Anda tafritu anda bu ifrot,

El hissu aqlini qilur isqot. (“Sab’ ai sayyor”)

**Tifl** *arabcha* go‘dak, yosh bola.

Mehr ila zajriki tavaqqu’ durur,

Tiflg‘a sendin bu tavozu’ durur. (“Hayrat ul-abror”)

**Toziyona** *forscha* qamchi; toziyona chekmak – qamchi urmoq, qamchilamoq.

Bu oncha emas ediki yona,

Chektilar ikovla toziyona. (“Layli va Majnun”)

**Tuzluk** to‘g‘rilik, rostgo‘lik, halollik.

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,

Kajrav esa charx, ne andeshasi. (“Hayrat ul-abror”)

**To‘sha** *forscha* oziq-ovqat, yeyimlik narsalar.

Tutmoq mutaazzir erdi go‘sha,

Anbonchada har ne erdi to‘sha. (“Layli va Majnun”)

**Uqda** *arabcha* basirlik; *majoziy* qiyinchilik.

Ul zuhalvash jazoga xos o‘lg‘ay,

Mehr ham uqdadin xalos o‘lg‘ay. (“Sab‘ai sayyor”)

**Falakvash** *arabcha-forscha* osmon singari, osmon monand.

Ariqqa qo‘ydilar “Nahr ul-hayot” ism,

Falakvash havzg‘a “Bahr un-najot” ism. (“Farhod va Shirin”)

**Farxundapay** *forscha* qutlug‘ qadam, muborak qadam.

Qilib sa‘y ila tayri farxundapay,

Necha kunchalik yo‘lni bir damda tay. (“Saddi Iskandariy”)

**Firdavs** *arabcha* jannat, behisht.

Qasrki, bazm anda muhayyo bo‘lub,

Ziynati firdavs muallo bo‘lub. (“Hayrat ul-abror”)

**Xazro** *arabcha* yashil, ko'kimtir.

Rangi aning sipehri xazrodek,

Hay'atu davri charxi miynodek. ("Sab'ai sayyor")

**Xarosh** *forscha* 1. yo'nish, tarashkash, qirqish.

Kesib har teshasi qilg'ach xaroshi,

Falak pili yukidek pora toshi. ("Farhod va Shirin")

2. *majoziy* tashvish, azob, ozor.

Ayog' sunsang bo'lib g'amdin xaroshing,

Mudom o'lsam edi qo'ynumda boshing. ("Farhod va Shirin")

**Xunrezlik** qon to'kishlik, qirg'in.

Samandi olib barqdin tezlik,

O'zi charxdin tavri xunrezlik. ("Saddi Iskandariy")

**Xurda** *forscha* majoziy sir (*aynan* mayda, kichkina).

Tab' ganjiddin maoni xursadin, yuz qatla hayf... ("G'aroyib us-sig'ar")

**Choker** *forscha* xizmatkor, malay, navkar.

Bu vaqtni Navfali jafogar,

Majnung'a bo'lub muti-u choker. ("Layli va Majnun")

**Shajar** *arabcha* daraxt; shajari musmir – mevali daraxt.

Bo'ldi raiyat galavu, sen-shubon,

Ul shajari musmiru, sen bog'bon. ("Hayrat ul-abror")

**Shamsa** *arabcha* imorat, bino, qubba, gumbazlarning zarli kungurasi.

Shamsan el moli bila zarnigor,

El duru la'li bila gavharnigor. ("Hayrat ul-abror")

**Shigof** *forscha* yoriq, darz, chok, teshik.

Qilichi zarbasi oldinda har marz,

Shigof andoqqi suvdin yer ado darz. (“Farhod va Shirin”)

**Shukuh** *arabcha* kuch,quvvat; haybat, savlat.

Savole aylab olmay kimsa bir so‘z,

Shukuhidin tikib bori anga ko‘z. (“Sab’ai sayyor”)

**Shuqqa** *arabcha* latta, mato, gazlama.

Tutub chin-bachin qo‘lda pechon kamand,

Osib xuydidin shuqqa chiniy parand. (“Saddi Iskandariy”)

**Yazdoniy** xudoga oid, ollohga tegishli.

Yozib ul noma ichra pinhoni:

“Ki bu bo‘lmish qazoyi yazdoniy”. (“Sab’ai sayyor”)

**O‘lmoq** bo‘lmoq

Ul evlarga tugaguncha ichu tosh,

ham o‘ldi xorabur, ham o‘ldi naqqosh. (“Farhod va Shirin”)

**Qaviy arabcha** zo‘r, kuchli, baquvvat.

Eyki qavay ayladi davlat qo‘lung,

Zulm sori tushti va lekin yo‘lung. (“Hayrat ul-abror”)

**Qarib arabcha** yaqin.

Yo‘l necha tuz, yo‘lchig‘a maqsad qarib,

Hamlig‘idin tushsa yiroq yo‘q ajib. (“Hayrat ul-abror”)

**Qobsomoq** o‘rab olmoq, qamal qilmoq.

Necha kundan so‘ng o‘lg‘ay imkoni,

Qobsomoq bu ikki cherik oni. (“Sab‘ai sayyor”)

**G‘amnok arabcha-forscha** boy, badavlat.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,

Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq. (“G‘aroyib us-sig‘ar”)



**G‘ino** *arabcha* kuy, ohang, musiqa; **ahli g‘ino** – sozandayu -xonandalar.

Bazmda soqiylar o‘lub jilvosozi,

Ahli g‘ino har sori dostonnavoz. (“Hayrat ul-abror”)

**Halal** *arabcha* joy, o‘rin; mahalla.

Ki vayronlig‘larida yuz halaldur,

Agar qilsam madad, voqe‘ mahaldur. (“Farhod va Shirin”)

**Hangomabar** *forscha* gap yetkazuvchi, fikr eltuvchi.

Eshittimki bir toyiri nomabar,

Bitik zimmida sharhi hangomabar. (“Saddi Iskandariy”)

## **MAVZU: ALISHER NAVOIYNING ADABIY MEROSI**

### **(1 SOATLIK DARS ISHLANMASI)**

#### **Dars shiori:**

Umidim uldur va xayoling‘a andoq kelurkim, so‘zum martabasi avjdin kuyi  
inmagay va bu tartibim kavkabasi a‘lo darajadin o‘zga yerni beganmagay.

Alisher NAVOIY.

### **Dars maqsadi:**

1. **Ta'limiy:** A.Navoiy adabiy va ilmiy merosining ilm-fan, madaniyatimiz taraqqiyotidagi o'rnini va ahamiyatini tushuntirish.
2. **Tarbiyaviy:** O'quvchilarni milliy qadriyatlarni ulug'lash, vatanparvarlik, xalqparvarlik va fidokorlik ruhida tarbiyalash; ularga o'z tariximiz bilan faxrlanish tuyg'usini singdirish.
3. **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish va xulosa chiqarishga o'rgatish.
4. **Kasbga yo'naltiruvchi:** Texnik xodimning ma'naviy qiyofasini shakllantirish.

**Dars turi:** Amaliy-ijodiy mashg'ulot. Fanlararo integratsiya. (Binar uslub)

**Dars uslubi:** Noan'anaviy dars. "Tarmoqlar" (Klaster) texnologiyasini qo'llash. Kichik guruhlarda ishlash. "Zakovat" o'yini.

**Darsning ko'rgazmaliligi:** shoir portreti, kompyuter, multimedia, magnitafon, televizor, krossvordlar, darslik va majmua.

### **Darsning tarkibiy tuzilishi (rejasi):**

1. Tashkiliy qism. 5 daqiqa.
2. Alisher Navoiy to'g'risidagi badiiy-publisistik filmdan lavha namoyishi. 5daqiqa.
3. Dars shiorini sharhlash ("Aqliy hujum"). 10 daqiqa.
4. Shoir hikmatlaridan namunalar. 10 daqiqa.
5. Kichik guruhlarda ishlash. ("Tarmoqlar"). 20 daqiqa.
6. "Zakovat" o'yini.
7. a) krossvord 10 daqiqa  
b) muvashshah
7. O'quvchilar bilimini baholash. 5 daqiqa.
8. Uyga vazifa. 5 daqiqa.

9. Xulosa. 10 daqiqa.

**Darsning borishi:**

Darsning asosiy qismida Alisher Navoiy to‘g‘risidagi badiiy-publisistik filmdan lavha namoyish etiladi. Shoirning:

**Istanglar, bizni sahroyi baloda istangiz**

deb boshlanuvchi g‘azali o‘qiladi.

O‘quvchilarning diqqat-e’tibori dars shioriga qaratiladi. (Shior proektor orqali namoyish etiladi).

O‘quvchilardan biri shoirning faxriya so‘zlarini ifodali o‘qiydi va sharhlaydi.

**Savol:** A.Navoiyning o‘z ijodidan faxrlanib aytgan ushbu so‘zlarini hozirgi o‘zbek tili me’yorlariga ko‘ra qanday ifodalagan bo‘lar edingiz?

**Javob:** “Umid qilamanki, soz‘larim hamisha izzat-e’tibor topadi va yaratgan asarlarimning nuri porloq yulduz kabi so‘nmaydi”.

**Savol:** Misralarda hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun me’yor hisoblanmaydigan qanday holatlarni ko‘ryapsiz?

**Javob:** a) ayrim grammatik shakllar:

Uldur, xayolimg‘a, andoq, kelurkim, so‘zum, avjdin, inmagay

b) ayrim so‘zlar:

Inmoq – yuqoridan pastga tushmoq

Kavkaba – yulduz, porloqlik

Beganmoq – maqbul topmoq, yoqtirmoq.

**Savol:** Alisher Navoiyning yuqoridagi faxriyasi buyuk shoirning qaysi asarida keltirilgan?

**Javob:** “Muhokamat ul-lug‘atayn”.

Proektor orqali A.Navoiyning hikmatlaridan namunalar namoyish qilinadi:

\* \* \*

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,

Bilki, bu naf’ o‘zunga ko‘prakdurur.

\* \* \*

Erursen sen shoh – agar ogohsen sen,

Agar ogohsen-sen – shohsen-sen.

\* \* \*

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsen – o‘zingdin istagil

va hokazo.

O‘quvchilar hikmatlarni o‘qib izohlaydilar.


Kichik guruhlarda ishlash (“Tarmoqlar” texnologiyasi).

O‘quvchilar 4 ta kichik guruhga bo‘linadi. Har bir guruh o‘ziga nom tanlaydi:

1-guruh-“Talab”

2-guruh-“Ma’rifat”

3-guruh-“Ishq”



#### 4-guruh-“Istig‘no”

Sardorlar saylanadi. O‘yin shartlari tushuntiriladi. U quyidagicha: har bir kichik guruhga alohida topshiriq beriladi. O‘quvchilar A-4 **o‘lchamdagi** qog‘ozlarga topshiriq javoblarini tarmoqlarga ajratilgan tarzda kiritadilar.

Magnitafonda A.Navoiyning “Qaro ko‘zim” g‘azaliga bastalangan ashula yangraydi. Qo‘shiq tugashi bilan topshiriq uchun ajratilgan vaqt ham nihoyasiga yetadi.

Eslatma: O‘qituvchi ma’lumotlarni qay tarzda tarmoqlarga ajratib yozish mumkinligini doskaga ko‘rsatib berishi maqsadga muvofiqdir.

“Talab” guruhi uchun topshiriq: “A.Navoiyning ilmiy merosi”.

- A.Navoiyning ilmiy asarlarini sanang.
- Asarlar mavzusini ko‘rsating va guruhlarga ajrating.
- Asarlar yaratilgan yillarni ko‘rsating.

“Ishq” guruhi uchun topshiriq: A.Navoiyning “Xamsa” asari.

- Dostonlarning nomini tartib bilan sanang.
- Dostonlarning hajmi va ular aruzning qaysi vaznida yozilgan?
- Har bir dostonning asosiy mavzusi va g‘oyasi.

“Ma’rifat” guruhi uchun topshiriq; “A.Navoiyning lirik merosi”.

- Shoir devonlarining nomi.
- “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan she’rlarning janrlari va ular devonlar bo‘yicha qanday tartibda taqsimlangan?
- Har bir janrda yozilgan she’rlarning miqdori.

“Istig‘no” guruhi uchun topshiriq: A.Navoiy va uning zamondoshlari.

- A.Navoiyning ustozlari, do‘stlari, shogirdlari hamda unga homiylik qilgan siymolar.

- Ular haqida nimalarni bilasiz?

- Ularning asarlarini sanang.

Ashula tugagach, har bir guruh sardori o'z guruhi bajargan topshiriq javoblarini aytadi. Boshqa guruh a'zolari, agar xatolar bo'lsa to'g'irlaydilar.

“Zakovat” o'yini.

Barcha guruhlariga “Alisher Navoiy asarlari nomini toping” deb nomlanuvchi krossvord yechish taklif qilinadi. Har bir guruhdan 2 vakil krossvord topshiriqlarini kompyuterda yechadi. 2 o'quvchi qog'ozda bajaradi.

Eslatma: magnitofonda qo'shiq eshittiriladi. Qo'shiq tugagach, guruhlar navbatma-navbat krossvorddan shoirning nechta asari nomini topa olganlarini aytadilar. Qaysi guruh ko'proq asar nomini topgan bo'lsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

O'yinning asosiy maqsadi: tezkorlik va bilimdonlik.

Qo'shimcha topshiriq: O'quvchilarga “Muvashshah” o'yini taklif etiladi.

A – “Arbain”, “Anbiyolar va hakimlar tarixi”.

L – “Lison ut-tayr”, “Layli va Majnun”.

I – “Ixlosiya”, ilk devon.

Sh – “Sher bilan Durroj”, “Shoh G'oziy hikoyati”, “Shifoifiya”.

E – “El desa menikim...”

R – “Risolai muammo”, Risolai tir andoxtan.

N – “Nasoyim ul-muhabbat”, “Navodur ush-shabob”, “Nazm ul-javohir”, “Navodir un-nihoya”, “Nizomiya”.

A – “Ajam – xalqlari tarixi”.

V – “Vaqfiya”.

O – “Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh...”

I – “Ikki vafoli yor hikoyati”.

Y – “Yetti sayyora”.

O‘quvchilar bilimni baholash. O‘quvchilarning dars davomida bergan javoblari, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan topshiriqlar uchun qo‘yilgan baholar e‘lon qilinadi.

**O‘qituvchi dars davomida Alisher Navoiy ijodi to‘g‘risida aytilgan fikrlarga xulosa yasaydi.**

- Ulug‘ shoir va davlat arbobi, buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiy biz uchun faqat o‘lmas she‘rlar va nasriy asarlari bilangina emas, balki o‘zining mazmundor faoliyati, el-yurtga fidokorona xizmat etish namunasi, oqil tadbirkorligi, ilm-fan homiysi sifatida ham hamisha o‘rnak bo‘la oladi. A.Navoiy olim sifatida juda ko‘p fanlarni, ayniqsa matematika, astronomiya, tarixni yaxshi bilgan va ularning ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. O‘rta asr sharq adabiyotining allomasi Ibn Sinoni “Hayrat ul - abror” asarida aql ramzi – “Bu – Aliyi fikrat deb ulug‘laydi. Haqiqat tilsimlaridan ogohlik istagan inson fikr – hadis tafsir ilmlarini albatta o‘zlashtirish zarur. Bu uch ilm boshqa sohalar tilsimiga kalitdir va ular idrokiga yo‘l ochadi. Ammo – Navoiy bu uch ma‘naviy ilmni mukammal o‘zlashtirish va unga amal qilish uchun bir jismoniy ilmni ham o‘rganish zarurligidan saboq beradi. Bu badiiyat ilmidir.

**Uyga vazifa: Alisher Navoiyni ulug‘lab yozilgan she‘rlardan yod olish.**

*Fan:* ADABIYOT

*Mavzu:* **ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA  
IJODI. NAVOIY LIRIKASI**

*Mashg‘ulot vaqti:*

80 daqiqa

<i>Mashg'ulot o'tish joyi:</i>	nazariy mashg'ulot xonasi
<i>Mashg'ulot turi:</i>	nazariy, amaliy
<i>Mashg'ulotni o'qitish usuli:</i>	"Qor koptok", "Aqliy hujum"
<i>Mashg'ulot ko'rinishi:</i>	O'quvchilarning bilimini baholash va yangi bilimlar berish

## **DARS MAQSADI**

### ***I. Darsning o'quv maqsadi:***

- O'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida, buyuk o'zbek mutafakkiri, o'zbek tili va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan alloma Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida to'liqroq ma'lumot berish, uning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi, asarlari bilan tanishtirish, lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini asarlari misolida tushuntirish

### ***II. Tarbiyaviy maqsadi:***

- O'quvchilarning ma'naviy, aqliy tomondan sog'lom o'sishini shakllantirish;
- Alisher Navoiyning hayot yo'li misolida ilmga muhabbat, ajdodlarimizdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish;
- Buyuk allomalarga xos insoniy fazilatlar, axloqiy xususiyatlar ruhini shakllantirish;
- O'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoiylik, insonparvarlik fazilatlarini yanada oshirish;
- Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining tarbiyaviy ahamiyatini dars jarayoniga tadbiq qilish.

### ***III. Rivojlantiruvchi maqsad:***

- o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- o'quvchilarni kitob ustida ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga yo'naltirish;



- muammoli masalalar, test, so‘roq, tarqatmalardan foydalangan holda o‘quvchilar faolligini oshirish;
- o‘quvchilarning o‘rganilgan mavzulardan zaruriy fikrni ajrata olish malakasini oshirish.

#### ***IV. Fan kafedrasining maqsadi:***

- . Dars jarayonida noan’anaviy usullardan foydalanish;
- dars jarayonida zamonaviy o‘qitish usulini qo‘llash;
- akademik litsey moddiy-texnik bazasini boyitish (ko‘rgazmali qurollar, stend, mikrojadvallar, jadvallar, testlar, krossvordlar, tarqatmalar tayyorlash);
- tayyorlangan uslubiy ishlanmalardan dars jarayonida foydalanish.

#### ***V. G‘oyaviy maqsadi:***

- O‘quvchilarni bilim olishga, hayotda yashashga, tanlagan kasbini sevishga, o‘quv yurti sharafini himoya qilishga, milliy iftixor tuyg‘usini oshirishga yo‘naltirish.

### **DARS INTEGRATSIYASI**

#### **1.Darsning mavzulararo bog‘lanishi.**

***Mavzu:***"Mavlono Lutfiyning hayoti va ijodi"

"Adabiyot-so‘z san‘ati".

#### **2.Darsning fanlararo bog‘lanishi.** Sharq musiqasi tarixi.

Mavzu: "Musiqqa ilmiga hissa qo‘shgan olimlar". Musiqqa.

Mavzu:"O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tabiat haqidagi tasavvurlari"

O‘zbekiston tarixi.

Mavzu: "XIV-XV asrdagi ijtimoiy va madaniy hayot"

#### ***1. Tashkiliy qism .***

Navbatchi o'quvchilar dars boshlanishidan 10 daqiqa oldin kelib xonani mashg'ulotga tayyorlashadi. O'qituvchi darsga kirib, xonaning tozaligiga va o'quvchilarning tashqi kiyinishiga, o'quv qurollarining bor-yo'qligiga ahamiyat beradi. Navbatchi o'quvchining bildirishnomasi bilan darsga kelmaganlarni o'quv jurnaliga belgilaydi va nimaga kelmaganligini aniqlaydi.

## ***2. O'qituvchining kirish so'zi.***

O'qituvchi o'quvchilardan uyga berilgan vazifani aniqlaydi.

O'quvchilarda shu mavzu bo'yicha tushunmovchilik tug'dirgan savollar bor-yo'qligini aniqlab oladi va ular qiynalgan o'rinlarga yana alohida to'xtalib o'tadi. Ularni nazariy daftarlaridan uyga berilgan vazifani tekshirib, o'zining imzosini qo'yadi. O'qituvchi umumiy, yakka savollar, testlar, muammoli masalalar, krossvordlar berib ularni diqqatini o'ziga jalb etadi.

4. ***O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini baholash.*** O'tilgan mavzuni so'rashda noan'anaviy usullardan foydalanish
5. mumkin ("Qor koptok").....

## ***O'TGAN DARSDAGI MAVZU "MAVLONO LUTFIY IJODI"***

### ***BO'YICHA SAVOLLAR***

***1. Lutfiyning hayoti haqida nimalar yodingizda qoldi? Javob:*** Navoiyning ustozlari Mavlono Lutfiy adabiyotimizdagi yirik siymo. Mavlono so'zi-musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z. U Hirot yaqinidagi Dehikanor qishlog'ida 1366 yilda tug'ilib, 1465 yili shu yerda vafot etgan. Hazrat Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"ida "To'qson to'qqiz yoshida olamdin o'tdi. Qabri Dehikanordadir. O'z maskani erdi"- deb yozadi.

### ***2. Lutfiydan qanday ijodiy meros qolgan?***

*Javob:* Shoirdan bizga 2 ta devon yetib kelgan, ular ,asosan, gʻazal va qitʼalardan iborat. Shuningdek, u Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafanoma" asarining tarjimasini ham boshlab qoʻygan edi.

### **3. Alisher Navoiy Lutfiyga qanday baho bergan?**

*Javob:* Navoiy "Majolis un nafois"da shunday yozadi: "Mavlono Lutfiy oʻz zamonasining malikul kalomi erdi, ammo turkiyda shuhrati koʻprak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir...". Shuningdek u Mavlono Shahobiddin Xiyoboniydan yigitlik chogʻida tasavvuf ilmini oʻrgandi.

### **4. Lutfiyning mashhur sheʼrlaridan namunalar ayting.**

**Javob:**

Sensan sevarim xoh inon, xoh inonma,

Qondir jigarim xoh inon, xoh inonma.

### **3. Darsni hayot bilan bogʻlash.**

Oʻquvchilarga shu mavzuga oid hayotdan misollar keltirish orqali inson tafakkuri orqali egallangan bilimlar, kashfiyotlar asrlar osha xizmat qilishini koʻrsatish.

Alisher Navoiy oʻgitlarining bugungi kunda ham hayotiyiligini ahglatish.

### **5.Oʻtilgan mavzuni umumlashtirish:**

Oʻqituvchi oʻtilgan mavzu va uy vazifa yuzasidan oʻquvchilarga qoʻyilgan baholarni eʼlon qiladi, har bir oʻquvchining olgan baholarini izohlab beradi. Baholarni izohlash vaqtida oʻquvchilarning javoblarida kuzatilgan kamchiliklarni koʻrsatib oʻtadi. Oʻquvchilar tomonidan yaxshi oʻzlashtirilmagan qismlarni oʻqituvchi qayta tushuntirib beradi va oʻtilgan mavzuni umumlashtiradi. Yaxshi javob bermagan oʻquvchilarni yaxshi oʻqishga undaydi.

**DARSNING JIHOZLANISHI:**

### **Ko'rgazmali qurollar.**

1. *Jadval*: 1 "Alisher Navoiyning hayot yo'li" (xronologik jadval)  
2. "Alisher Navoiyning adabiy merosi" (xronologik jadval)

**2. Allomalarning portretlari:** Alisher Navoiy portreti


**3. Tarqatmalar:** savollar, muammoli masalalar, krossvordlar .

### **O'QITUVCHILAR UCHUN ADABIYOTLAR**

1. "Adabiyot" -B. To'xliyev. (Toshkent-2002 y)
  2. "Ona tili va adabiyoti" -A. Rafiyev, N. G'ulomova (Toshkent-2002)
  3. "O'zbek adabiyoti" (N. Mallaev)
  4. "Asarlar" Alisher Navoiy (O'n besh jildlik)
  5. "Navoiy lirikasi" -A. Hayitmetov (Toshkent) Metodik qo'llanmalar.
1. "Adabiyot fanidan ma'ruza matnlari majmuasi" -Sh. Sariyev (2002)

### **O'QUVCHILAR UCHUN ADABIYOTLAR**

1. "Adabiyot" -darslik (Toshkent- 2006 yil)
2. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. T.199



### **DARS VAQTINI REJALASNTIRISN**

<b>№</b>	<b>DARS STRUKTURASI</b>	<b>Daqiqa</b>
1.	Tashkiliy qism	5
2.	O'qituvchining kirish so'zi	5

3.	O‘tilgan mavzu yuzasidan savol- javoblar	25
4.	O‘tilgan mavzuni umumlashtirish	5
5.	Yangi mavzuni tushuntirish	25
6.	Yangi mavzuni mustahkamlash va umumlashtirish	10
7.	Darsni yakunlash va uyga vasifa	5

### ***6.Yangi mavzuni tushuntirish:***

Yangi mavzuni tushuntirishda o‘qituvchi mavzu nomini, rejasini doskaga yozib o‘quvchilarga reja asosida daftarga yozishni aytadi .Har bir stolga o‘quvchilar foydalanib yozishlari uchun ma’ruza matni (yoki tayanch konspekt) qo‘yiladi. O‘quvchilar daftarlariga konspekt yozayotganlarida Navoiy g‘azali bilan aytiladigan mumtoz qo‘shiqlardan qo‘yib qo‘yish mumkin.(magnitafon)

## **ALISHER NAVOIY**

### **MASHG‘ULOT REJASI:**

- 1.Alisher Navoiyning hayoti va ijodi.
- 2.Alisher Navoiyning adabiy merosi.
- 3.Alisher Navoiy lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 4.Shoir lirikasining badiiy qimmatini.

O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirishda jadvallar, tarqatmalardan foydalanadi.

"Bu ulug‘ amir davlat homiysi, hamda millatning pushti-panohidir".

**Davlatshoh Samarqandiy.**

"Undan avval va undan keyin hech kim turkiy tilda she’rni undan ko‘proq va undan yuksakroq yozolgan emas. U forsiy she’rni ham ko‘p yozgan..."

**(Muhammad Haydar Mirzo. "Tarixi Rashidiy"dan).**

Buyuk mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi, Bobur ta'biricha, "tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirotning Bog'i Davlatxona atalmish joyida dunyoga kelgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad (G'iyosidin Kichkina) temuriylar saroyidagi amaldorlardan, onasi Shayx Abu Said Changning qizi, tog'alari Mir Said Qobuliy va Muhammad G'aribiylar esa shoir bo'lganlar. Alisher 4-5 yoshlaridanoq Qosim Anvarning g'azallarini, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"("Qush nutqi")asarini berilib o'qiydi. 1447 yilda Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chib ketdi va 1451 yilda Hirotga qaytadi. Bo'lajak shoir 12 yoshida otasidan yetim qoladi va Xuroson podshohi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirdi. 1456 yilda Abulqosim Bobur o'z poytaxtini Hurosondan Mashhadga ko'chirgandan so'ng Alisher ham o'z do'sti Husayn Boyqaro bilan Mashhadga bordi. U yerda Alisher Kamol Turbatiy, Mavlono Abdussalom Sheroziy, Pahlavon Mahmud kabi yirik olim-u fozillar bilan tanishadi. 1464 yilda Navoiy Hirotga, 1466 yilda Samarqandga qaytadi. U 7-8 yoshlaridan boshlab she'rlar yoza boshlagan va 15 yoshida shoir sifatida tanilgan.

Turkiy she'riyatiga "Navoiy" ("navo"- kuy), forsha she'rlariga "Foniy" (o'tkinchi) taxalluslarini qo'llagan. 1469 yilda Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallaydi va maxsus noma bilan Alisherni Hirotga chaqirib oldi. Shoir Husayn Boyqaroga bag'ishlab "Hiloliya" qasidasini yozadi. Navoiy davlat arbobi sifatida 1469 - 1472 yillarda muhrdor, 1472 - 1476 yillarda vazir, 1487 -1488 yillarda Astrobodga hokimlik qildi. U ko'pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga urindi: shaharlarni obod qildirdi, ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi. Navoiy "Amir kabir" (ulug' amir), "Amiral muqarrab" (podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'lgan.

Shoirning sakkizta devoni mavjud. Shulardan 7 tasini o'zi tuzgan, bittasini zamondoshlari tuzib, "Ilk



devon" deb nom berishgan. Buyuk mutafakkir 1501 yil 3 yanvarda sakta (tananing harakatdan qolishi ) kasalligidan vafot etgan.

"Xamsa" beshlik degani. U besh mustaqil dostonidan iborat bo'lib, har bir doston ma'lum bir voqeani, mavzuni keng, atroflicha masnaviy yo'li bilan yoritib beradi. Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar "Xamsa" yaratishgan.

Asarlar: "Badoye' ul-bidoya " (1472 - 1476 vil, birinchi devoni,) "Navodir un - nihoya"(1476 - 1483), "Vaqfiya" (1481 - 1482), "Xamsa" (1483 - 1485 y), Besh dostonidan iborat:

1. "Hayrat ul- abror" 7976 misra (3988bayt), 64 bob, 20 maqolot.
2. "Farhod va Shirin "(59 bob, 5782 bayt).
3. "Layli va Majnun" (36 bob, 3622 bayt).
4. "Sab'ai va Sayyor"(37 bob, 8005 bayt).
5. "Saddi Iskandariy" (88 bob, 7215 bayt).

"Tarixi mulki Ajam" (1488), "Sab'atu abxur" (Yetti dengiz lug'atshunoslikka oid).

"Hazoyin ul - maoniy" ("Chor devon", 1492- 1498 yillarda tartib berilgan 4 devondan iborat).

1.G'aroyib us – sig'ar ("Yoshlik g'aroyibotlari ",7-8 yoshdan 20 yoshgacha, bahor).

2. "Navodir ush - shabob " ("Yigitlik nodirliklari ", 20 yoshdan 35 yoshgacha, yoz).

3. "**Badoye' ul - vasat** " (O'rta yosh go'zalliklari 35 yoshdan 45 yoshgacha, kuz).

4. "Favoyid ul - kibar" ("Keksalik foydalari", 45 - 60 yoshlar, qish).

"Devoni foniy "(1491 - 1498), "Muhokamat ul – lug‘atayn" (1498 -1499), "Mezon ul - avzon" (1492), "Munshaot "(1492) "Majolis un -nafois "(1491 - 1493), "Lison ut - tayr" (1498 - 1499, 176ta kichik bobdan iborat), "Tarixi anbiyo va hukamo" (1488), "Siroj ul - muslimiyn " (1488), "Holoti Sayid Xasan Ardasher " (1490), "Holoti Pahlavon Muhammad" (1496), "Xamsat ul -mutaxayyirin " (1492 - 1494, Jomiyga bag‘ishlangan), "Mahbub ul - qulub" (1500, oxirgi asari)."Nazm ul -javohir "(1485), "Chihil hadis "("Arba'in"), "Nasoyim ul - muhabbat " (1496), "Mufradot" (1491, fors - tojik tilida yozilgan), "Hiloliya "(1469),"Tuhfat ul-afkor ", "Ayin ul - hayot ", "Fusuli arbaa", "Sittai zaruriya " va boshqalar.

Navoiy Sulton Xusayn tarixini, Yusuf va Zulayho haqida turkiy tilda bir asar yozajagini ma’lum qilgan edi. Xondamir o‘zining "Makorim ul -axloq " ("Yaxshi xulqlar ") asarini Navoiyga bag‘ishlab yozgan. Shoir asarlari hozirgi kunda ham sevib o‘qilmoqda. A.Navoiyning 500 yillik yubileyi 1948- yil may oyida keng nishonlangan. Respublikarmizda 1991- yil "Alisher Navoiy yili" deb e’lon qilindi.

Buyuk zotlar tug‘ilib dunyoga kelishlaridan ilgari ishq dardiga muhtalo bo‘lar ekanlar. Bu dunyoga kelgach ularning amallari, xulqlari, deganlari va bitganlari ishq bilan yo‘g‘rilar, vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan.

Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan edi. Uning asarlarida yuqoridagi fikrning isbotini ko‘plab uchratish mumkin. Chunonchi, "Farhod va Shirin" dostonida shunday bayt bor:

Dedi: Qay vaqtdin o‘lding ishq aro mast,

Dedi: Jon ermas erdi tanga payvast.

Yoki to‘rt-besh yoshli go‘dakning tojik shoiri Qosim Anvor g‘azallarini yod aytishi, maktab yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g‘azallar bitishi, o‘n ikki-o‘n uch yoshlarida mamlakat bo‘ylab shuhrat taratishi, hukmdorlar e’tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo‘lib kelganligi kafolatidir.



Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida yozadi: "Sulton Abulqosim Bobur soʻzamol va hunarparvar podshoh edi. U baʼzi paytlarda ulugʻ amir bitgan turkiycha, forsiycha sheʼrlarni mutolaa qilar, taʼbining qudrati va sharofatli soʻzlarining shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar oʻqir edi"

U vaqtlarda shoir boʻlishni istagan kishi oʻzidan oldin oʻtganlar ijodidan yigirma ming bayt, zamondosh shoirlar ijodidan oʻn ming bayt sheʼrni yod olishi kerak ekan. Navoiy Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonidan tashqari (dostonni toʻliq yod bilgan) "Muhokamat ul-lugʻatayn"da qayd etilishicha, yigitlik yillarida oʻzi sevgan shoirlarning "shirin ashʼori va rangin adabiyotidin" ellik mingdan ortiq baytni yod bilgan ekan.

Alisher Navoiy oʻn ikki yoshida (1455 yil) otasidan yetim qoladi va Xuroson podshosi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi.

Abulqosim Bobur adabiyot va sanʼatni sevar, ijodkorlarni qadrlar, oʻzi ham oʻzbek va fors tillarida gʻazallar yozar edi. Maʼrifatparvar hukmdor Alisherni oʻz tarbiyasiga oladi. Uning iqtidorini, qobiliyatini eʼzozlab, bilim olishi, ijod qilishi va malakasini oshirishga eʼtibor qaratadi. 1456- yil Abulqosim Bobur oʻz poytaxtini Xurosondan Mashhadga koʻchiradi va Alisherni ham oʻzi bilan olib ketadi. 1457 -yil Abulqosim Bobur vafot etdi. Alisher Mashhadga qolib oʻqishni davom ettirdi. U mantiq, falsafa, riyoziyot (matematika) kabi fanlar bilan shugʻullandi. Ayni vaqtda oʻzbek va fors tillarida goʻzal gʻazallar bitdi. Sheʼriyat ahli unga "zullisonayn - " "ikki til egasi" nomini berdilar. Alisher oʻzbek tilidagi sheʼrlarida "Navoiy", fors tilidagi sheʼrlarida "Foniy" taxallusini qoʻllaydi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi, qobiliyati va sheʼriy iqtidoridan xursand boʻlgan Jomiy uni ham farzand va shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulugʻ shoir oʻrtasidagi shogird va ustozlik munosabiqari yanada mustahkamlanib, hamkorlikka aylandi.

Alisher 1466- yil Samarqandga keladi va u yerda dastlab moddiy qiyinchilikda yashaydi. Shunga qaramay, Samarqand madrasalarida tahsil oladi, ilm- fan, adabiyot va san'at ahli bilan tanishadi. O'zining iqtidori, qobiliyati bilan tez orada obro' va e'tibor qozonadi.

Bu davrda Samarqand Hirotdan keyin ikkinchi yirik ilmiy-madaniy markazlardan edi. U bu yerda mashhur olim Xoja Fazlulloh Abullaysdan saboq oladi va unga farzanddek bo'lib qoladi. Navoiy Vafoiy taxallusi bilan she'rlar bitgan Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Majidbekning diqqatini o'ziga tortadi. Hokim uni o'z homiyligiga olib, moddiy va ma'naviy yordam beradi. Samarqand Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

***VI. Yangi mavzuni mustahkamlashda o'qituvchi quyidagilardan foydalanadi:***

Yakka –og'zaki savollar

Testlar

Muammoli masalalar

***VII. Darsni yakunlash va uyga vazifa:***

Dars yakunida o'qituvchi dars tugaganligini aytib,  
daftarlariga uy vazifasini yozdiradi.

1. Daftarda qo'shimcha materiallardan foydalanib konspekt qilish.
2. Navoiyning lirik asarlaridan yod olish.
3. Darslikni o'qib kelish.

**Mustaqil ish.**

1. Mavzuga oid tarqatmalar tayyorlab kelish.
2. Navoiyning lirik asarlaridan namunalar tahlil qilish, lugʻat ustida ishlash.

***"NAVOIY HAYOTI VA IJODI" MAVZUSI BO'YICHA TARQATMA  
SAVOLLAR***

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
2. Alisher Navoiyning yoshlik yillariga oid qanday ma'lumotlar yodingizda qoldi?
3. Shoir kimlarni o'ziga ustoz deb bildi?
4. Mir Alisher Navoiy kim bilan maktabdosh do'st bo'lgan?
5. Navoiyning davlat arbobi sifatida olib borgan ishlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Alisher Navoiyning ilk devoni qanday nomlangan?
7. 1480-1487- yillar oralig'ida tuzilgan ikkinchi devoni qanday nomlangan?
8. Lirik asarlari jamlangan eng katta devoni haqida nimalarni bilasiz?
9. Shoir fors-tojik tilidagi asarlariga qanday taxallus qo'llagan?
10. Navoiyning adabiyotshunoslikka oid asarlari haqida nimalarni bilasiz?
11. "Xamsa"ning yaratilish tarixi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
12. Alisher Navoiyning mutasavvuf shoirlar haqidagi asari qanday nomlangan?
13. Shoirning hayoti so'ngida yaratgan asarining mazmuni nimaga bag'ishlangan?
14. Farididdin Attorning asaridan ta'sirlanib Navoiy qanday asar yaratgan?

## NAVOIYGA BAG'ISHLAB O'TKAZILADIGAN TADBIRLAR UCHUN SSENARIYLAR

Akademik litseylarda o'quvchilar bilan hamkorlikda badiiy kechalar, musiqali uchrashuvlar, sayohatlar, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlarni uyushtirib borish lozim. Ma'lum bir guruh o'quvchilar bilan ish olib boradigan o'qituvchi ularni butun bir jamoa sifatida uyushtirishi lozim. O'qituvchining adabiy vositachilik faoliyati quyidagilardan namoyon bo'ladi:

- o'quvchilar bilan munosabatga kirisha olish;
- adabiyot darslarining emotsionalligiga erishish;
- badiiy matndagi jozibani o'quvchilarga yetkazib berish;
- asarni o'quvchi bilan bog'lash;
- o'quvchilarni bahsga torta olish;
- badiiy hodisani har bir o'quvchi qalbi bilan tushinishiga erishish;
- axborotlar almashishini ta'minlash;
- o'quvchiga fikr erkinligi uchun sharoit yaratib berish.

### JAHON ICHRA JAHONIY SIYMO

*(Zal bayramona bezatilgan. To'rida Hazrat Navoiyning portreti osilgan).*

**1-boshlovchi:** Buyuk mutafakkir, g'azal mulkinging sultoni-Mir Alisher Navoiy tavalludi tantanasiga yig'ilgan aziz mehmonlar, Assalomu alaykum!

**2-boshlovchi:** "Davron elining jismida jon bo'lg'on" mo'tabar ustozlar Assalomu alaykum!

**1-boshlovchi:** *Jahonki muqaddas neni ko'ribdi,*

*Bariga onasan, ey qodir xayot.*

*Asrlar qaridan boqib turibdi,*

*Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.*

**2-boshlovchi:** *Shu buyuk o'g'ilni ardoqlab dildan*

*Xalqim ta'zim etsang arzigay tamom.*

*Uning nomi bilan birga bitilgan*

*Dunyo daftariga o'zbek degan nom.*

**1-boshlovchi:** Xoqoniy oily maqom Shoxrux sultonning podsholik davrida izzat va iqbol gulshanida omonlik va umid mevalari beradigan bir daraxt ko'kardi. Martaba va ulug'lik osmonida baxt-saodat ko'zini yorutuvchi bir yulduz porladi.

**2-boshlovchi:** Oliy martabali hidoyat nasabli, pokiza tabiatli, sof niyatli saltanat suyanchig'i mamlakat ustuni Xoqoniy davlatining yordamchisi 17-ramazon oyi 844-xijriy tovuq yilida yo'qlik dunyosidan borliq olamiga qadam bosib o'zining go'zalligi va porloq chehrasi bilan yer yuzini yoritdi. Kelajak nasllar ul zotni turkiy til asoschisi she'riyat sultoni – Mir Alisher Navoiy deb ehtirom ila tilga oladilar.

*Sahna ko'rinishi:*

**Domla:** Farzand muborak! G'iyosiddin Mir janoblari, iloho umri uzun, tolei baland bo'lg'ay!

**G'iyosiddin Kichkina:** Qulluq, taqsir, endi o'zingiz azon aytib otaliq vazifamni ado etmoqqa ko'maklashursiz.

**Domla:** Bu, albatta, biz uchun ham qarz, ham farz.

G'iyosiddin janoblari bu go'dakka xudoning nazari tushgan, buni men qalbim bilan his etib turibmen, buni go'dak yuzidagi ilohiy nurdan payqadim.

Qani, O-omin, o'g'lingiz xudo xohlasa el nazariga tushib uning baxti saodati yo'lida xizmat qilg'ay va yer yuzida undan dilobar inson bo'lmag'ay, Allohu akbar. Bizga endi javob (ular chiqib ketadilar).

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy Xurosonning bo'lajak sultoni Husayn Boyqaro bilan juda yaqin do'st bo'lib bir madrasada ta'lim olishgan. Yosh Alisher kichikligidan kitob o'qishni, she'r yod olishni sevgan.

**2-boshlovchi:** *Har yerda bahor bo'lsa, chaman bo'lsa kerak,*

*Har yerda chaman, gul-u suman bo'lsa kerak,*

*Har qayda xazon bo'lsa, tikon bo'sa kerak,*

*Har qayda tikan mihan bo'lsa kerak.*

*(Sahna ko'rinishi)*

**Alisher:** Assalomu alaykum, ustoz.

**Mavloni Lutfiy:** Va alaykum assalom o'glim, kimning o'g'lidursiz, bag'oyat tarbiyali oila farzandi ko'rinasiz ?

**Alisher:** Men G'iyosiddin (Kichkina) Bahodirning o'g'lidurmen, ustoz.

**Lutfiy:** Ey shunday deng, barakallo. Meni taniysizmi, kaminani ustoz deb hurmatlashingizga ne sabab?

**Alisher:** Siz haqingizda eshitmagan, sizning g'azallaringiz ila sehrlanmagan kishi bo'lmasa kerak. Mavloni Lutfiy nomi oilamizda juda hurmatlanadi, men sizning go'zal g'azallaringiz-la tanishmen, she'riyatga havasim baland, o'zim ham gohi-gohi mashq qilib qog'oz qoralaydurmen.

**Lutfiy:** Balli, balli, bo'tam, qani marhamat aylang, kaminaga ijodingizdan namunalar o'qib lutf aylangiz-chi.

**Alisher:** *Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,*

*Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh*

**Lutify:** (Baytni takroran qaytaradi) Voolloh, agar muyassar bo'lsa edi o'zimning 10-12 ming fors va turkiy baytlarimni ushbu g'azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat deb sanardim.

**1-boshlovchi:** 1465-yil buyuk mutafakkir Alisher Navoiy Samarqand tomon yo'l oladi va shoir sifatida juda katta shuhrat topadi. Shoirning dastlabki yozgan she'riy kitob "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir. Shu bilan bir qatorda shoir 1469-1472 yillari saroyda muhrdor, 1472-1476 yillarda vazir, 1487-1488 yillarda Astrobodda hokimlik qilgan.

**2-boshlovchi:** Hokimlik davrida Navoiy buyuk ishlarni amalga oshirdi, lekin Vatan va yurtiga bo'lgan muhabbati bir soniya ham unga tinchlik bermadi va yurtini qo'msab bir qancha asarlar yaratdi.

*(Talabalar navbatma-navbat o'qiydi)*

**1-talaba:** *Yorabki , inoyatingni yor ayla manga,*

*Yo 'qlukka xidoyatingni bor ayla manga.*

*Har qahri kifoyatingni dor ayla manga,*

*Har duri inoyating nisor ayla manga.*

**2-talaba:** *G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,*

*El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.*

*Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,*

*Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.*

**3-talaba:** *O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,*

*Ne ajabkim sarvinozim, o'n sakkiz yoshindadur.*

*Desa bo'lg'aykim, yana o'n sakkiz yil husni bor,  
O'n sakkiz yoshinda buncha fitnakim boshindadur.*

**4-talaba:** *Boshni fido qilg'il ato boshig'a*

*Jismni qil sadqa ano qoshig'a*

*Tun kuningga aylagali nur fosh,*

*Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

**1-boshlovchi:** Navoiy bobomiz hatto shohning vaziri bo'lganlarida ham xalq uchun ko'p yaxshi ishlar qilganlar. Maktab va madrasalar qurishga bosh-qosh bo'lganlar. O'zlarining insonparvarliklari tufayli elning nazari va mehriga tushganlar.

**2-boshlovchi:** -Alisher Navoiy bobomizning hikmatli so'zlarini tinglaylik.

*(Talabalar birma-bir hikmatlardan namunalar o'qiydilar)*

**1-talaba:** *Odami ersang demagil odami,*

*Oning kim yo'q xalq g'amidin g'ami.*

**2-talaba:** *Bu gulshan ichra yo'qdir baqo guliga sabot,*

*Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik birla ot.*

**3-talaba:** *Haq yo'linda kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,*

*Aylamak oson emas haqqin ado yuz ganj ila.*



**4-talaba:** *Hunarni asrabon netgumdir oxir*

*Olib tuproqqami ketgumdir oxir.*

**5-talaba:** *Chin so'zni yolg'onga chulg'ama*

*Chin ayta olur tilni yolg'onga bulg'ama.*

**6-talaba:** *Umrni zoye etma mehnat qil*

*Mehnatni saodantning kaliti bil.*

*(Navoiy g'azali bilan aytiladigan qo'shiq ijro etiladi. Talaba qiz raqs ijro etadi)*

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy 1438-yilda turkiy tilda birinchi bo'lib "Xamsa" yozishga kirishdilar va juda qisqa muddat ikki yilda besh yirik dostonidan iborat "Xamsa"ni yozib tugatdilar. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo'r shodlik bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy "Xamsa"siga yuksak baho berdilar. Husayn **Boyqaro** buyuk shoirini oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib Hirot ko'chalarini aylantirgan.

*("Xamsa" asari haqida tashrif buyurgan olimlardan biriga so'z beriladi).*

**2-boshlovchi:** "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), falsafiy axloqiy-ta'limiy asar. Hajmi 3988 bayt 63 bob bo'lib ularning 21 bobi muqaddima 20 bobi maqolat 20 bobi hikoyat va masallar, oxirgi 2 bobi xotimadan iborat.

**1-boshlovchi:** "Xamsa"ning ikkinchi dostoni "Farhod va Shirin" dostonidir. Hajmi 5782 bayt. Dostondagi voqea insonni poklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga

o‘zligini tanitadi, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu –o‘ylari ham ifoda etilgan.

**2-boshlovchi:** “Layli va Majnun” “Xamsa”ning uchinchi dostonidir. Unda oldingi dostonda bo‘lgani kabi zaminiy muhabbatning ilohiy muhabbatga eshligi o‘zining go‘zal badiiy ifodasini topgan. U mazkur doston bilan o‘zbek adabiyotida bu mavzuni boshlab berdi.

**1-boshlovchi:** “Sab’ai Sayyor” dostoni yetti iqlim shahanshoi Bahrom taqdiri mavzusini yoritadi.

Navoiy asar voqealarini o‘z Vatani Xuroson, Movaraunnahr hayoti bilan bog‘lashga harakat qildi. Shuningdek, bu mashhur qissaga turkona ruh berdi.

**2-boshlovchi:** “Xamsa”ning yakunlovchi “Saddi Iskandariy” dostoni dunyoning mashhur siymolaridan biri jahongir Iskandarga bag‘ishlangan. “Saddi Iskandariy” dostoni hajmi jihatidan eng katta asardir. U 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan.

**1-boshlovchi:** Navoiyning shoh qoshida oshib borayotgan mavqe’ e’tibori saroydagi Majididdin boshliq bir guruh el haqiga hazar qilmaydigan amaldorlarni tashvish solib qo‘ydi. Ular shohning adolat talab amirini ko‘zdan uzoqroqqa jonatish yo‘lini izlay boshladilar va bunga muvaffaq bo‘ldilar. Shoir 1487-1488-yillarda Astrobodga hokim tayinlanib, poytaxtdan uzoqlashtirildi.

*(Sahna ko‘rinish, boshlovchi sharhlab turadi)*

**Boshlovchi:** Uch yomonning ta’rifi.

Sulton Husayn bir kuni o‘z vazirlarining aql farosatini donishmandligini sinab ko‘rish uchun ularni huzuriga chaqiribdi:

**Podshoh:** Menga uch yomon odam topib kelinglar, topganingizga yuz tillo mukofot, topa olmaganingizga 70 darra, sizlarga uch kun muhlat .

**Boshlovchi:** Vazirlar zir yugurishib uch yomon odam topa olmabdilar .

**Alisher Navoiy:** Jallod, qassob va sayyodni boshlab podsho huziriga kelibdi.

**Podshoh:** Mana do‘stim Alisher sizga yuz tillo donolingizga tasanno. Endi mana shu uch yomonga ta‘rif berishingizni so‘raymen.

**Boshlovchi:** Vazirlar podshoning bu savoliga ham javob bera olishmabdi. Shunda

**Alisher:** Jallodga faqat farmon bo‘lsa bas, haqmi nohaqmi baribir to‘g‘ri kelgan odamni qilichdan o‘tkazaveradi. Qassob hayvonlarning eng yaxshisini so‘yadi. Sayyod jonivorlarni ovlaydi, chiroyli qushlarni tutib qafasda saqlaydi. Ularni hayot go‘zalliklaridan mahrum qiladi.

**Sulton Husayn:** Do‘stim Alisher, aql-u farosatingizga, donolingizga yana bir marotaba qoyil qoldim.

## BAHRU-BAYT

**1-talaba:** *Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim.*

*Jon base qildim fido oromi jone topmadim.*

**2-talaba:** *Meni ishqdin man etar sodda shayx,*

*Dema sodda shayx, aytkim loda shayx.*

**3-talaba:** *Har necha dedimkim kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,*

*Vahki, kun-kundin battarroq muhtalo  
bo‘ldim sanga*

**4-talaba:** *Ahli ma‘ni guruhida zinhor ,*



*Hech or aylama gadolig'indin.*

*Ki bularga gadolig' ortug'dur*

*Ahli suratka podsholig'indin.*

**5-talaba:** *Navoiy tiling asragin zinhor,*

*Desang kim, yemay dahr ishindin afsus.*

**6-talaba:** *Siri ishqimni ko'ngul ko'zi birla etmak ne tong,*

*Qalbi tor domanni men chun sohib asror istadim.*

**7-talaba:** *Munglug' boshim ostidagi toshimnimu dey?*

*Tosh ustidagi g'arib boshimnimu dey ?*

*Hayrat suyidin sa'brok maoshimnimu dey?*

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy betakror va boqiy siymodir. U yaratgan asarlar samodek tiniq, tongdek shaffof, musiqiy ohanglar bilan yo'g'rilgan. Asarlarini o'qir ekanmiz har bir satrda o'z xalqiga insoniyatga cheksiz mehr bilan bir jon bir tan ekanligini anglash qiyin emas.

*Vatan tarkini bir nafas aylama,*

*Yana ranju g'urbat havas aylama.*

**2-boshlovchi:** Aziz bobomiz jozibador baytlari bilan insoniyatga so'zning sehrini, hayotning **ma'nosini**, saodatning eshigini ochib berayotgandek. Bu gulshanda saodatning kaliti odamlarga yaxshilik qilish ekanligini anglatadi.

*(Sahna ko‘rinishi)*

### **Yaxshidan bog‘ qoladi**

*Ko‘klam kunlarining birida sulton Husayn saroyda yolg‘iz o‘tiraverib zerikibdi. Ancha vaqtdan beri Mir Alisherni ko‘rmaganligi tufayli do‘sti yashaydigan mahallaga yo‘l olibdi.*

*Borib qarasa, do‘sti yeng shimarib bog‘da ishlayotgan ekan.*

**Husayn:** Hormang, do‘stim! Nega shoirlar majlisida ko‘rinmay qoldingiz desam, bog‘bonlikni pesh qilibsiz-da?

**Alisher:** ”Ko‘klam kelsa, ko‘chat ek” - degan ekan mashoyixlar. Shu bog‘dagi qurigan olmalarni qo‘porib tashlab, o‘rniga uch-to‘rt tup yong‘oq ekyapman.

**Husayn:** Ey do‘stim-ey, qarigan chog‘ingizda bog‘ qilishni nima keragi bor axir?

Bu yong‘oqlar qachon hosilga kiradi –yu, mevasini qachon yeysiz? Undan ko‘ra shu bog‘da tinchgina gazal bitib o‘tiravermaysizmi?

**Alisher:** Do‘stim, yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko‘chatlarni o‘zim uchun emas, balki mahalla bolakaylari uchun ekyapman. Bir kun kelib “Bu bog‘ Mir Alisherdan qolgan!” deyishsa, shuning o‘zi har qanday ne‘matdan lazzatliroqdir.

**Husayn:** Bo‘lmasa, shu tillolarni olib qo‘ying do‘stim. Ko‘chat olursiz!

**Alisher:** Ana ko‘rdingizmi, do‘stim, ekayotgan ko‘chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi.

**1-boshlovchi:** Mir Alisher o‘z davridanoq buyuk daholar safidan mustahkam o‘rin olib, o‘zbek nomini jahonga mashhur qilib, xalqimiz timsoliga aylandi. Uning ummon qadar bepoyon ijodidan har kim o‘z iste‘dodiga yarasha bahramand bo‘lmoqda. Zero Navoiyning har bayti hikmatli bir kitob.

**2-boshlovchi:** Biz shunday ulug‘ mutaffakir shoirimiz borligidan faxrlanamiz, iftixor qilamiz, bugungi adabiy kechamiz Navoiyga, she‘riyat dahosiga, bo‘lgan ehtiromimizning bir ko‘rinishidir.

**1-boshlovchi:** *Birin- ketin o‘tib borar asrlarning karvonlari*

*Oh, ne chog‘lik xatarlidir uning oshar dovonlari,*

*Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi,*

*Ushalsa gar umidvor zot Navoiyning armonlari.*

**2-boshlovchi:** *Fursat keldi do‘st-u g‘anim kimligini bilay bu kun,*

*Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,*

*Ko‘kka boqib sahar chog‘i iltijolar qilay bu kun*

*Nurga to‘lsin aziz bobom Navoiyning makonlari.*

Bugun oz bo‘lsa ham Navoiy bobomizni ruhini shod eta olgan bo‘lsak o‘zimizni baxtiyor hisoblaymiz. Biz ham bobomizdek o‘qish, ilm olish, o‘rganish, komil inson bo‘lishga harakat qilamiz. Navoiy bobomizga bag‘ishlab tayyorlangan bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi. E‘tiboringiz uchun rahmat!

## **NAVOIY NOMI BARHAYOT**

*(Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadbir ssenariysi)*

*(Sahnaga ikki boshlovchi chiqadi).*

**1-boshlovchi:** Buyuk mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni - Mir Alisher Navoiy tavalludi tantanasiga yig‘ilgan aziz mehmonlar, assalomu alaykum!

**2-boshlovchi:** "Davron elining jismida jon bo'lg'on" mo'tabar ustozlar,  
assalomu alaykum!

**1-boshlovchi:** *Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,*

*Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

*Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,*

*Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

**2-boshlovchi:** *Kamol et kasbkim olam uyidin,*

*Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.*

*Jahondin notamom o'tmak biaynih,*

*Erur hammomdin nopok chiqmoq.*

*(Boshlovchilar chiqib ketadilar. Sahnaga 3 o'quvchi va Navoiy siymosi – Navoiy qiyofasidagi o'quvchi chiqadi).*

**1-o'quvchi:** Aziz bobojon! Siz betakror va boqiy siymosiz. Siz yaratgan asarlar samodek tiniq, tongdek shaffof, musiqiy ohanglar bilan yo'g'rilgan.

Asarlaringizni o'qir ekanmiz, har bir satringizdan o'z xalqingizga, insoniyatga cheksiz mehringiz, u bilan bir jon, bir tan ekaningizni anglash qiyin emas.

*Vatan tarkini bir nafas aylama,*

*Yana ranji g'urbat havas aylama.*

**2-o'quvchi:** Aziz bobojon! Siz jozibador baytlaringiz bilan insoniyatga so'zning sehrini, hayotning ma'nosini, saodatning eshigini ochib berayotgandeksiz. Bu gulshanda saodatning kaliti odamlarga yaxshilik qilishda ekanligini anglatdingiz:

*Bu gulshan ichra yo 'qtir baqo guliga sabot,*

*Ajab saodat erur yaxshilik bila chiqsa ot.*

**3-o`quvchi:** Ulug' ustoz! Siz g'azal mulkining sultonisiz. Siz bir umr:

*Odamiy ersang demagil odami,*

*Onikim yo 'q xalq g'amidin g'ami,-*

*degan shioringizga sodiq qoldingiz.*

*(O'quvchilar chiqib ketadilar. Ovoz:)*

*Jahonki muqaddas neni ko'ribdi,*

*Bariga onasan, ey qodir hayot.*

*Asrlar qa'ridan boqib turibdi,*

*Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.*

*Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,*

*Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.*

*Uning nomi bilan birga bitilgan*

*Dunyo daftariga o'zbek degan nom.*

*Mumtoz kuy chalinadi. Navoiy o'z ijodxonasida.....*

*Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro` kelmadi,*

*Ko`zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

*Lahza-lahza chiqdimu chektim yo'lida intizor,*

*Keldi jon og'zimg'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi.*



*(Asta-sekin Navoiy siymosi sahnadan chekinib, kuy, qo‘shiq raqsga ulanadi. “Munojot”).*

**1-boshlovchi:** Navoiy 60 yillik umri davomida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini, inson tuyg‘ularini, uning kamolini, o‘z orzu-tilaklarini boy adabiy ilmiy merosida aks ettirdi.

**2-boshlovchi:** Navoiyning mana shu boy badiiy, ijodiy dahosi o‘z davridan boshlab adabiy hayotimizda alohida bir maktab bo‘lib keldi.

**1-boshlovchi:** Navoiyga bag‘ishlangan bugungi tadbirni ramziy ma’noda to‘rt faslga bo‘lamiz. Zero, Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"da aytganidek, "Umr fusulining navbahori"ga sayr etsak.

Yosh Alisher bolaligidanoq o‘zining o‘tkir zehni, ziyrakligi va xushxulqi bilan barchani hayratga solgan. U uch-to‘rt yoshidayoq she’riyatga mehr qo‘yadi, to‘rt-besh yoshida Qosim Anvor g‘azallarini yod biladi, maktab yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini to‘liq yodlaydi.

*(Sahna ko‘rinishi. Yosh Alisherning Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuvi).*

**2-boshlovchi:** Navoiy o‘z umrining ikkinchi davrini "Yigitlik nodirliklari" deb atadi. U yetti-sakkiz yoshlarida g‘azallar bitgan bo‘lsa, o‘n ikki-o‘n uch yoshlarida mamlakat bo‘ylab shuhrat taratadi, el e’tiborini qozonadi. Navoiy yigitlik yillarida o‘zi sevgan shoirlarning "shirin ash’ori va rangin ab’yotidin" ellik mingdan ortiq baytni yod bilgan. Aziz qatnashchilar, sizni Navoiy umrining shu fasliga chorlaymiz.

*(Navoiy qiyofasidagi o‘quvchi shoir g‘azallaridan birini o‘qiydi. Ikki o‘quvchi Navoiyning "Qaro ko‘zim" hamda "Topmadim" radifli g‘azallarini yod aytadilar. Kuy chalinib turadi).*

**1-boshlovchi:** "Fusulning xazoni, tiriklik bog'ining, barg- rezining nishoni" bo'lg'on fasl. Alisher Navoiy umrining bu davrida mamlakatda "Amiri kabir" - (Ulug' vazir) sifatida o'zining olijanob va eng yuksak orzulari - xalqqa xizmat qilish, mamlakat osoyishtaligini saqlash, hokimiyatni mustahkamlash, ilm-fan va adabiyot, obodonchilik va madaniyatni rivojlantirishdek ulkan ishlar qanchalik og'ir va ma'suliyatli bo'lmasin, ularni katta mehr-muhabbat va ulug'vorlik bilan amalga oshirdi. Shu bilan birga, bir lahza ham ijoddan to'xtamadi.

**2-boshlovchi:** *Emas oson bu maydon ichra turmoq,*

*Nizomiy panjasig'a panja urmoq.*

**1-boshlovchi:** *Kerak sher oldida sher jangi,*

*Gar sher o'lmasa bori palangi.*

*(Shu o'rinda o'quvchilar ijrosida "Xamsa"dan parchalar va Navoiy g'azali bilan aytiladigan qo'shiqlar ijro etiladi)*

**2-boshlovchi:** Buyuk "Xamsa"ni yaratib, Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Jomiyga hamqadam bo'lib, buyuklar qatoridan joy olgan hazrat Navoiy o'z oldiga qo'ygan maqsadini sharaf bilan ado etdi.

**1-boshlovchi:** Zamonining alloma shoiri, ustoz Jomiyning yuksak bahosiga musharraf bo'ldi. Husayn Boyqaro esa "Bu qalamga falakdin ofarinlar yog'ilsin" deya niyat bildirdi.

**2-boshlovchi:** To'rtinchi fasl - "Umr fusulining qishi". Navoiy ishq dardi va ranjining umr oxirida ko'rsatgan natijalari-yu, jonni o'rtovchi kechinmalarini "Favoyid ul -kibar"da jamlagan.

*(Tadbirda Navoiy g'azal va ruboiylari bo'yicha mushoira o'tkazishni ham tavsiya qilamiz. Mumtoz musiqa chalinib turadi).*

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy haqida shoirning do‘sti, maslakdoshi Husayn Boyqaro o‘z "Risola"sida deydi.

*(Sahnaga Husayn Boyqaro kirib keladi):*

**Husayn Boyqaro:** "Mir Alisher turk tilining o‘lgan jasadiga Masih nafasi bilan ruh-jon kirgizdi... U har bir she‘r turi maydoniga topqir otini surar ekan, o‘sha mamlakatni til qilichi bilan o‘ziga tobe’ etdi. Uning nazmini maqtashga til nuqsonli va qalam ojizdir va bu kun nazm dunyosining ruboi maskunida qahramon udur va uni bu mamlakatni qo‘lga kiritgan sohibqiron desa bo‘ladi".

**Adabiyotshunos:** O‘lis yulduzlarning nuri ular so‘nganidan keyin ham ming-ming yillar mobaynida ona-yerimizga yog‘ilib turar ekan.

**Husayn Boyqaro:** Mir Alisher o‘z davridayoq buyuk daholar safidan mustahkam o‘rin olib, o‘zbek nomini jahonga mashhur qilib, ona xalqimiz timsoliga aylandi, uning ummon qadar bepoyon ijodidan har kim o‘z iste‘dodiga yarasha bahramand bo‘ladi. Zero, Navoiyning har bayti hikmatli bir kitob.

**Adabiyotshunos:** Biz shunday ulug‘mutafakkir shoirimiz borligidan faxrlanamiz, iftixor qilamiz. Bugungi tadbirimiz Navoiyga, she‘riyat dahosiga bo‘lgan ehtiromimizning bir ko‘rinishidir.

*Barchamizga, adabiyot ahllariga she‘riyat bayrami muborak bo‘lsin.*

*Birin-ketin o‘tib borar asrlarning karvonlari,*

*Oh, nechog‘lik xatarlidir uning oshar dovonlari,*

*Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi.*

*Ushalsa gar umidvor zot Navoiyning armonlari,*

*Fursat keldi do‘stu g‘anim kimligini bilay bu kun.*

*Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,*

*Ko‘kka boqib sahar chog‘i iltijolar qilay bu kun,*

*Nurga to'lsin aziz bobom, Navoiyning makonlari.*

*(Barcha kechada qatnashganlar boshlovchilar tomonidan rollari bilan tanishtirilib, sahnaga taklif etiladilar)*

**1-boshlovchi:** E'tiboringiz uchun rahmat!

### **Prezidentimiz I.A.Karimov Alisher Navoiy haqida**

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

\* \* \*

Insoniy ishq-muhabbatni, mehru vafo, iffat, sharmu- hayo va nazokatni yonib, hassoslik bilan kuylagan Navoiyning go'zal satrlarini o'qiganda buyuk va olijanob qalb sadolarini sezib turamiz. Bu yurak tug'yonlari, mana, oradan besh yarim asr o'tsa hamki, millionlab odamlarni hayajonga solib kelmoqda.

\* \* \*

Ona tiliga muhabbat, uni ulug'lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu tafakkurimizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan.

\* \* \*

Alisher Navoiyning tarix va bashariyat oldidagi ulug' xizmatlaridan biri shundaki, u adolat tuyg'usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliy mezon darajasiga ko'tardi, odamzodni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlab o'tdi.

\* \* \*

Navoiy hazratlarining tom ma'noda xalqparvar shaxs bo'lgani, uning o'lmas g'oyalari bugungi kunlarimiz uchun ham bag'oyat hamohang va ibratli ekani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

## **Alisher Navoiy XX - XXI asr olimlari va yozuvchilari talqinida**

*Alisher Navoiy dong'i ketgan buyuk shoirgina emas, o'z davrining eng ma'lumotli kishisi, fan va san'atning turli sohalarini asosli egallagan olim va mutafakkir, eng hushyor, eng tadbirli va davlatning istiqbolini ko'ra biluvchi keng qarashli bir siyosatchi ham edi.*

### **Oybek**

O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk san'atkorlaridandir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Robindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan so'z san'atkorlarining nomi va merosidek o'lmasdir.

### **N.Mallaev**

O'zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'lmas "Xamsa" tarkibidagi dostonlari, beqiyos "Xazoyin ul-maoniy"ni tashkil etgan she'riyati, o'n to'rt nomdagi nasriy asarlari bilan adabiyotimizni boyitgan, uni jahon adabiyoti yuksakligiga ko'targan, ilg'or bashariyatning madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir.

### **S.G'anieva**

Adabiy asarning qiymati, o'qishli va o'qishli emasligi birinchi navbatda uning qanday uslub bilan yozilishiga bog'liq. Alisher Navoiy asarlari besh asrdan buyon xalqimiz tomonidan sevib o'qilib kelinayotgan ekan, demak, bu asarlar

yaxshi uslub bilan insonga farah bag`ishlaydigan shakl va ohanglarda yaratilgan. Xoh uning she'r va dostonlari bo'lsin, xoh nasriy asarlari, xoh ilmiy asarlari, xoh tarixiy asarlari bo'lsin, ularni o'qigan har qanday kitobxon ulardan ma'naviy ozuqa oladi, rohatlanadi.

### **A.Hayitmetov**

"Tuhfat ul-afkor" qasidasi Alisher Navoiyning shoh asarlaridan biri bo'lib, unda abadul -abad ahamiyatini yo'qotmaydigan, hamisha dolzarb g'oyalar ifoda etilgan.

### **N.Komilov**

Navoiy muqaddas kitoblardagi olamshumul fikrlardan o'z badiiy asarlarida barakali istifoda etib, islom ta'limotining ommalashishiga, ravnaq topishiga o'zining beqiyos ulushini qo'shgan. Islom dini asoslari Navoiy asarlarining badiiy-falsafiy jihatdan barkamolligini ta'minlagan.

### **M.Mirzaahmedov**

Kitobing kirmagan o'zbek elida xonadon yo'qdir,  
Ruboiy kuylaring yod bilmagan bir jonajon yo'qdir,  
Yetuk avlodlaringdir ilmu donishli, gumon yo'qdir,  
Bashar tarixini yuz bor o'qi, bunday zamon yo'qdir,  
Ko'ngillarni yoritdik ma'rifatdan mohitob aylab.

### **G'afur G'ulom**

Baytingga bir bora qovushgan har lab,  
Takrorlab ketgusi mahshargacha to,  
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,

Milliard martabali jahonni hatto.

### **A.Oripov**

Alisher Navoiy dostonlar va nasriy asarlarini asosan umrining so‘nggi yigirma yillarida yaratgan bo‘lsa, lirik she‘rlarini butun ongli hayoti davomida yozgan. Demak, shoir hayotidagi ruhiy kechinmalar o‘sha davrning murakkab siyosiy, ijtimoiy hayotidagi turli-tuman voqea, hodisalarga bo‘lgan munosabati xuddi aynan lirik she‘rlarida o‘z ifodasini topgan.

### **F.Sulaymonova**

Navoiy asarlari markazida ezgulik, pok insoniy muhabbat, inson fazilatlarini ulug‘lash, tinchlikka, do‘stlikka da‘vat, vijdon erkinligi singari g‘oyalar turadi.

### **T.Mirzaev**

**"Ulug‘ shoir va olim, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini bilasizmi?"**

### **Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar**

Bellashuvning maqsadi kitobxonlarni Alisher Navoiy ijodi bilan tanishtirib, adib va ma‘rifatparvar, davlat arbobi, jahon ma‘naviyatining buyuk siymosi yaratgan asarlarni o‘qish, ijodi, tarjimai holi, u qoldirgan merosni o‘rganish hamda keng kitobxonlar ommasiga targ‘ib etishdan iborat.

Bellashuvni o‘tkazishdan oldin faol kitobxonlardan 2 ta bilimdonlar guruhi tuziladi. Har bir guruh 8 yoki 10 nafar kitobxonlardan tashkil topadi.

Quyida bellashuvga qo‘yiladigan savollardan namunalar keltiramiz.

1. Shoirning haqiqiy ismini aytib bering. Uning yana boshqa taxallusi bo‘lganmi?

(Shoirning haqiqiy ismi Nizomiddin Mir Alisher, Foniyl taxallusida ham ijod etgan).

2. U Sa'diyning qaysi asarlarini yoshlik paytida o'qigan?

(Alisher Navoiy Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston" asarlarini o'qigan va yod olgan).

3. Yosh Alisherning iste'dodiga qiziqqan va unga katta baho bergan shoir kim?

(Keksa shoir Lutfiy yosh Alisherning iste'dodiga qiziqqan va unga katta baho bergan).

4. Alisher Navoiy necha yoshlaridan she'r yoza boshlagan va necha yoshida shoir sifatida keng tanilgan?

(Alisher Navoiy 10-12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan va 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan).

5. Shoir Samarqandda qaysi madrasada o'qigan?

(Shoir Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi).

6. Navoiyning ilk devoni qaysi?

(Alisher Navoiyning ilk devoni "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")dir.

7. Navoiyning "Xamsa"siga qanday asarlar kiradi?

(Alisher Navoiyning "Xamsa"siga quyidagi asarlar kiradi: "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror").



8. Navoiy ijodida eng sermahsul davr qaysi va shu davrda qanday asar yaratgan?

(Shoir ijodida 1483 - 1485 yillar eng sermahsul davr bo'lgan. Shu ikki yil ichida "Xamsa"ni yaratgan).

9. Shoirning ikkinchi devoni qaysi va qachon yozgan?

(Alisher Navoiy 1476 - 1483 yillar orasida ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar")ni yozgan.

10. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni necha qismdan iborat?

( "Xazoyin ul-maoniy" devoni to'rt qismdan iborat 1. "G'aroyib us-sig'ar", ("Bolalik g'aroyibotlari"), 2. "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"). 3. "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari"). 4. "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") deb nomlangan).

11. Ushbu keltirilgan ruboiy Alisher Navoiyning qaysi asarida berilgan?

Pokiza xos xonang nurlarga to'lsin,

Iffat chamani taxting maskani bo'lsin,

Iqbol osmoni oyog'ing hoki bo'lsin,

Hamisha Tangri taolo panohing bo'lsin.

(Alisher Navoiyning "Munshaot" (maktublar) to'plamidan olingan).

12. Mutafakkirning "Muhokamat ul-lug`atayn" asari qanday asar?

( "Muhokamat ul-lug'atayn" asari tilshunoslikka doir asar bo'libgina qolmay, balki o'zbek mumtoz adabiyotining taraqqiy etish jarayoni va uning istiqbolini yorituvchi asar hamdir).

13. Alisher Navoiy hayotining oxirgi yillarida qaysi asarini yaratgan?

(Alisher Navoiy hayotining oxirgi yillarida "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") nasriy asarini yozdi. Asar 3 qismdan iborat.

Bellashuv yakunini hakamlar ma'lum ball qo'yish bilan yakunlaydilar.

"Yetti iqlimda mashhur" nomli kitob-suratli ko'rgazmani tashkil etish uchun materiallar.

Taklif etilayotgan kitob ko'rgazmasi kutubxonada o'tkaziladigan tadbirlarni to'ldiradi.

Ko'rgazma quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

#### 1. Mumtoz adabiyotimiz asoschisi

*Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir.*

*I.Karimov*

Bu bo'limda:

Alisher Navoiy tavalludini nishonlash munosabati bilan chiqarilgan qaror va farmonlar, asarlarini nashr etish to'g'risidagi va uning nomidagi Davlat mukofotiga doir farmonlar, ilmiy anjumanlar haqidagi adabiyotlarni namoyish etish mumkin.

#### 2. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatining sahifalari

*Besh asr kim, nazmiy saroyini*

*Titratadi zanjirband bir sher*

*Temur tig'i yetmagan joyini*

*Qalam bilan oldi Alisher*

Bu bo'limda:A

Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi nashrlarni namoyish qilish maqsadga muvofiq.

### 3. Navoiy - lirik shoir

*Alisher Navoiy Sharq adabiyoti tarixida eng boy lirik meros yaratgan shoirlardan biridir. Bu lirik meros ichida g'azallar doim birinchi o'rinda turgan.*

A.Hayitmetov

Bu bo'limda:

Alisher Navoiy yaratgan lirik to'plamlari, g'azallar, muxammaslar, musaddaslar, ruboiylar, qit'a, tuyuq, qasidalar va dostonlari hamda shu nashrlar haqidagi asarlarni ham namoyish etish maqsadga muvofiq.

### 4. Alisher Navoiy - adabiyotshunos

*Alisher Navoiy ulug' so'z san'atkori bo'lishi bilan birga, o'z davrining atoqli adabiyotshunosi va estetik tafakkur taraqqiyotining yirik namoyandalaridan biri hamdir.*

N.Mallaev

Bu bo'limda:

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mufradot" asarlarini va shu asarlar haqida chop etilgan manbalarni ham namoyish etish mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. T.2008
2. Navoiy ruhi madadkor bo‘lg‘ay: O‘z R.Prezidenti I.A.Karimovning Alisher Navoiy haykali va milliy bog‘ining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi. 1991 y. 28- sentabr
3. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida: Tarix, ma’rifat, ma’naviyat. - T. O‘zbekiston.1998
4. Ulug‘lari **e’zozlangan** yurt zavol ko‘rmagay: Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bag`ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi 2001y. 24 -avgust
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.O‘zbekiston.2001
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami: 20 tomlik. T. Fan. 2003
7. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. T. Fan.2000
8. Navoiyga armug‘on. Tuzuvchilar: B.Qodirov, G.To‘xliev, B.Amirboev va boshq. T.2003
9. Komilov N. Navoiyga armug‘on. 4-kitob. – Toshkent, 2004
10. Fitrat. Navoyining forsiy shoirlig‘i va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T. 2000
11. Jamolxonov H. Navoiyning fonostilistikaga oid fikrlari .O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari 3. – Toshkent. 2008

12. Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. — T. Universitet. 2001
13. Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida **ko'ngil** obrazi. -T.2002
14. Fitrat. «Farhod-u Shirin» dostoni to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T. 2000
15. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik sirlari. — T. 1993
16. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. — T.1991
17. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. -T.Fan. 1993
18. Komilov N. Tasavvuf. -T.1996
19. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. — T. O'qituvchi. 1996
20. Vohidov R. Navoiy va ilohiyot. — T. 1997
21. Ishoqov Y. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. -T. 2002
22. Qudratullaev H. Navoiyning adabiy- estetik olami. — T.1991
23. Hakimov M. Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar. -T. 1991
24. Boltayeva. Alisher Navoiyning «Fusuli arbaa» asarining tahlili. — Samarqand. 2000

## MUNDARIJA

1. Soʻz boshi.....	3
2. A.Navoiy hayoti. Shoir sheʼriyati.....	4
3. A.Navoiyning epik asarlari. Xamsachilik tarixi.....	16
5. "Hayrat ul -abror" dostoni.....	24
6. "Layli va Majnun" dostoni.....	32
7. "Sabʼai sayyor" dostoni.....	42
8. "Saddi Iskandariy" dostoni.....	47

### Ilovalar.

9. Tushunilishi qiyin soʻzlarning qisqacha izohli lugʼati.....	56
10. A.Navoiyning adabiy merosi. 1 soatlik dars ishlanmalari.....	80
11. A.Navoiyga bagʻishlab oʻtkaziladigan tadbir ssenariylari.....	96
12. Prezidentimiz I.A.Karimov A.Navoiy haqida.....	109
13. A.Navoiy XX -XXI asr olimlari va yozuvchilari talqinida.....	110
14. Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar.....	112
15. Adabiyotlar roʻyxati.....	118